

# JAHON TARIXI

# 8

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

YANGI NASHR

**Toshkent – 2024**



UO‘K 00000
KBK 00000
J 00

**MUALLIFLAR:**

Oybek Abdimo‘minov, Jonibek Mustafoyev, Laziz Nasrullayev

**TAQRIZCHILAR:**

**Sh. Ergashev** – Renessans ta’lim universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori.

**Y. Tayronov** – Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi.

**A. Biykuziyev** – O‘zMU tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**H. Rahmonov** – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim.

**F. Fayziyeva** – Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**Z. Bozorov** – Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 5-sonli IDUM oliy toifali tarix fani o‘qituvchisi.

**SHARTLI BELGILAR:**

 – *siz bilib olasiz*

 – *tarix yondaftarchangizga kiriting!*

 – *eslab ko‘ring!*

 – *mening tarixiy tadqiqotlarim*

 – *tarixiy mushohada*

 – *bilag‘onlar uchun*

 – *buni yodda saqlang!*

 – *atamalar izohi*

 – *o‘ylang va xulosa qiling!*

 – *savol va topshiriqlar*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 000000000000000

© Respublika ta’lim markazi, 2024

# KIRISH

Aziz o‘quvchilar! Siz 7-sinf Jahon tarixi darsligida o‘rta asrlar tarixining bir qismi bilan tanishdingiz. Mazkur darslikda esa o‘rta asrlar tarixining so‘nggi davrlari aks etgan XIII–XV asrlardagi jahon xalqlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi eng muhim voqea-hodisalar bayon etilgan.

Bu davrga kelib insoniyat tarixida muhim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ushbu voqealar jahon xalqlarining keyingi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, dunyoning turli hududlarida yirik markazlashgan davlatlar tashkil topdi. Yevropada Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Osiyoda Amir Temur va Temuriylar saltanati, Usmoniy turklar sultonligi, Oltin O‘rda, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Koreya kabi davlatlar jahon xalqlari hayotida o‘ziga xos tarix yaratdi. Sharq va G‘arb mamlakatlari davlat boshqaruvida – kengash, General shtatlar, parlament vujudga keldi va ular hozir ham muhim ahamiyatga ega.

Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi ijtimoiy-iqtisodiy soha yuksalishiga zamin bo‘ldi. Turli siyosiy jarayonlar ta’sirida dehqonlar qaramligi bekor qilindi, shaharlar hayoti taraqqiy etib bordi. Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘li orqali Osiyo va Yevropa mamlakatlari o‘zaro qizg‘in savdo-sotiqni amalga oshirdilar. Bu, o‘z navbatida, Sharq va G‘arb, Shimol va Janub mamlakatlari hamda xalqlari o‘rtasida xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bunday iqtisodiy munosabatlar dastlabki bank va birjalarning yuzaga kelishida muhim rol o‘ynadi. Bu davrda Afrikadagi Mali, Songay, Amerikadagi Mayya, Atstek, Ink kabi davlatlar ham o‘ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi.

XIII–XV asrlarda jahon xalqlari yuksak madaniy taraqqiyotga ham erishdilar. Jumladan, Sharq mamlakatlari, xususan, Movarounnahrda bu davrda Ikkinchi, Yevropada esa Ilk Renessans yuz berdi. Jahonning yirik ilmiy muassasalarida diniy va dunyoviy fanlar o‘qitilishi natijasida ilm-fan rivojlanib, qator kashfiyotlar amalga oshirildi. Dunyo xalqlari adabiyot, san’at, musiqa, teatr, haykaltaroshlik va me’morchilik sohasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdilar.

XIII–XV asrlarda jahon xalqlari hayotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni Vatanimiz tarixi bilan qiyosiy o‘rganish muhim ahamiyatga ega. O‘rgangan bilimlaringiz kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Qadrli o‘quvchilar! Darslik “Siz bilib olasiz”, “Eslab ko‘ring!”, mavzuning asosiy matni, “Savol va topshiriqlar” kabi qismlardan iborat. Jumladan, “Siz bilib olasiz’’ qismida mavzuga doir tayanch tushunchalar bilan tanishasiz. “Eslab ko‘ring!” qismi sizga o‘tgan darslardagi ma’lumotlarni takrorlab, yangi bilimlarni o‘zlashtirishingizga yordam beradi.

Mavzuning asosiy matniga “Tarix yondaftarchangizga kiriting!”, “Mening tarixiy tadqiqotlarim” kabi qismlar ilova qilinadi. “Tarix yondaftarchangizga kiriting!” qismida qiziqarli qo‘shimcha ma’lumotlar jamlangan. “Mening tarixiy tadqiqotlarim” orqali siz turli mamlakatlarga oid tarixiy voqealarni tahlil etish, qiyoslash hamda ularga nisbatan fikr bildirishni o‘rganasiz. Mavzularning asosiy matnida “Tarixiy mushohada” qismini ham uchratasiz. Unda siz e’tiboringizni qaratishingiz zarur bo‘lgan mavzuning eng muhim ma’lumotlari, shuningdek, yorqin voqea-hodisalarga urg‘u beriladi. Har bir mavzu so‘ngida “Savol va topshiriqlar” berilgan bo‘lib, ularni bajarish orqali yangi mavzuni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganingizni aniqlashingiz mumkin. Bu qismda avvalo muhim g‘oya va xulosalar keltiriladi. So‘ngra savollarga javob berish uchun faqat darslik matni emas, balki qo‘shimcha, masalan, internet ma’lumotlari, yozma manbalar, ilmiy-ommabop asar va risolalardan foydalanish zarur bo‘ladi.

# XIII–XV ASRLAR JAHON TARIXINING MUHIM VOQEALARI







**1215**

*Angliyada “Erkinlikning buyuk xartiyasi” qabul qilindi*

**1263**

*Mayyalar tomonidan poytaxt Mayyapan shahriga asos solindi*



**1453**

*Vizantiya imperiyasi quladi*



**1429**

*Atsteklar mustaqillikka erishib, Tenochtitlan Meksika vodiysidagi eng qudratli shaharga aylandi*



**1250**

*Misrda Mamluklar davlatiga asos solindi*



**1302**

*Fransiyada General shtatlar chaqirildi*

*Yevropada qora o‘lat – vabo kasalligi tarqaldi*

**1347**



**1445**

*Iogann Gutenberg kitob bosish dastgohini ixtiro qildi*

**1337–1453**

*Yuz yillik urush bo‘lib o‘tdi*



**1299**

*Usmoniylar davlati tashkil topdi*



**1368**

*Xitoyda Min sulolasi hukmronligi o‘rnatildi*

**1397**

*Yaponiyadagi Oltin pavilyon qurildi*



**1256**

*Eronda Hulokuiylar davlati tashkil etildi*



**1206**

*Hindistonda Dehli sultonligi tashkil topdi*




Jhesus
maria





# I BOB

# XIII–XV ASRLARDA YEVROPA DAVLATLARI





Qirol Gugo Kapet

## 1-mavzu

# Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi. General shtatlar

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Ijtimoiy-siyosiy ahvol. Mamlakatni birlashtirish zarurati;
- Fransiyada toifaviy monarxiyaning qaror topishi;
- Aholining toifalarga bo‘linishi. Fransiya qirolining cherkovga qarshi siyosati;
- General shtatlarning chaqirilishi. General shtatlardagi ixtilof.

## FEODAL TARQOQLIK

Franklar imperiyasining qudratli hukmdori Buyuk Karl vafotidan so‘ng uning vorislari tomonidan 843-yilda tuzilgan Verden shartnomasi ulkan imperiyaning bo‘linishini boshlab berdi. 987-yilda Karolinglar sulolasining so‘nggi vakili Lyudovik V vafotidan so‘ng Kapetinglar sulolasining dastlabki vakili Gugo Kapet hokimiyat tepasiga keldi. Bu vaqtda qirol hokimiyatining siyosiy nufuzi juda past bo‘lib, mamlakatda tarqoqlik kuzatilardi. Fransiya 14 ta mustaqil mulklarga bo‘linib ketgan edi. Ularni gersog va graflardan iborat feodallar boshqarardi. Ayrim feodallar, jumladan, Burgundiya, Normandiya, Akvitaniya grafliklari hatto qiroldan ko‘proq yer-mulklar, aholi va siyosiy qudratga ega edi. Shuning uchun yirik gersog va graflar qirolni “tenglarning birinchisi” deb hisoblashardi. Fransiya o‘rta asrlar Yevropa siyosatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tarqoq mamlakatni birlashtirish zaruriyati vujudga kelgan edi.



**ESLAB KO‘RING!**

- *Franklar davlati qanday vujudga keldi?*
- *Buyuk Karl va Karolinglar imperiyasi qudrati qay darajada edi?*



**BUNI YODDA SAQLANG!**

***Mehnat va ishlab chiqarishning hududiy taqsimoti*** *– bu mamlakatning turli hududlarida (viloyat va tumanlar, shahar va shaharchalar) ishlab chiqarishning ma’lum sohasiga ixtisoslashuvini bildiradi.*

## IJTIMOIY-SIYOSIY AHVOL

X–XI asrlarda mamlakatda dehqonchilik, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, hunarmandchilik jadal o‘sib bordi. Mehnat va ishlab chiqarishning hududiy taqsimoti shakllana boshladi.

Mehnatning hududiy taqsimoti asosida Tuluza va Flandriya to‘qimachilikka, Normandiya temirchilik, tuz ishlab chiqarishga, qoramol va yilqi yetishtirishga, Burgundiya va Shampan movut ishlab chiqarishga hamda vinochilikka ixtisoslashgan edi. Savdo va iqtisodiy markazlarning eng yirigi, shubhasiz, Parij shahri edi. Shuningdek, Parijning Sena, Marna kabi ulkan daryolar havzasida joylashganligi uning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Mehnat taqsimotining rivojlanib borishi tarqoq viloyatlarning o‘z bilganicha ish yuritishlariga barham berdi, savdo-sotiqda o‘zaro bir-biriga bog‘lab qo‘ydi. Bu esa mamlakatning keyingi taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Ishlab chiqaruvchi toifaning hamda savdo-sotiqning rivojlanishi feodal tarqoqlikka barham berdi.





### BILAG‘ONLAR UCHUN

***Parij*** *shahriga miloddan avvalgi III asrda keltlarning parizi qabilasi tomonidan Lyutetsiya hududida asos solingan. Qirol Gugo Kapet davridan boshlab siyosiy markaz – poytaxt maqomini oldi.*

## MAMLAKATNI BIRLASHTIRISH ZARURATI

Fransiyani birlashtirish jarayoni qirol Lyudovik VI davrida boshlandi. U butun hukmronlik davrini mahalliy feodallarga qarshi kurash bilan o‘tkazib, Burj va Sans shaharlarini qirollik hokimiyatiga bo‘ysundirdi. Mamlakatni birlashtirish yo‘lidagi eng katta to‘siq Angliyaning Fransiyadagi mulklari edi. Shuning uchun qirol o‘g‘li Lyudovik VII ni Akvitaniya malikasi Eleonoraga uylantirish orqali ma’lum muddat ushbu muhim hududni ham o‘ziga qaram qildi.

Qirol Lyudovik VII ning o‘g‘li Filipp II Avgust davrida mamlakatni birlashtirish siyosati izchil olib borildi. Uning hukmronlik yillari Fransiya monarxiyasida burilish davri bo‘lib, mamlakat daromadi yanada oshdi va hokimiyat mustahkamlandi. Filipp II inglizlarga qarshi urushlar olib borib, Normandiya, Men, Anju, Tyuren va Puatyening bir qismini Fransiyaga qo‘shib oldi. Ushbu hududlarning qo‘shib olinishi mamlakatning Atlantika okeani va La Mansh bo‘g‘oziga chiqishini ta’minladi. O‘lkaning eng muhim ikki daryosi Sena va Luara havzasi hududlari batamom fransuz qiroli ixtiyoriga o‘tdi. Filipp II Avgust Fransiya mulklarining kengayishi munosabati bilan mamlakatda ma’muriy islohot o‘tkazdi. Ushbu ma’muriy islohotga ko‘ra barcha qirol mulklari 20 viloyatga bo‘lindi. Ushbu viloyatlarga mahalliy hokimlar rahbarlik qilib, ular o‘z hududida sud qilish, soliq yig‘ish, qo‘shin to‘plash, qirolga hisobot berib turish vakolatlariga ega edi.

## AHOLINING TOIFALARGA BO‘LINISHI

Mamlakatni birlashtirish davomida butun aholi qirol fuqarolariga aylandi. Bu davrga qadar fuqarolarning aksariyat qismi yirik amaldorlar, gersog va graflar, shuningdek, boshqa zodagonlarga qaram bo‘lgan. Shu davrda butun Fransiya aholisi huquq va majburiyatlari otadan bolaga meros bo‘lib o‘tadigan uch toifaga bo‘lindi. Bulardan birinchi toifa – ruhoniylar, ikkinchi toifa – mulkdor zodagonlar bo‘lib, ularning o‘ziga xos imtiyozlari va huquqlari bor edi. Xususan, ular qirolga soliq to‘lashdan ozod etilgandi. Uchinchi toifa boy shaharliklar, dehqonlar, hunarmandlar va shahar kambag‘allarini tashkil etar edi. Bu toifa orasida boy shaharliklar yetakchilik qilib, ularning vakillari ko‘pincha qirol majlislariga chaqirib turilgan.



*Qirol Filipp IV*




## FRANSIYADA QIROL HOKIMIYATINING KUCHAYISHI VA CHERKOVGA QARSHI SIYOSATI

Mamlakatni birlashtirish va markazlashtirish siyosatiga qirol **Filipp IV** (1285–1314) katta hissa qo‘shdi. Uning davrida Fransiyaga o‘ta boy mulk hisoblangan Shampan va Ispaniya bilan chegaradosh Navarra, mamlakatning janubi-sharqidagi Lion viloyatlari qo‘shib olinib, o‘lkaning 3/4 qismi birlashtirildi. Biroq Flandriya, Bretan, Akvitaniya, Burgundiya hali Fransiyaga qo‘shib olinmagan va mustaqil edi. Qirol asosiy e’tiborini Flandriyani bosib olishga qaratdi. Butun Yevropada qudratli kuchga ega bo‘lgan Rim papasi **Bonifatsiy VIII** (1294–1303) qirol Filipp IV dan Flandriyaga harbiy yurishini to‘xtatishni talab qildi. Shu sabab papa va qirol munosabatlari buzildi.

Filipp IV hukmronligi davrida Yevropada fransuzlar ta’siri sezilarli darajada kuchaydi. Uning Flandriya bilan urushi ham, cherkovdan soliq talab qilishi ham mamlakat xazinasini to‘ldirish va armiyani mustahkamlashga qaratilgan edi. Bu vaqtda qirolning muntazam yurishlari sababli xazina bo‘shab qolgandi. Amaldorlarga pul to‘lash va urushlar olib borish uchun qirolga ko‘p mablag‘ zarur edi. Shuning uchun qirol Filipp IV barcha aholi toifalari bilan birga cherkovdan ham soliq to‘lashni talab qildi. Bunga javoban papa Bonifatsiy VIII qirol Filipp IV ga nisbatan **anafema** (cherkovdan haydash va ibodat qilishni taqiqlash) e’lon qilishga kirishdi. Qirol papaga qarshi mulkdor feodallarni gijgijlab, Rimga o‘z vakilini jo‘natdi. Yollanma askarlar bilan papa huzuriga bostirib kirgan qirol vakilining haqorat va tahqirlarini ko‘tara olmagan Bonifatsiy VIII tez orada vafot etdi. Qirol fransiyalik arxiyepiskopni Kliment V nomi bilan yangi papa etib saylanishiga erishdi. Yangi papa Rimda o‘ziga nisbatan noroziliklar bo‘lishidan xavfsirab Fransiya janubidagi Avinyon shahriga ko‘chib o‘tdi. Shu tariqa papalarning yana Rimga qaytishi uchun qariyb 70 yil kerak bo‘ldi va bu davr, ya’ni 1309–1377-yillar tarixga **“papalarning Avinyon tutqunligi”** nomi bilan kirdi.



**TARIX YONDAFTARCHANGIZGA KIRITING!**

***General shtatlar*** *– (yalpi toifalar) Fransiyadagi 1302–1789-yillarda tabaqaviy vakillik muassasasi bo‘lgan. Uning paydo bo‘lishi shaharlarning o‘sishi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va sinfiy kurashning keskinlashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, qirol hokimiyatini mustahkamlashga, shuningdek, mamlakatda markazlashgan davlatning vujudga kelishiga xizmat qilgan.*



## GENERAL SHTATLARNING CHAQIRILISHI

Qirol Filipp IV papaga qarshi kurash olib borish jarayonida mamlakatdagi toifa vakillarining qo‘llab-quvvatlashiga erishishga harakat qildi. Shuning uchun 1302-yili Parijning bosh ibodatxonasida uch toifa vakillari – ruhoniylar, dvoryanlar va mulkdor shaharliklardan iborat General shtatlarni chaqirdi. Shu vaqtdan boshlab qirollar mamlakatda har safar yangi soliqlar joriy qilish zaruriyati yuzaga kelganda General shtatlarni chaqira boshladi. Soliqlarning butun og‘irligi dehqonlar va hunarmandlar bo‘yniga tushar edi.

General shtatlar uch toifa vakillaridan iborat uch palataga bo‘lingan edi. Ularning har biri alohida-alohida majlis qurar, qat’iy qaror qabul qilish uchungina birga yig‘ilishar edi. General shtatlar muntazam chaqirilmas, shuningdek, qonunlarni qabul qilish huquqiga ham ega emas edi. General shtatlarning vazifasi soliqlarni joriy etishga ruxsat berish bilangina cheklanib qolgandi. Soliqlarni tasdiqlash jarayonida uch toifa vakillari orasida tez-tez janjallar yuzaga kelar edi. General shtatlarda qarorlar qabul qilish va ovoz berish jarayonida tenglik yo‘q edi, ya’ni ruhoniylar va dvoryanlar bir ovozga qarshi ikki ovoz berish huquqiga ega edi. Shuning uchun ham uchinchi toifa vakillari hisoblangan mulkdor shaharliklar turli qarorlar qabul qilishda yon berishga majbur bo‘lishardi.



*General shtatlar yig‘ilishi. Parij. 1302-yil 10-aprel*

General shtatlarda toifa vakillari o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklar tufayli uning siyosiy kuchi va ta’sir doirasi mustahkam emas edi. Ya’ni ular qirolga kuchli ta’sir o‘tkaza olmasdi. Biroq 1357-yilda General shtatlar o‘z vakolatlarini oshirish, xususan, soliq yig‘ish, soliqdan tushgan mablag‘larni nazorat qilish va boshqa huquqlarni talab qildi. Qirol ushbu talablarni qabul qilishga majbur bo‘ldi. Ammo o‘rta va quyi palata vakillari hisoblangan dvoryanlar hamda mulkdor shaharliklar o‘rtasida o‘zaro hamfikrlikning yo‘qligi sababli bu to‘la amalga oshmadi. Bundan unumli foydalangan qirol o‘z mavqeyini qayta tiklab oldi.

Shunday qilib, XIV asrda Fransiyada toifaviy monarxiya – markazlashgan davlat vujudga keldi. Bunda qirol hokimiyati toifa vakillarining yig‘ini va madadiga suyanar edi. Bu Fransiyada markazlashgan davlat rivojlanishining birinchi bosqichi edi. Yuz yillik urushning boshlanishi butun mamlakatda markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash tabiiy va zaruriy jarayon ekanligini ko‘rsatdi.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Feodal tarqoqlik davrida Fransiya qanday o‘zgarganligini tushuntiring.***
2. ***Mehnat va ishlab chiqarishning hududiy taqsimoti hamda uning ahamiyatiga oid misollar keltiring.***
3. ***Fransiyani birlashtirish zaruriyati qanday sharoitda vujudga keldi?***
4. ***Mamlakatning markazlashuvida aholining turli toifalari qanday rol o‘ynadi?***
5. ***Qirol Filipp IV kimligini aniqlang. U qanday ishlarni amalga oshirdi? General shtatlarning ahamiyati qanday bo‘ldi?***
6. ***Bu davrda o‘lkamiz tarixida qanday jarayonlar yuz berayotgan edi?***



*Puatye jangi*

## 2-mavzu

# Yuz yillik urush: sabablari, yakunlari va oqibatlari

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Yuz yillik urushning kelib chiqish sabablari. Urushning boshlanishi;**
- **Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning og‘irlashuvi. Jakeriya qo‘zg‘oloni;**
- **Angliya bilan sulh shartnomasining imzolanishi;**
- **Janna d’Ark. Urushdagi tub burilish. Urush yakunlari.**

## YUZ YILLIK URUSHNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BAHONASI

XIV asrda Angliya va Fransiya o‘rtasida uzoq davom etgan urush boshlanib ketdi. Bu urush vaqti-vaqti bilan 1337–1453-yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tdi va tarixda “Yuz yillik urush” nomi bilan qoldi.

Urushning sababi nima edi? Fransiya mamlakatni birlashtirish uchun o‘z hududida joylashgan Angliyaga qaram Akvitaniya viloyatini o‘ziga qo‘shib olishga intilar, Angliya esa ulkan daromad manbayi bo‘lgan Akvitaniyani qo‘ldan chiqarishni istamas edi. Akvitaniyadan Angliyaga vino, meva, zotdor otlar olib ketilar va bu yerda ingliz feodallarining yer-mulklari ham bor edi. Shu bilan birga, Angliya Fransiyadagi avvalgi mulklarini ham qaytarib olishga harakat qilar edi. Bundan tashqari, Flandriya viloyati masalasida ham Angliya va Fransiya o‘rtasida raqobat paydo bo‘ldi. Fransiya Flandriyani to‘liq bo‘ysundirishga harakat qilar, Flandriya sanoat hududi sifatida inglizlarning jun xomashyosisiz ish ko‘ra olmas edi. Shuning uchun bu viloyatni Angliya siyosiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlar edi. Bu esa Fransiya va Angliya siyosiy raqobatiga hamda muqarrar urushga sabab bo‘ldi.



**ESLAB KO‘RING!**

***“Sali haqiqati”*** *qanday tuzilgan va u qaysi sulola davrida bitilgan? Ushbu hujjatda qanday huquqiy qonun-qoidalar bayon etilgan?*

Urushga nima bahona bo‘ldi? Kapetinglar sulolasidan bo‘lgan Fransiya qiroli Filipp IV 1314-yilda vafot etdi. Uning o‘rniga munosib nomzod topilmaganligi uchun Valualar xonadonidan bo‘lgan Filipp VI qirollik taxtiga o‘tirdi. Angliya qiroli Eduard III Fransiya qiroli Filipp IV ning qarindoshi, ya’ni qizining o‘g‘li – nabirasi edi. Filipp IV ning vafotidan so‘ng Eduard III Fransiya taxtiga ochiqdan ochiq da’vogarlik qila boshladi. Biroq fransuz huquqshunoslari qadimiy qonunlar to‘plami – “Sali haqiqati” asosida ayol tomonidan hisoblangan avlod taxtga da’vogarlik qila olmaydi, degan xulosani beradi. Bu esa Yevropa tarixidagi eng yirik hisoblangan Yuz yillik urushga bahona bo‘ladi.

## YUZ YILLIK URUSHNING BOSHLANISHI

Urush rasman 1337-yilda Angliyaning Fransiyaga hujumi bilan boshlandi. 1340-yilda inglizlar shiddatli harbiy harakatlarni amalga oshirib, fransuzlar flotini tor-mor keltirdi va dengizda hukmron flotga aylandi. Shundan so‘ng ikki tomon quruqlikda 1346-yil Kresi yaqinida to‘qnashdilar. Urush fransuz ritsarlarining shijoati bilan boshlandi. Ritsarlar jangga o‘zlarining jangovar qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyati sifatida qaradilar. Biroq urushning asosiy janglarida ritsarlar emas, dehqonlardan iborat piyoda askarlar jasorat ko‘rsatdilar. Bu Yuz yillik urush tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Kresi jangida fransuz qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi. Eduard III boshchiligidagi ingliz qo‘shini esa to‘la g‘alaba qozondi. Fransuzlar mag‘lubiyatining asosiy sababi ritsarlarning umumiy safda turib jang qilish qobiliyatiga ega emasligi va qo‘shinda tartib-intizomning yo‘qligi edi. Ritsarlar va suvoriylar (otliq askarlar) harbiy tartib-intizom va qoidalarni tan olmas, jangda ularning har biri shaxsiy jasorat ko‘rsatishga intilar






*Yuz yillik urush davrida Fransiya xaritasi, 1435-yil*



*Yuz yillik urush. Puatye jangi*

edi. Piyoda qo‘shinlar esa yollanma ajnabiylardan iborat edi. Fransiyaning og‘ir qurollangan zodagon otliqlari va ritsarlari piyoda askarlarni ijtimoiy jihatdan past deb bilishardi.

Angliya qo‘shinlarida tartib-qoida mustahkam va puxta tashkil etilgan edi. Inglizlar qo‘shinida otliq ritsarlar va yomen deb nomlangan erkin dehqonlardan iborat piyoda askarlar ham bor edi. Piyoda jangchilar katta kamonlar bilan qurollangan edi. Kamonchilar o‘qni 600 qadam masofagacha ota olar, 200 qadamdan esa o‘q ritsarni teshib o‘tardi. Aynan shu omil, ya’ni intizomli kamonchilar ingliz qo‘shinining g‘alabasini ta’minladi. Shu bilan Yuz yillik urush Yevropada urush uslubini o‘zgartirdi. Bu vaqtda ba’zi jangchilar o‘rta asrlardagi ritsarlik ideallari ostida harakat qilishdi. Ritsarlar o‘zlari bilan birga jang qilayotgan oddiy piyoda askarlar va kamonchilarga nafrat bilan qarashdi. Lekin uzun kamon urushni o‘zgartirganda, bu tuyg‘u ham o‘zgardi. O‘z davrida uzun kamon urush uslubini yangiladi. Fransuz ritsarlari o‘zlarini yengilmas deb hisoblab, hujumga zo‘r berishdi. Ingliz kamonchilari yaqinlashib kelayotgan fransuzlarga minglab o‘qlarni yog‘dirdilar va g‘alaba qozondilar. Bu jangni ritsarlar qahramonligi emas, balki ingliz yomenining uzun kamoni yutgan edi.

Ingliz qiroli Eduard III 1347-yilda Kale portini bosib oldi va bu port uzoq vaqtga qadar inglizlarning quruqlikdagi asosiy tayanch markaziga aylandi.

Yuz yillik urushdagi yana bir yirik jang 1356-yilda Luara daryosi janubidagi Puatye shahri yonida bo‘lib o‘tdi. Bu jangda fransuzlar son jihatidan ko‘p bo‘lsa-da, tarqoq holda harakat qildilar. Otliq ritsarlardan iborat qo‘shin asosiy kuchlarning yetib kelishini kutmay jangga kirdi. Ular jangda birikmay, o‘zboshimchalik bilan harakat qildilar, jangchilar oldinga o‘tib ketar, safni buzar va bir-biriga xalaqit berardi. Ingliz kamonchilarining otgan o‘qi fransuz otliqlarining safini buzib yuborar edi. Jang maydoni-



**TARIX YONDAFTARCHANGIZGA KIRITING!**

***Flot*** *– muayyan bir davlat yoki tashkilotning okean, dengiz, umuman, yirik suv maydonlarida harbiy, savdo va boshqa maqsadlarda harakatlar olib borish uchun mo‘ljallangan tuzilmasi.*



ga yetib kelgan fransuz qo‘shinining asosiy kuchlari ham bu jangda tor-mor keltirildi. Ko‘pchilik ritsarlar, feodallar va jangchilar bilan birga fransuz qiroli Ioann Saxiy va uning o‘g‘li shahzoda Filipp ham inglizlarga asir tushib qoldi.

Bu g‘alaba natijasida Fransiyaning g‘arbiy va shimoliy qismi inglizlar qo‘liga o‘tib ketdi. Ingliz qo‘shinlari Fransiyaning shimoliy hududlarini talab, poytaxt Parijgacha yetib bordilar. Urushdagi bu mag‘lubiyat Fransiyada toifalar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni yanada keskinlashtirib, siyosiy tanglikni yuzaga keltirdi. Asir olingan qirolning o‘rniga vaqtincha dofin Karl mamlakatni idora qila boshladi. Mamlakat xazinasi bo‘shab qolgan, harbiylar o‘rtasida tartib-intizom yo‘q, tinimsiz urushlar xalqqa jabr yetkazar edi.

## JAKERIYA QO‘ZG‘OLONI

1358-yil Fransiyaning Bove viloyatida dehqonlar qo‘zg‘oloni boshlandi. Bu qo‘zg‘olon tarixga Jakeriya nomi bilan kirdi va qisqa vaqt ichida Sena, Marna, Il de Frans, Shampan viloyatlariga ham tarqaldi. Qo‘zg‘olonda 100 mingdan ortiq dehqonlar ishtirok etdi. Qo‘zg‘olonchilar qirol dehqonlarning azob-uqubatlaridan bexabar, u oddiy xalqqa xayrixoh deb ishonar edilar. Shuning uchun ham o‘z bayroqlariga qirolning gerbi – oq nilufar tasvirini tushirishgan edi.



### TARIXIY MUSHOHADA

***Nima uchun Jakeriya?***

*Yuz yillik urush davrida oddiy xalq yanada ko‘p jabr-sitam ko‘rdi. Ular yangidan yangi soliqlar to‘lashga majbur qilindi. O‘sha vaqtda keng tarqalgan Jak ismini zodagonlar oddiy dehqonga nisbatan kamsitish ma’nosida ishlatar edi. Zodagonlar “Sodda Jakning yelkasi keng, har qanday og‘irlikni ko‘tara oladi”, deb masxara qilishardi. Qo‘zg‘olonda asosan oddiy aholi va dehqonlar ishtirok etganligi uchun ham bu harakat tarixga Jakeriya nomi bilan kirdi.*

Qo‘zg‘olonchilarning zodagonlarga nafrati shu qadar kuchli ediki, ularni bitta ham qoldirmay qirib tashlashga tayyor edilar. Qo‘zg‘olonga **Gilyom Kal** ismli dehqon boshchilik qildi. Qo‘zg‘olon tartibsiz, uyushmagan va tayyorgarliksiz boshlanib, uning aniq dasturi va harakat rejasi ham yo‘q edi.

Qirol va zodagonlar qo‘zg‘olonchilarga qarshi ulkan qo‘shin to‘pladi. Harbiy tayyorgarlikka ega bo‘lmagan va yaxshi qurollanmagan dehqonlar kuchli qo‘shinga qarshi tura olmas edi. Oxirgi jang oldidan ularning yetakchisi Gilyom Kal sulh tuzish bahonasida aldov yo‘li bilan asir olindi. Zodagonlar uning boshiga qizdirilgan temir halqa kiydirishdi va “biz jaklar qiroliga shunday tarzda toj kiydiramiz”, deb mazax qilishdi. Yo‘lboshchisiz qolgan dehqonlar qo‘shini ritsarlar tomonidan tor-mor etildi, 20 ming dehqon qirib tashlandi. Shu tariqa qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga uchradi.

## ANGLIYA BILAN SULH SHARTNOMASINING IMZOLANISHI



*Sulh imzolanishi*

Fransuz qiroli Karl V 1360-yilda inglizlar bilan sulh imzoladi. Sulh shartnomasi og‘ir shartlarni o‘z ichiga olib, unga ko‘ra Fransiyaning shimoli va g‘arbidagi ko‘pgina hududlar Angliya tasarrufiga o‘tdi. Fransiya urushni davom ettirishga qodir emasligidan bu shartlarni qabul qilishga majbur edi. Biroq vaqt nuqtayi nazaridan bu sulh Fransiyaga o‘zini o‘nglab olishga imkon yaratdi. Bu davr oralig‘ida qirol Karl V o‘zboshimcha mahalliy zodagonlarni bo‘ysundirdi, puxta harbiy ta’lim ko‘rgan qo‘shin to‘pladi, kuchli flot tashkil etdi. Bu islohotlar o‘z samarasini berib, 1369-yilda bo‘lib o‘tgan jangda Angliya mag‘lubiyatga uchradi. Biroq qirol Karl V vafotidan so‘ng Fransiyada vaziyat yana og‘irlashdi. Urush qayta boshlandi. 1415-yilda Azenkur yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda fransuzlar qo‘shini qaqshatqich mag‘lubiyatga uchradi. Inglizlar Fransiyaning shimolini egallab, Parijga bostirib kirdilar. 1420-yilda Fransiya uchun haqoratomuz Trua shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra Fransiya va Angliya birlashtirilib, ingliz shahzodasi qirol bo‘lishi belgilab qo‘yildi. Mamlakat og‘ir ahvolda qoldi. Shunday vaziyatda 1428-yilda inglizlar Fransiyaning muhim strategik shahri Orleanni qamal qilishga kirishdilar. Fransiyaning ahvoli Orleandagi g‘alaba yoki mag‘lubiyatga bog‘liq bo‘lib, mamlakat taqdiri ushbu shahar ostonalarida hal bo‘lmoqda edi.

## JANNA D’ARK

Fransuz qo‘shinlari g‘alabaga ishonchini yo‘qotgan, zodagonlar tahlikaga tushib qolgan, oddiy xalq hayoti esa ayanchli ahvolda edi. Orlean shahri qamali ikki yuz kun davom etib, shahar o‘zini o‘zi mudofaa qilib turdi.

Shunday sharoitda dushmanlarga qarshi kurashda xalq qahramoni sifatida oddiy dehqon qizi **Janna d’Ark** maydonga chiqdi. Janna d’Ark Fransiyaning Domremi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. Bolaligida uni Jannet deb chaqirishardi. Keyinchalik unga Janna d’Ark nomini berishgan. Tarixchilarning ta’rifiga ko‘ra, Janna d’Ark baland bo‘yli, baquvvat va bardoshli bo‘lgan. Uning qishlog‘iga bir necha marotaba hujumlar uyushtirilgan va u bolaligidan boshlab oddiy xalqning azob-uqubatini ko‘rib o‘sgan. Keyinchalik u vatanini ozod qilishni niyat qildi, hatto bu istakni “uning ko‘ngliga Xudo solganligini” ta’kidladi. Fransiyaning vaqtinchalik yosh qiroli Karl VII ga maktub yozib taxtga



*Janna d’Ark*



*Janna d'Ark. Orleanning ozod qilinishi*

chiqishga va o'ziga qo'shin berishga da'vat qildi. Shuning uchun ham 16 yoshida qishlog'ini tark etib Luarada bo'lajak qirol Karl VII bilan uchrashdi. Qirol va saroy zodagonlari Janna d'Arkning askarlar va xalq ko'nglida g'alabaga ishonch uyg'otishiga umid qilib, unga ritsarlar harbiy bo'linmasini berishdi. Qo'shin, zodagonlar va oddiy xalqda g'alabaga umid va ishonch qayta uyg'ondi. Hunarmandlar Janna d'Arkka qurol-aslaha hamda sovut yasab berdilar va u erkakcha kiyinib jangga otlandi.

## URUSHDAGI KESKIN BURILISH

Janna d'Ark Orleanga yetib kelib inglizlarga qarshi shiddatli janglarni boshlab yubordi. Uning o'zi janglarda mardlik va shaxsiy namuna ko'rsatar, askarlarni ruhlantirar edi. 1429-yilda Orlean shahri qamaldan ozod qilindi va bu Yuz yillik urushda tub burilish yasadi. Xalq Janna d'Arkka **"Orlean qizi"** deb nom berdi.

Janna Orlean shahridagi g'alabasi bilan Yuz yillik urush oqimini Fransiya foydasiga keskin o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Uning ishtirokida Fransiyaning qator viloyatlari ozod qilindi. Janna d'Arkning taklifi bilan qirol **Karl VII** (1422–1461) Reyms shahriga borib, tantanali ravishda taxtga o'tirdi. Biroq jasur qizning ortib borayotgan obro'si hukmron toifa vakillarini tashvishga solib qo'ydi. Ular Janna d'Arkdan qutulish yo'lini izlay boshlashdi, unga hayotini xavf ostiga qo'yadigan vazifalar topshira boshladilar. 1430-yilda jasur Orlean qizi Kompen qal'asi uchun bo'lgan janglarda burgundlarga asir tushib qoldi. Burgundlar Janna d'Arkni inglizlarga katta pul evaziga sotdilar. Fransuz qiroli Karl VII uni qutqarishga harakat ham qilmadi. Inglizlar uni inkvizitsiya sudiga topshirdi. Cherkov sudi Janna d'Arkni o'limga hukm etdi. Janna d'Ark 1431-yil 30-may kuni Ruan shahrida gulxanda yoqildi. Oradan vaqt o'tib, 1456-yilda ushbu sud qarori noqonuniy deb topildi va Janna d'Ark oqlandi.

## URUSH YAKUNLARI

Janna d'Ark halok bo'lganidan keyin xalqning ozodlik urushi yanada kuchayib ketdi. Normandiyada o'n minglab ko'ngillilar qahramonona jang qildilar. Parijda dushmanlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Fransiya poytaxti ozod qilindi, 1436-yilda qirol Karl VII Parijga kirib keldi. Fransuz qo'shinlari inglizlarni mamlakatdan haydab, Angliya bosib olgan hududlar birin-ketin ozod qilindi. Shundan so'ng Yuz yillik urush 1453-yilda inglizlarning Bordoda so'zsiz taslim bo'lishlari va sulh imzolanishi bilan yakunlandi. Fransiya o'ziga qarashli barcha hududlarini qaytarib oldi. Angliya Fransiya hududida faqat Kale port shahrinigina 1558-yilgacha qo'lda tutib qoldi. Yuz yillik urush markazlashgan fransuz davlatining qaror topishida muhim bosqich bo'ldi.

## QO‘SHIMCHA O‘QISH UCHUN

*Yuz yillik urushning eng qizg‘in davrida Fransiyada qirol Karl VI (1380–1422), Movarounnahrda esa Sohibqiron Amir Temur hukmronlik qilar edi. Ular o‘rtasida oliy darajada diplomatik yozishmalar olib borilgan.*

*Amir Temur Sultoniya shahrini zabt etganidan so‘ng arxiyepiskop Ioann Amir Temurning Yevropadagi ishonchli elchisi sifatida diplomatik munosabatlarda katta rol o‘ynagan.*

*1403-yilda Parijda bo‘lgan Ioann Amir Temurning muhri bosilgan va zarhal harflar bilan bitilgan maktubini Fransiya qiroli Karl VI ga topshiradi. Maktubda “Biz Sizning davlatingiz doimo gullab-yashnashini do‘stona tilab qolamiz...*



*Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan maktubi*

*Sizning savdogarlaringiz biz tomonga kelsinlar va biz ularni izzat-ikrom bilan kutib olaylik va bizlarning savdogarlarimiz Sizlar tomonga borib, o‘z izzat-ikromlarini topsinlar. Axir dunyoni savdogarlar farovon qiladilar”, degan so‘zlar bitilgan.*

*O‘z navbatida, Fransiya qiroli Karl VI ham Amir Temurga 1403-yilning o‘zida javob maktubini yo‘llaydi. Ushbu maktubda “olampanoh, muzaffar hukmdor Temurbekka salom va tinchlik tilaymiz. Siz zoti oliylariga ko‘p xristianlarga ko‘rsatgan marhamat va do‘stligingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. Kezi kelganda biz ham o‘z navbatida Sizning odamlaringizga bundan ortiq marhamat ko‘rsatishga tayyormiz”, degan so‘zlar yozilgan.*

***(Lyusyen Keren va Akmal Saidovning “Amir Temur va Fransiya” kitobidan).***

## ATAMALAR IZOHI

***Dofin*** *– XIV asrdan boshlab qirolning avlodidan bo‘lgan taxt vorisi, rasman taxtga chiqish uchun toj kiyish marosimi o‘tkazilgunga qadar vaqtinchalik qirol.*

***Yomen*** *– Angliyada ingliz dehqonlarining asosiy qismini tashkil qilgan erkin hisoblangan kichik yer egalari. Ular zodagonlardan farqli ravishda yerga ishlov berish bilan mustaqil shug‘ullanishgan. XV asrga kelib mustaqil xo‘jalik yurituvchi barcha dehqonlar, egasining huquqiy maqomidan qat’i nazar yomenlar deb atala boshlagan.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Yuz yillik urushning sabablari va oqibatlari qanday kechdi?***
2. ***Yuz yillik urush davrida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat qanday edi?***
3. ***Yevropada Yuz yillik urush sodir bo‘layotgan vaqtda Movarounnahrda qanday jarayonlar kechayotgan edi? Misollar keltiring.***



## 3-mavzu

# Fransiyani birlashtirishning tugallanishi va uning natijalari

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Yuz yillik urushdan keyingi Fransiya;
- Qirolning o‘zboshimcha feodallarga qarshi kurashi;
- Fransiyada markazlashgan davlatning qaror topishi;
- Mamlakatni birlashtirish natijalari.



*Lyudovik XI va Karl Jasur*

## YUZ YILLIK URUSHDAN KEYINGI FRANSIYA

Urush Fransiya iqtisodiyoti, xo‘jaligi va kishilar turmush tarziga jiddiy ziyon yetkazdi. Ko‘plab shahar va qishloqlar vayron bo‘lgan, savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik izdan chiqqan edi. Biroq dehqon va hunarmandlar tezda xo‘jalikni tiklashga harakat qildilar. Urush vaqtida tashlab qo‘yilgan yerlar ishga solinib, dehqonchilik yuksaldi, dehqonlar qo‘shni o‘lkalarga ham g‘alla sota boshladilar. Hunarmandlar ham ishlarini yo‘lga qo‘yib, mamlakatda temir eritish, mato to‘qish va boshqa ishlab chiqarish sohalari yanada rivojlandi. Viloyatlar o‘rtasida mehnat taqsimoti yanada kuchayishi savdo-sotiqning jonlanishiga sabab bo‘ldi. Xususan, Fransiya shimolidan janubga surp, jun, temir va tuz keltirilar, janubdan shimolga esa zaytun moyi, vino olib borib sotilar edi. Shuningdek, mamlakatda asta-sekin xalqaro savdo ham yuksalib bordi. Chunki Fransiyaning markazlashgan davlatga aylanishi mamlakat iqtisodiyotining ravnaq topishiga yordam berdi.



*Qirol Lyudovik XI*

## QIROLNING O‘ZBOSHIMCHA FEODALLARGA QARSHI KURASHI

Yuz yillik urush davrida Fransiyada o‘zboshimcha mahalliy zodagonlar mamlakat hududining katta qismini o‘zaro bo‘lib olishgan edi.

Yuz yillik urushdan keyin 1471–1475-yillarda Fransiya qiroli **Lyudovik XI** (1461–1483) va Burgundiya gersogi Karl Jasurning o‘zaro to‘qnashuvlari bo‘lib o‘tgan va tarixga Frank-Burgund urushlari nomi bilan kirgan.

Qirol Lyudovik XI itoatsiz feodallarga qarshi kurash olib borib, mamlakatni birlashtirishni boshladi. Lyudovik XI Fransiya tarixidagi eng mashhur va atoqli qirollardan biri bo‘ldi. U o‘z zamonasining mashhur siyosatdoni, mohir diplomati edi. U hukmronligining asosiy qismini yirik feodallarga qarshi kurashda o‘tkazdi. Unga qarshi zodagonlar **“Jamiyat baxt-saodati”** deb nomlangan ittifoq tashkil etgan va uning rahbari Burgundiya gersogi Karl Jasur edi. U faoliyati davomida doimiy urushlar olib borar, turli gersog va grafliklar yerlarini bosib olar, dehqonlar mulklarini talab, o‘zlarini ishlatish uchun

haydab ketar edi. Karl Jasur “men Fransiyani shu qadar yaxshi ko‘ramanki, mamlakatda bitta qirol o‘rniga oltita qirol bo‘lishini xohlayman” der edi. Uning nufuzi oshib borishi, shubhasiz, qirollik hokimiyatiga xavf tug‘dirar edi.

O‘z navbatida, qirol Lyudovik XI ham raqiblarga qarshi kurashda har qanday vositalar, ya’ni tahdid, aldov, yolg‘on va diplomatiyani ishga solar edi. U “Siyosat va uddaburonlikni yaxshi bilmagan kishi qirol bo‘la olmaydi”, degan g‘oya bilan ish ko‘rar edi.

Lyudovik XI va Karl Jasur o‘rtasidagi kurash uzoq davom etdi. Bu urushda qirol shar-mandalarcha mag‘lub bo‘ldi. Gersog Karl Jasur qo‘ygan shartlarga asosan sulh imzolandi. Biroq shundan so‘ng qirol Lyudovik XI ayyorona yo‘l tutib, gersogning qo‘shinlari va ishon-gan kishilarini o‘z tarafiga og‘dirdi. Ularni o‘z xo‘jayini gersogga qarshi gijgijladi. Oqibatda Burgundiya gersogi Karl Jasur o‘ldirildi. Qirol asosiy raqibi tor-mor etilganidan so‘ng qolgan raqiblaridan birin-ketin shafqatsiz o‘ch oldi. Natijada Fransiyada bu davrda yuz bergan o‘za-ro qarama-qarshiliklarga yakun yasaldi. Urushda qirol to‘liq g‘alaba qozondi.

Shundan so‘ng Karl Jasurga tegishli katta yer-mulklar qirol Lyudovik XI ixtiyoriga o‘tdi. Fransiya janubidagi Marsel shahri ham butunlay qirolga bo‘ysundirildi. Birgina Bretan ger-sogligi bu davrda o‘z mustaqilligini saqlab qoldi. Lekin Lyudovik XI ning vorislari davrida bu hudud ham qirol yer-mulklari qatoriga kiritildi. Shunday qilib, XV asr oxiriga kelib Fransiyani birlashtirish jarayoni yakunlandi.



**BUNI YODDA SAQLANG!**

***Feodal tarqoqlik*** *yoki* ***siyosiy parokandalik*** *– bu davlatning mayda-mayda mulklarga yoki siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil hududlarga bo‘linib ketishi hamda ularning muayyan bir masalalarda o‘z xohishlaricha ish tutishidir. Feodal tarqoqlik yoki siyosiy parokandalik bu o‘zaro urushlarning asosiy manbayi bo‘lib, butun mamlakatning parchalani-shiga yoki boshqa bir davlat qaramligiga tushishiga olib kelishi mumkin.*

## FRANSIYADA MARKAZLASHGAN DAVLATNING QAROR TOPISHI

Fransiyani birlashtirish jarayonida qirol vakolatlari kuchayib, mutlaq hokimiyat qaror topa boshladi. Qirol Lyudovik XI mamlakatda oqilona siyosat olib bordi. U ritsarlar va yollanma askarlardan tashkil topgan doimiy qo‘shin tuzdi. Qo‘shin ta’minoti uchun aholidan yig‘ib olinadigan yillik soliq joriy qilindi. Gersog va grafliklar o‘z mulklarini saqlab, o‘zlari tasarruf qilsalar-da, siyosiy mustaqilligi mavjud emas edi. Mamlakatning ichki va tashqi si-yosatini qirolning o‘zi belgilar, davlat ishlarini o‘zi xohlaganidek idora etar, urush e’lon qilish, sulh tuzish masalalarini ham uning o‘zi hal qilar edi.

Davlat amaldorlari qiroldan maosh olib ishlar va unga so‘zsiz itoat etardi. Shu sababdan Lyudovik XI hazil tariqasida “men hamma maslahatchilarni otimning egarida olib yuraman” derdi. U davlatni o‘z xizmatidagi amaldorlar yordamida boshqarar edi. Shuning uchun uning davrida General shtatlarni chaqirishga ham ehtiyoj qolmadi. Lyudovik XI qirolligi davrida General shtatlarni bir marotaba chaqirdi xolos.

Shunday qilib, Fransiyada markazlashgan davlat XV asr oxiriga kelib yanada mustah-kamlandi, butun mamlakat yagona markaziy hokimiyatga – qirol hokimiyatiga bo‘ysundirildi. Fransiya toifaviy monarxiyadan mutlaq monarxiyaga aylandi.

## MAMLAKATNI BIRLASHTIRISH NATIJALARI



### TARIX YONDAFTAR-CHANGIZGA KIRITING!

***Markazlashgan davlat*** – *butun mamlakatning yagona hokimiyat qo‘l ostida birlashtirilishi.*

Fransiyaning birlashtirilishi natijasida kuchli qirol hokimiyati yuzaga keldi. Dehqonlar, hunarmandlar va shaharliklar qirolga soliq to‘lay boshladilar. Kuchli qirol hokimiyati feodallarning qaram dehqonlar ustidan hukmronligini mustahkamladi. Qirol dehqonlar qarshiligini qo‘shin va amaldorlar yordamida bostirar edi.

Mamlakatda feodal tarqoqlikka barham berildi. Gersog va graflarning ko‘pchiligi yer-mulklarini o‘zlarida saqlab qolgan edilar, biroq urushdan avvalgi o‘zboshimchaligi va siyosiy mustaqilligi yo‘q edi. Feodallar o‘zboshimchalik bilan qishloq va shaharlarni talamaydigan bo‘ldi. Savdogarlar butun mamlakat bo‘ylab xavfsiz savdo-sotiq olib bora boshladi.

Qirol shaharlarning yuksalishi va savdo-sotiqning rivojlanishiga homiylik qildi. Italiyadan ipak gazlama to‘qiydigan mohir ustalar olib kelindi. Ular Fransiyaning Lion shahriga joylashtirildi. Shu davrdan boshlab Lion Fransiyaning shoyi ishlab chiqarish va to‘qimachilik markaziga aylana boshladi. Fransiyada yagona pul, o‘lchov va og‘irlik birliklari joriy etildi. Mamlakatda ulkan savdo floti tashkil qilindi. Qirol homiyligi va yordamida fransuz savdogarlari turli xorijiy mamlakatlarda ham savdo-sotiq ishlarini olib bordi.

### ATAMALAR IZOHI

***Mutlaq monarxiya*** – *davlatda hukmdorning yakka boshqaruv shakli. Bunda monarx cheklanmagan hokimiyat va vakolatlarga ega bo‘ladi.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Yuz yillik urushdan keyin Fransiyada xalqning ijtimoiy ahvoli qanday edi?***
2. ***Nima uchun mamlakatni birlashtirish zaruriyati vujudga keldi?***
3. ***Yuz yillik urushdan keyin Fransiya iqtisodiyoti, xo‘jaligi va kishilar turmush tarzi qanday o‘zgarganligini tushuntiring.***
4. ***Frank-Burgund urushlari, qirolning o‘zboshimcha feodallarga qarshi kurashi va uning siyosiy ahamiyatini tahlil qiling. Qirol Lyudovik XI va gersog Karl Jasur faoliyatiga baho bering. Ular qanday ishlarni amalga oshirdi?***
5. ***Fransiyada markazlashgan davlatning qaror topishi mamlakat hayotiga qanday ta’sir qildi deb o‘ylaysiz?***
6. ***Fransiyani birlashtirish qanday ijobiy va salbiy oqibatlarga olib keldi?***



Qirol Genrix I

## 4-mavzu

# Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Angliyada qirollik hokimiyati: ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;**
- **“Erkinlikning buyuk xartiyasi”;**
- **Angliya parlamenti.**

# ANGLIYADA QIROLLIK HOKIMIYATI: IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR



## ESLAB KO‘RING!

- *Angliyada ilk davlatlar qanday shakllandi?*
- *Qirol Alfred Angliya tarixida qanday islohotlarni amalga oshirdi?*
- *Normandiya gersogi Vilgelm I Angliyani qachon istilo qildi?*

Normandiyalik Vilgelm I ning vorislari davrida yirik feodallar mamlakatni ko‘p yillar davom etgan o‘zaro urushlarga duchor qildi. Angliyalik zodagonlar ham Fransiyadagi gersog va graflar kabi siyosiy va iqtisodiy mustaqillikni qo‘lga kiritishni, yer-mulklarini mutlaq o‘zlari idora qilishni xohlar edi. Ammo Fransiyadan ko‘ra Angliyada qirol hokimiyatini mustahkamlash uchun sharoit yaxshi edi. Mamlakatning ichki va tashqi savdo-sotiq ishlari rivojlanib borardi.

London nafaqat Angliyaning, balki Yevropaning muhim savdo markaziga aylandi. Ingliz shaharlarining ko‘pchiligi qirolga qarashli yerlarda joylashgan, shaharliklar qirolni qo‘llab-quvvatlar edi. Chunki shaharliklar va dehqonlar yuzta xo‘jayindan ko‘ra bitta xo‘jayinni afzal deb bilar edi.

Dehqonlar ham feodallarga qarshi kurashni to‘xtatmay yanada avj oldirdi. Ularning ko‘pchiligi o‘z xo‘jayinlaridan o‘rmonlarga qochib ketar va guruh-guruh bo‘lib zodagonlarga, yepiskop va amaldorlarga hujum qilardi. Xalq ularni “erkin merganlar” deb atardi. Dehqonlar ularni yaxshi ko‘rar va qo‘llab-quvvatlardi. XII–XIV asrlarda xalq orasida ularning qahramonligi, jasurligi va ajoyib sarguzashtlari to‘g‘risida qo‘shiqlar hamda balladalar to‘qilgan edi. Ingliz balladalarining eng mashhurlari va qiziqarlisi mazlum xalqning sevimli qahramoni, zolim zodagonlarning raqibi Robin Gud haqida edi.

Qirol ritsarlar va shaharliklar yordamida yirik feodallarga qarshi kurashda g‘olib chiqdi. Biroq qirol Genrix II ning vorislari Richard I Sheryurak va Ioann davrida qirol hokimiyati zaiflashib qoldi. Buning ustiga qirol Ioanning papa Innokentiy III bilan Kenterberi grafligi arxiyepiskopini saylash masalasida munosabatlari buzildi. Papa qirol Ioanni cherkovdan quvib, butun Angliyada ibodat qilishni taqiqladi. Taxtdan ayrilish xavfi ostida qolgan va aholining qo‘llab-quvvatlashiga ko‘zi yetmagan qirol taslim bo‘lishga majbur bo‘ldi. U o‘zini papaning vassali deb tan olish va har yili uning xazinasiga ming funt sterling soliq to‘lash majburiyatini oldi.



## BILAG‘ONLAR UCHUN

***Angliya*** *– qadimgi ingliz tilidagi “England” so‘zidan olingan bo‘lib,* ***“angllar yeri”*** *ma’nosini bildiradi. Angllar ilk o‘rta asrlarda Buyuk Britaniyada joylashgan german qabilalaridan biri edi.*



Papa bilan to‘qnashuvdagi mag‘lubiyat qirol Ioanning nufuzini tushirib yubordi. Baronlar, yepiskoplar, ritsarlar va shaharliklar o‘rtasida qirolga nisbatan norozilik kuchaydi. Soliqlarning oshirilishi qirolni mayda va o‘rta mulkdorlar yordamidan mahrum etdi. Fransuzlar bilan quruqlikda yangi urushga tayyorgarlik esa ritsarlarning qirolga qarshi chiqishiga sabab bo‘ldi.

Natijada mamlakatda 1215-yilda qirolga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Yirik zodagonlar qo‘zg‘olonga rahbarlik qildi, ritsarlar va shaharliklar ularga qo‘shildi. Poytaxt London aholisi qo‘zg‘olonchilarga shahar darvozasini ochib berdi. Qo‘zg‘olonchilar qirol Ioanni asir olishdi.

## QO‘SHIMCHA O‘QISH UCHUN

***Robin Gud*** *XII–XIV asrlarga tegishli ingliz balladalari qahramoni. Robin Gud haqidagi eng yorqin epizodlarning aksariyati u va uning hamrohlari Shervud o‘rmonida ochko‘z hamda berahm kishilarni, badavlat cherkov yer egalarini talon-toroj qilishlari va boyliklarni kambag‘allarga ulashishlari bilan bog‘liq.*

*Ularning eng ashaddiy raqibi Nottingem sherifi edi. Robin Gud barcha kishilarga, ayniqsa, kambag‘allarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lgan.*



*Aksariyat xalq og‘zaki ijodi namunalarida an’anaviy ravishda Robin Gud yashil rangli kiyimda tasvirlanadi. Uning hokimiyatga qarshi qo‘zg‘oloniga ov huquqlarini cheklab qo‘ygan o‘rmon qonunlariga nisbatan xalqning noroziligi katta turtki bo‘lgan. Tarixchilar Robin Gud haqiqatan tarixiy shaxs ekanligini isbotlash uchun ko‘p uringanlar. U qirol Richard I Sheryurak davrida yashagan degan qarashlar mavjud. Ba’zi tarixchilar uni mayda bezori, keyinchalik esa adolat va zulmga qarshi harakatlari bilan xalq qahramoniga aylangan tarixiy shaxs deb hisoblashadi.*

*Robin Gud haqidagi afsonalar ingliz adabiyoti va madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U haqda ko‘plab balladalar, romanlar yozilgan, filmlar suratga olingan. Robin Gud tarixiy va badiiy adabiyotlarda qirol Artur kabi mashhurlikka erishgan.*



Qirol Ioann

## ERKINLIKNING BUYUK XARTIYASI

Qirol Ioann 1215-yilda **“Erkinlikning buyuk xartiyasi”** deb nomlangan hujjatga imzo chekishga majbur bo‘ldi. Xartiya lotin tilida yozilgan bo‘lib, 63 moddadan iborat edi.

“Erkinlikning buyuk xartiyasi” bu huquqiy davlat tarixidagi muhim hujjatdir. Ushbu hujjatga ko‘ra qirol qonunlarga muvofiq hukmronlik qilishi kerakligiga rozi bo‘ldi. Xartiya qirolning ba’zi vakolatlarini chekladi.

Unga asosan, Buyuk kengash roziligisiz qirol mamlakatda soliq yig‘a olmas edi. Biror jinoyatda ayblangan erkin kishilar davlat tomonidan tayinlangan sud yoki o‘z jamoasi tomonidan adolatli sudlanish huquqiga ega edilar. Shuningdek, qirol, amaldorlar, yirik zodagonlar, erkin hamda qaram kishilarning ma’lum huquq va majburiyatlariga ega ekanligi ta’kidlangan edi. “Erkinlikning buyuk xartiyasi” insonlarning ma’lum huquq va majburiyatlarining mavjudligi, hukumatning kuchi cheklanganligi hamda hokimiyat xalqqa xizmat qilishi kerakligi haqidagi g‘oyalarni shakllantirishga yordam berdi.

## ANGLIYA PARLAMENTI

Qirol Ioann “Erkinlikning buyuk xartiyasi”ni imzoladi, lekin uning shartlari va moddalarini bajarishni xohlamadi. Undan keyingi qirollar ham, xususan, uning vorisi Genrix III ushbu Xartiyaga deyarli rioya qilmadi. Aksincha, soliqlarni yanada oshirib, yirik mulkdor zodagonlar, ritsarlar, shaharliklar va oddiy aholini o‘ziga qarshi qilib qo‘ydi. Natijada yirik mulkdor Simon de Monfor boshchiligida norozilik harakati boshlanib, qirol va uning o‘g‘li shahzoda Eduard asir olindi. Simon de Monfor bir qancha vaqt Angliya boshqaruvini o‘z qo‘liga oldi. U **1265-yilda** uch toifa vakillari – baronlar, ruhoniylar, har bir graflikdan ikkitadan ritsarlar hamda har bir shahardan ikkitadan vakil ishtirok etadigan majlis chaqirdi. Bu majlis jahon tarixiga **parlament** nomi bilan kirdi.

Simon de Monforga Angliyani uzoq boshqarish nasib qilmadi. Shahzoda Eduard asirlikdan qochib, tez orada taxtga o‘tirdi. U otasining xatolarini tushunib, ularni takrorlamaslikka harakat qildi. Uning davrida 1295-yildan boshlab parlament doimiy chaqirilib turiladigan bo‘ldi. 1297-yilda parlamentga soliqlarni tasdiqlash huquqi berildi. XIV asrdan qonunlar chiqarish va siyosiy ishlar, ya’ni qirol vazirlari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar bo‘yicha Oliy sud huquqini qo‘lga kiritdi. Keyinchalik bu parlament **“namunali parlament”** degan nom oldi.

1343-yilda parlament ikki palataga bo‘lindi. Yuqori palata lordlar palatasi deb nomlanib, unda oliy toifali




### TARIXIY MUSHOHADA

*“O‘z qabilasining jamoaviy hukmi va mamlakat qonunisiz hech bir ozod odam qamoqqa tashlanmaydi, hibsga olinmaydi, qonundan tashqari deb topilmaydi, badarg‘a qilinmaydi yoki biron-bir tarzda yo‘q qilinishi mumkin emas”.*

***“Erkinlikning buyuk xartiyasi”dan***



*Qirol Ioann “Erkinlikning buyuk xartiyasi”ga imzo chekmoqda*

### TARIXIY MUSHOHADA

1. *Parlament paydo bo‘lgan davrdan hozirgi kunga qadar uning faoliyati va shaklida qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Qaysi jihatlar saqlanib qoldi?*
2. *Jahon xalqlari va davlatlari hayotida parlamentning bugungi ijtimoiy ahamiyati haqida tarixiy mushohada yuriting. Misollar keltiring.*
3. *Bugungi zamonaviy dunyoda parlament davlatlar taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega?*

ruhoniylar hisoblangan yepiskoplar, abbatlar hamda qirol tomonidan maxsus taklif etilgan zodagonlar majlis o‘tkazganlar. Quyi palata umumpalata deb nomlanib, har bir graflikdan ikki nafar ritsar va shaharlardan ikki nafar vakil majlis o‘tkazgan.

Angliya parlamentining Fransiya General shtatlariga qaraganda davlat ishlariga ta’siri kuchliroq edi. Chunki Angliyada Fransiyadagi kabi toifalar o‘rtasida nizolar keskin emas edi. Shuning uchun quyi palata parlamentda o‘z roziligisiz soliqlar joriy etilmasligi huquqini qo‘lga kiritdi.

Shunday qilib, XIII–XIV asrlarda Angliyada ham Fransiyadagi kabi toifaviy monarxiya sifatida markazlashgan davlat qaror topdi.

### ATAMALAR IZOHI

***Xartiya*** *– lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, qog‘oz, yorliq ma’nosini bildiradi. U o‘rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan, jamiyatning ma’lum bir huquqlarini ifodalagan hujjatni anglatadi.*

***Parlament*** *– fransuz tilidan olingan bo‘lib, gapirmoq, so‘zlamoq ma’nosini bildiradi.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***XIII asrda Angliyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi?***
2. ***“Erkinlikning buyuk xartiyasi”da aholining turli tabaqalari huquqlari qanday ifodalangan?***
3. ***Angliya parlamenti ahamiyati va jahon parlamentlari haqida nimalarni bilasiz?***
4. ***Nima uchun parlament Angliyada paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, fransuzcha so‘zdan olingan?***
5. ***Bu davrda Movarounnahrda qanday qonunlar amal qilgan?***



Qirol Richard II

## 5-mavzu

# XIV–XV asrlarda Angliya

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti;**
- **Ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi;**
- **Uot Tayler qo‘zg‘oloni;**
- **Angliyada sulolaviy kurashlar. “Oq va qizil gullar urushi”.**

## ANGLIYANING IQTISODIY VA IJTIMOIY TARAQQIYOTI



Yuz yillik urush Angliya iqtisodiyotiga katta zarar yetkazgan bo‘lsa-da, XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrda shahar hamda qishloqlar qayta rivojlana boshladi. Angliya Flandriya va Florensiya shaharlariga movut eksport qilardi. Savdogarlar ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga hissa qo‘shishdi. Bu davrda Angliyada mahalliy sanoat ishlab chiqarishi juda yaxshi rivojlana boshladi. Shaharlar, xususan, Londonda aholining o‘sishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirib yubordi. Bu esa shahar va qishloqlar hayotidagi uzviylikni ta’minladi.

Ingliz lordlari o‘z yerlarida qaram dehqonlarning ishlab berish majburiyatini pul hisobida yuritishga o‘tdilar. Lordlar o‘z yerlarini ijaraga berib, ijara haqini pul ko‘rinishida olardilar. Asta-sekin jamiyatda dehqonlarning qo‘lida ortiqcha pul va mahsulot paydo bo‘lishi natijasida qaram dehqonlar ozod dehqonlarga aylanishdi. Biroq ba’zi grafliklarda, jumladan, Kent grafligida dehqonlarning yerlari juda kam bo‘lib, yirik mulkdorlar katta-katta yerlarni egallab ola boshladilar. Bu dehqonlar orasida norozilikka sabab bo‘ldi. Buning ustiga Yevropada dahshatli qora o‘lat (vabo) tarqalib, mamlakat aholisining katta qismi qirilib ketdi. Ishchi kuchi kamayib, shahar va qishloqlarda rivojlanish to‘xtab qoldi.

## IJTIMOIY ZIDDIYATLARNING KUCHAYISHI

Mamlakatda iqtisodiy ahvolni yaxshilash hamda davlat xazinasini to‘ldirish maqsadida 1377-yili ingliz parlamenti Angliya tarixida birinchi marotaba jon solig‘ini joriy qildi. Ushbu voqea **Richard II** hukmronligi davrida yuz berdi. Unga ko‘ra 14 yoshdan yuqori barcha erkak va ayollar mulkiy ahvolidan qat’i nazar ushbu soliqni to‘lashga majbur edilar. Buning ustiga 1380-yilda jon solig‘i 3 barobarga oshirildi.

Soliqlarning ko‘pligi, ularni yig‘ishdagi nohaqliklar va turmushdagi ijtimoiy hamda iqtisodiy qiyinchiliklar dehqonlar hamda boshqa aholi qatlamlarining qo‘zg‘olon ko‘tarishiga sabab bo‘ldi. Xususan, Oksford universitetining professori, faylasuf va ruhoniy **Jon Viklif** cherkovni isloh qilish talabi bilan chiqdi. U “qirol davlatni papa nomidan emas, balki Xudoning nomi bilan boshqaradi”, deb ta’kidlar edi hamda Angliyaning papaga soliq to‘lashiga qarshi chiqdi. Bu davrda butun Yevropa lotin tilida ibodat qilar edi. U Injilni ingliz tiliga tarjima qildi va har bir fuqaro ingliz tilida ibodat qilishi kerak, degan fikrni ilgari surdi.

Jon Viklif ma’ruzalari shaharliklar, xususan, London aholisi orasida katta shuhrat qozondi. Uning tarafdorlaridan biri **Jon Boll** ham xalq orasida katta nufuzga ega edi. U o‘z targ‘ibotlarida *“Odam Ato yer haydab, Momo Havo charx yigirgan paytda kim zodagon bo‘lgan?”* deb ta’kidlar hamda dvoryanlarga keskin qarshiliklar qilar edi. Jon Boll Kenterberi arxiyepiskopi buyrug‘i bilan qamoqqa olindi. Xuddi shu davrda sabr kosasi to‘lgan xalq yangi qo‘zg‘olonga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi.







### BILAG‘ONLAR UCHUN

***Jon Viklif*** *– faylasuf, ilohiyotchi va ruhoniy. Oksford universitetida tahsil olgan va shu yerda dars bergan. U katolik cherkovining dastlabki tanqidchilaridan biri bo‘lib, uni keng qamrovli isloh qilish masalasini ko‘targan. Papa va cherkovning noqonuniy ishlariga qarshi chiqqan. Jon Viklifning g‘oyalari Angliya va Yevropa tarixiga katta ta’sir ko‘rsatgan va keyingi asrlarda ham ko‘plab islohotchilarni ilhomlantirgan.*

*Qirol Richard II ning qo‘zg‘olonchilar bilan uchrashuvi*

## UOT TAYLER QO‘ZG‘OLONI

Angliya shaharlarida soliq yig‘uvchilarning adolatsizliklari avj olib ketdi. Xalq qo‘zg‘olon ko‘tardi. Tarixga Uot Tayler qo‘zg‘oloni nomi bilan kirgan bu voqea 1381-yil Esseks grafligida boshlandi. Dehqonlar bu yerda soliq yig‘uvchilarning bir nechtasini o‘ldirishdi, qolganlarini haydab yuborishdi. Qo‘zg‘olonga qishloq hunarmandi **Uot Tayler** *(tayler ingliz tilida tunukasoz ma’nosini bildiradi)* rahbarlik qildi. U Yuz yillik urushda qatnashgan va harbiy qobiliyati bor edi. 1381-yilda Jon Boll qamoqdan ozod qilindi va u ham qo‘zg‘olon rahbarlaridan biriga aylandi.

Qo‘zg‘olon boshqa grafliklarga ham ko‘chib, 40 ta graflikdan 25 tasi qatnashdi. Qo‘zg‘olonchilar Uot Tayler boshchiligida Londonga borishdi. Shahar kambag‘allari qo‘zg‘olonchilarga darvozani ochib berdilar. Ular ba’zi amaldorlarning uylariga o‘t qo‘yishdi, ba’zilarini o‘ldirishdi. Qo‘rqib ketgan yosh qirol Richard II Londondagi Tauer qal’asiga yashirinib oldi. Biroq qo‘zg‘olonchilarning talabiga ko‘ra qirol ular bilan uchrashishga va kelishuv olib borishga, ularning shartlarini qabul qilishga majbur bo‘ldi.

Qo‘zg‘olonchilar qirolga o‘z shartlarini qo‘ydilar. Bunga asosan qirol qo‘zg‘olonchilar tomonidan talab qilingan **“Mayl End”** hamda **“Smitfild”** dasturlarini qabul qildi.

“Mayl End” dasturiga ko‘ra dehqonlar qaramligi bekor qilinishi, qo‘zg‘olonchilarga umumiy afv e’lon qilish, savdo-sotiq ishlariga erkinlik berish, 1 akr yer uchun 4 pens miqdorida ijara haqi belgilash ko‘zda tutilgandi.

Qirol bu talablarni qabul qilishga majbur bo‘ldi. Uning va’dalariga ishongan bir guruh qo‘zg‘olonchilar shaharni tashlab ortga qaytdilar. Uot Tayler boshchiligidagi guruh esa muzokaralarni davom ettirish uchun Londonda qoldi. “Smitfild” dasturiga ko‘ra esa dehqonlarga cherkov yerlaridan ajratish, jamoa yerlaridan erkin foydalanish va toifaviy tabaqalarni yo‘q qilish talablari qo‘yildi. Biroq ikkinchi muzokara vaqtida Uot Tayler o‘ldirildi. Rahbarsiz qolgan qo‘zg‘olonchilar shahardan haydab yuborildi va ulardan ayovsiz o‘ch olindi. Shu tariqa xalq qo‘zg‘oloni bostirildi.



## QO‘ZG‘OLONNING AHAMIYATI

Uot Tayler boshchiligidagi qo‘zg‘olon o‘rta asrlardagi boshqa harakatlar singari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Sababi qo‘zg‘olonning aniq harakat dasturi yo‘q, ishtirokchilar harbiy ta’limga ega emas hamda yetarlicha qurol bilan ta’minlanmagan edi. Bundan tashqari, qo‘zg‘olon rahbarlarining diplomatik va strategik qobiliyatlari yo‘q bo‘lib, aniq taktik reja asosida ish olib borishmadi, amaldorlarning yolg‘onlariga ishonishdi.

Dehqonlar jiddiy tayyorgarliksiz qo‘zg‘olon ko‘tardilar, shuningdek, oddiy xalqning uzoq vaqt davomida kurash olib borishga madori va xohishi yo‘q edi. Shunga qaramay, qo‘zg‘olon ingliz dehqonlarining keyingi taqdirida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Dehqonlar manfaatlariga qarshi qonun-qoidalar yumshatildi. Butun XV asr davomida barcha dehqonlar ozodlikni qo‘lga kiritdilar. Ularning ko‘pchiligi erkin dehqonlarga aylandi. Ozod dehqonlarning yerlardan foydalanganlik uchun mulkdorlarga to‘lanadigan haqlari aniq belgilandi. Bu qo‘zg‘olon boshqa Yevropa mamlakatlariga o‘ziga xos saboq bo‘ldi.

## ANGLIYADA SULOLAVIY KURASHLAR. “OQ VA QIZIL GULLAR URUSHI”





*Lankasterlar sulolasi ramzi*



*Yorklar xonadoni ramzi*



*Tyudorlar sulolasi ramzi*

1399-yilda Angliya taxtiga Lankasterlar sulolasi kelgan edi. Xalq ommasida ushbu sulolaga nisbatan ishonchsizlik va norozilik mavjud edi. Bundan Yorklar sulolasi foydalanib, hokimiyat tepasiga kelishga harakat qildi. Angliyada barcha feodallar ushbu ikki sulola tarafdorlariga aylanib, ular o‘rtasida urush boshlandi. Bu sulolaviy kurashlar yuz yillik urushdan so‘ng, 1455–1485-yillarda bo‘lib o‘tdi va 30 yilga cho‘zildi.

Lankasterlar sulolasi bayrog‘ida qizil, Yorklar xonadoni bayrog‘ida oq atirgul tasviri tushirilgan edi. Shuning uchun bu urush tarixga **“Oq va qizil gullar urushi”** nomi bilan kirdi. Ushbu urushda oddiy aholining 1/4 qismi hamda yirik zodagonlarning ko‘pchiligi qirilib ketdi.

Nihoyat, 1485-yilda Bosvort shahri yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda Yorklar xonadoni mag‘lubiyatga uchradi. Urushda har ikki sulolaning yirik vakillari halok bo‘lgan edi. Shuning uchun Lankasterlar xonadonini qo‘llab-quvvatlagan Genrix VII Tyudor Angliya qiroli sifatida taxtga o‘tirdi. U yorklar sulolasidan Eduard IV ning qiziga uylanib, o‘z gerbida qizil va oq atirgullarni birlashtirdi. Angliya tarixida yangi sulola davri boshlandi.

## QO‘SHIMCHA O‘QISH UCHUN

*Angliyada Lankasterlar sulolasidan Genrix IV hukmronligi yillarida Sohibqiron Amir Temurning dovrug‘i allaqachon G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga tarqalgan edi. Yevropa hukmdorlari Usmoniy turklar imperiyasi tahdididan xavfsirab o‘sha davrdagi eng shavkatli hukmdor Amir Temur bilan hamkorlik o‘rnatishga harakat qilganlar. O‘z navbatida, Amir Temur uchun ham G‘arb mamlakatlari bilan munosabatlar o‘rnatish manfaatli edi. Shu sababli bu ikki hukmdor o‘rtasida 1403-yilda o‘zaro maktublar almashildi. Arxiyepiskop Ioann Amir Temurning G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi elchisi sifatida 1403-yilda Sohibqironning maktubini Angliya qiroli Genrix IV ga yetkazadi.*



Qirol Genrix IV

*Angliya qirolining shu yili Amir Temurga yozgan javob maktubida “o‘zaro aloqalarimiz doirasini kengaytirish, mamlakatlarimiz savdogarlarining bir-birlari bilan qadimda ota-bobolarimiz davrida bo‘lganidek hamkorliklarini tiklamoq va bunga shart-sharoit yaratmoq niyatida ekanimizni bildirmoqchimiz. Bu so‘zlarni, ulug‘ hukmdor, sizga bo‘lgan do‘stligimiz belgisi tariqasida aytarkanmiz, iltifot bilan so‘rardikki, bundan buyon bizning savdogarlarimiz sizning yerlaringizda xavf-xatarsiz, emin-erkin yurishlari uchun sharoit yaratib bergaysiz”, degan so‘zlar bitilgan edi* ***(Lyusyen Keren va Akmal Saidovning “Amir Temur va Fransiya” kitobidan)****. Angliya bilan aloqalar o‘rnatib, savdo-sotiqni jonlantirishda temuriy shahzoda Mironshohning ulkan tashabbusi bor edi. Mironshoh G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida xristian ruhoniy va savdogarlarining daxlsizligini ta’minlashga harakat qildi. Chunki Amir Temurning G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga yo‘llagan elchilari Mironshohga qarashli hududlar orqali o‘tgan. Ta’kidlash kerakki, Amir Temur va Temuriylar saltanatida millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan.*

### ATAMALAR IZOHI

***Akr*** *– yer o‘lchov birligi. 1 akr 40 sotixga teng yer maydoni. O‘rta asrlarda akr dastlab bir dehqonning bir ho‘kiz bilan bir kunda haydashi mumkin bo‘lgan va ekin ekilgan yer maydonini bildirgan.*

***Pens*** *yoki* ***penni*** *– Angliyada pul birligi hisoblanib, asosan mayda tanga pullarga nisbatan ishlatilgan.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Angliyada iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot qanday edi?***
2. ***Ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga nima sabab bo‘ldi?***
3. ***Uot Tayler qo‘zg‘olonining sababi va oqibatlari qaysi jarayonlarda namoyon bo‘ladi?***
4. ***Angliyada sulolaviy kurashlar mamlakat taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?***



Qirol Fridrix II

## 6-mavzu

# Germaniyada ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Fridrix II hukmronligi. Shtaufenlar sulolasining tugashi;**
- **Iqtisodiy-siyosiy ahvol. Mamlakat xo‘jaligi;**
- **Siyosiy taraqqiyotning o‘ziga xosligi;**
- **Germaniya shaharlari va savdo ittifoqlari.**





### ESLAB KO‘RING!

- *“Muqaddas Rim imperiyasi” qachon tashkil topdi va nima uchun shunday nomlangan?*
- *Germaniyada Shtaufenlar sulolasi qachon hokimiyat tepasiga keldi, ushbu sulolaning eng yirik vakili kim edi?*

## FRIDRIX II HUKMRONLIGI. SHTAUFENLAR SULOLASINING TUGASHI

Aziz o‘quvchilar, siz 7-sinf Jahon tarixi darsligida Germaniya qirolligining tashkil topishi, Otton I uyg‘onish davri, Fridrix I Barbarossa va Shtaufenlar sulolasi haqidagi ma’lumotlarni o‘qigansiz. Bu sulola davrida Germaniyaga Italiya janubidagi hududlar qo‘shib olindi. Imperatorlar shu vaqtdan e’tiboran Sitsiliyadan turib butun imperiyani idora qila boshladilar.

Kelib chiqishi nemis va italyan millatlariga mansub bo‘lgan imperator Fridrix II Shtaufenlar sulolasining eng ko‘zga ko‘ringan vakili edi. Fridrix II arab va Vizantiya madaniyatiga juda qiziqar, uning saroyida arab, vizantiyalik va yahudiy olimlari bor edi. O‘zi esa arab va yunon tillarida so‘zlasha olar, lotin tilida maktublar, italyan tilida she’rlar yozardi. Sharq musiqasi, raqslari, she’riyati, adabiyoti va me’morchiligiga juda qiziqar edi. Imperatorning Palermodagi saroyi sharqona uslubda bezatilgan bo‘lib, arab hukmdorlarining qarorgohlarini eslatib turardi.



### TARIX YONDAFTARCHANGIZGA KIRITING!

***Fridrix II*** *(1194–1250) – Yevropa imperatorlari orasida noyob iste’dod va qobiliyatga ega hukmdor edi. U hukmdor bo‘lishi bilan birga fan va madaniyat homiysi edi. Ko‘plab sohalarda tajribalar o‘tkazdi, kitoblar yozdi, universitetga asos soldi. Me’morchilikka katta ahamiyat qaratdi. Bu qobiliyatlari sabab hatto o‘z zamonasining tarixchilari ham uni* ***“Jahon hayrati”*** *deb e’tirof etdilar.*

Fridrix II doimo saroy a'yonlariga Sharq siyosiy tuzumi haqida so'zlab turgan hamda ba'zi arab va turk hukmdorlari uning yaqin do'stlari bo'lgan. Bundan tashqari, u qushlarga qiziqar, 50 tagacha ov qushi – lochinlari bor edi. Imperator ovga bo'lgan qiziqishi va muhabbati tufayli **"Qushlar bilan ov qilish san'ati"** nomli kitob yozgan. Bu kitob butun Yevropada ushbu mavzuga bag'ishlangan birinchi kitob edi. Shuningdek, imperator Fridrix II Neapol universitetiga asos solgan. Bu qirollar va hukmdorlar tomonidan asos solingan birinchi universitet edi.

Fridrix II butun hukmronligi davomida Sitsiliya qirolligini markazlashgan monarxiyaga aylantirishga harakat qildi. Uning o'zi ham Sitsiliyada yashar edi. Shuning uchun ham Germaniyada hokimiyat amalda yirik feodallar qo'lida bo'lgan. U Germaniyada feodallar imperatorlikka boshqa nomzod ko'rsatmasligi uchun ularning barcha shartlarini bajarar va yon bosar edi. Dastlabki paytlarda uning Rim papasi bilan munosabatlari yaxshi bo'lgan. Biroq papa Grigoriy IX davrida qirol va papa munosabatlari keskinlashdi. Papa uni yeretik, ya'ni dindan qaytgan deb e'lon qildi. Keyingi papa Innokentiy IV imperator Fridrix II ni shakkoklikda aybladi. Papa va imperator o'rtasida chinakam urush boshlanib ketdi. Fridrix II 1248-yilda mag'lubiyatga uchrab, oradan ikki yil o'tganidan so'ng, 1250-yili vafot etdi.



*Fridrix II ning tibbiyot kodeksi*

Esingizda bo'lsa, 7-sinf Jahon tarixi darsligida Otton I asos solgan "Muqaddas Rim imperiyasi" haqida o'qigansiz. Bu imperiya xristian katolik cherkovi homiyligi ostida bo'lganligi uchun unga ramziy ma'noda shu nom berilgan. Biroq Shtaufenlar sulolasining so'nggi vakili Fridrix II ning papa bilan siyosiy nizolari tufayli xristian cherkovi butun imperiyaga g'oyaviy homiylikdan voz kechdi. Hatto uning fuqarolarini qasamdan xoli deb e'lon qildi. Imperatorga qarshi salib yurishlarini ham tashkil etdi. Fridrix II vafotidan keyin papa va cherkov qirol vorislarining taxtga da'vosini tan olmadi. Natijada Shtaufenlar sulolasi hukmronligi barham topdi. Mamlakatda amalda "Muqaddas Rim imperiyasi" emas, balki katolik cherkovi homiyligidan tashqaridagi Germaniya tashkil topdi.

## IQTISODIY-SIYOSIY AHVOL. MAMLAKAT XO'JALIGI

Shtaufenlar sulolasi hukmronligining barham topishi natijasida Germaniyada imperatorlik hokimiyati tamomila orqaga ketdi. Mamlakatda 1254–1273-yillar davomida umuman imperator saylanmadi. Markaziy hokimiyatning yo'qligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga to'siq bo'lib, feodallarning o'zaro urushlari ijtimoiy hayot va iqtisodiy taraqqiyotga to'siq bo'ldi.

Shundan so'ng, 1273-yilda Germaniya knyazlari Rudolf Gabsburgni imperator qilib sayladilar. Ammo Gabsburglar sulolasi hukmronligi uzoq davom etmadi. Ular taxtni 1347-yilda o'z davrining qudratli xonadonlaridan biri bo'lgan Lyuksemburglarga bo'shatib berdi. Ushbu sulola vakili bir vaqtning o'zida Chexiya davlatining ham imperatori hisoblangan. Mazkur sulola davrida Germaniyada imperatorni **kurfyurstlar** deb nomlangan yetti nafar oliy darajadagi saylovchi saylar edi. Ularning to'rt nafari qudratli dunyoviy knyazlardan, uch nafari ruhoniy arxiyepiskoplardan iborat edi.

Germaniyada Lyuksemburglar hukmronligi 1437-yilda barham topdi. Taxtga shu yili yana Gabsburglar sulolasi vakillari o'tirdi. Shundan so'ng Germaniyada Gabsburglar 369 yil, ya'ni 1806-yil (Napoleon I davri)ga qadar hukmronlik qildilar.



*Qirol Rudolf I*

Gabsburglarning butun kuch-qudrati meros bo‘lib o‘tadigan xususiy yerlardan iborat edi. Ular bu yerlarni turli yo‘llar bilan kengaytirishga harakat qildilar. Xususan, Niderlandiya bilan birgalikda Burgundiyaning bir qismini, Ispaniya toj-taxtini nikoh diplomatiyasi orqali qo‘lga kiritdilar. Germaniyaning o‘zida esa Shtiriya, Krayna, Tirol va Shvabiyaning bir qismini egalladilar. Biroq bu davrda Germaniya imperatorida amalda haqiqiy hokimiyat mavjud emas edi. Unda umumimperiya qo‘shini ham, soliqlar ham, markaziy sud va ma’muriy boshqaruv tizimi ham yo‘q edi. Germaniya hududidagi ilk qirolliklar singari imperator “tenglar ichida teng” – birinchi feodal, imperatorni saylash va qulatish huquqiga ega zodagonlar jamoasining boshlig‘i bo‘lib qolaverdi. Germaniyada siyosiy tarqoqlik va boshboshdoqlik sabab Fransiya va Angliyadagi kabi markaziy hokimiyati mavjud bo‘lmagan kuchsiz hukumat hukm surdi.

Siyosiy tarqoqlik Germaniyaning xalqaro munosabatlardagi nufuziga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. XV asrga kelib Germaniya imperiya hududiga qarashli bo‘lgan yerlaridan birin-ketin ayrila boshladi. Imperiya tasarrufidagi hududlarning aksariyati o‘zlarini mustaqil deb e’lon qildi, ayrimlari boshqa kuchli davlatlar hukmronligi ostiga o‘tib ketdi. Jumladan, XV asrning 60-yillarida Prussiya hududi Polsha qiroli hukmronligi ostiga, Shlezvig-Golshteyn Daniyaga o‘tdi. Chexiya va Shveysariya mustaqil davlatga aylandi.

## GERMANIYA SHAHARLARI VA SAVDO ITTIFOQLARI

Germaniyada geografik jihatdan qulay hududlarda joylashgan shaharlar ko‘p edi. Ularning aksariyati daryo bo‘ylarida, unumdor yerlarda hamda savdo-sotiq uchun qulay portlar, savdo yo‘llari kesishgan muhim strategik hududlarda joylashgan edi. Shu omillar turli siyosiy nizolar va urushlar davrida ham bu shaharlarning barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

Shimoliy Germaniya shaharlari Shimoliy va Boltiq dengizlarida savdo-sotiq ishlarini olib borardi. Ular G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining shimoli-sharqiy Yevropa davlatlari bilan savdo ishlarida vositachilik qilar edi. Shunday sharoitda XIV asr o‘rtalariga kelib, Shimoliy Germaniyaning Lyubek, Gamburg, Bremen va boshqa shaharlari **Ganza savdo ittifoqi**ga birlashdilar. Bu savdo ittifoqi Skandinaviya mamlakatlari, Polsha, Angliya va Rossiya bilan keng savdo-sotiq olib borar edi.

Ganza ittifoqiga Yevropaning ko‘plab shaharlari kiritilgan bo‘lib, ularning aksariyati port sha-





*Ganza muhri*

harlar edi. Bundan tashqari, uch minggacha aholi punktlari mavjud hududlar uning ta'siri ostida edi. XV asr boshlariga kelib esa Ganza ittifoqi 160 ga yaqin shaharlarni birlashtirdi.

Ganza faqatgina iqtisodiy ittifoq bo'libgina qolmasdan, siyosiy ittifoq ham edi. Uning asosiy raqobatchisi Daniya qirolligi edi. Ganza ittifoqi 1370-yilda Daniyaga jiddiy zarba berishi natijasida Daniya qiroli ittifoq ishlariga aralashishdan voz kechdi, tovarlardan olinadigan boj kamaytirildi.

Birinchi navbatda iqtisodiy va keyingi galda siyosiy ahamiyati bilan Ganza ittifoqi "Ko'hna qit'a"ning katta qismini iqtisodiy birlashtirgan dastlabki Yevropa ittifoqi edi. Ganza ittifoqi XVII asrgacha qisman o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Germaniyada 1254-yilda **Reyn savdo va sanoat ittifoqi** tashkil topdi. Bu ittifoqqa Reyn daryosi bo'yidagi Frankfurt, Mayns, Kyoln, Vorms, Strasburg kabi yirik shaharlar kirgan edi. Ular xalqaro savdoda Italiya, Fransiya, Niderlandiya bilan o'zaro hamkorlik olib borardi.

Germaniyada janubiy va g'arbiy shaharlarning **Shvabiya ittifoqi** ham mavjud edi. Bu ittifoq 1331-yilda tashkil topgan bo'lib, Yuqori Dunay daryosi bo'yida joylashgan 90 ta shaharni o'z ichiga olgandi. Shvabiya ittifoqining Augsburg, Ulm, Nyurnberg kabi shaharlari gazlama, metallurgiya, qurol ishlab chiqarishda yetakchi edi. Bu shaharlar Italiya savdosi bilan bog'langan bo'lib, Venetsiyada ushbu ittifoqning yirik savdo markazlari mavjud edi.

**ATAMALAR IZOHI**

***Kurfyurst*** *– Germaniyada qirolni saylash vakolatiga ega bo'lgan 7 nafar imperiya knyazlari shunday nomlangan.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Qirol Fridrix II shaxsiyatida qanday qobiliyatlar mujassamlashgan edi?***
2. ***Fridrix II hukmronligi davrida qanday jarayonlar yuz berdi?***
3. ***Shtaufenlar sulolasi hukmronligi barham topishining sabablari nimada edi?***
4. ***Bu davrda mamlakatning iqtisodiy-siyosiy ahvoli va xo'jaligi qanday edi?***
5. ***Germaniya siyosiy taraqqiyotining o'ziga xosligi nimalardan iborat?***
6. ***Germaniya shaharlari, savdo ittifoqlari va ularning savdo yo'nalishlari haqida mulohaza yuriting.***
7. ***Germaniyada Ganza, Shvabiya kabi savdo ittifoqlari mavjud bo'lgan vaqtda Sharq mamlakatlarida Buyuk ipak yo'li gullab-yashnagan. O'zbekiston va Jahon tarixi darsliklari asosida o'rgangan ma'lumotlaringizga tayanib, Ganza, Shvabiya kabi savdo ittifoqlari va Buyuk ipak yo'liga oid ma'lumotlarni ayting va taqqoslang.***



*Rim papasi*

## 7-mavzu

# Italiya: shahar-respublikalar va Rim papalari davlati

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti;**
- **Italiya shahar-respublikalari;**
- **Dehqonlar qaramligining bekor qilinishi;**
- **“Buyuk ajralish” – Rim cherkovining uch papasi.**

## MAMLAKATNING IQTISODIY VA SIYOSIY TARAQQIYOTI

O‘rta asrlarda Italiya siyosiy va iqtisodiy jihatdan beqaror mamlakat edi. Uning shimoliy qismida Lombardiya viloyati va Toskaniya shaharlari joylashgan bo‘lib, Genuya va Venetsiya shahar-respublikalari bu yerning eng yirik savdo va iqtisodiy markazlari edi. Milan va Florensiya shaharlarida esa sanoat rivojlangandi.

Italiyaning markazi Papa davlati deb nomlanib, bu yer savdo-sotiq ham, hunarmandchilik ham rivojlanmagan qoloq hudud edi. Aholining bir qismi ruhoniy va ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatish, bir qismi esa dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan.



*Venetsiya savdo qirg‘og‘i*

Italiya janubidagi Sitsiliya qirolligi fransuz zodagonlari hukmronligi ostida edi. Ular Janubiy Italiyaning arab mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlariga jiddiy ziyon yetkazardi. Shuning uchun ham xalq bu yerdagi fransuz amaldorlari siyosatidan norozi edi. 1282-yili sitsiliyaliklar qo‘zg‘olon ko‘tarib, oroldagi ajnabiylarni qirib tashladilar. Qo‘zg‘olonchilarga namoyishni boshlash uchun belgi sifatida oqshom mahali qo‘ng‘iroq chalingan. Bu voqea tarixga **“Sitsiliya oqshomi”** nomi bilan kirgan.

## ITALIYA SHAHAR-RESPUBLIKALARI

### VENETSIYA RESPUBLIKASI

XIII asrdayoq Venetsiya respublikasi Italiyadagi ulkan dengiz davlati mavqeyiga erishgan edi. Uni **“Adriatika malikasi”** deb atashar edi. Venetsiyada 200 ming aholi istiqomat qilardi. Adriatika dengizi sohillaridagi hududlar, Egey dengizidagi Evbeya oroli, Kiklad orollarining bir qismi, Krit oroli va XV asrdan boshlab Kipr oroli Venetsiya respublikasi tarkibiga kirgan.

Venetsiya respublikasi XV asrga kelib O‘rta dengizning (ba’zi adabiyotlarda O‘rtayer dengizi deb ham ataladi) sharqiy qismida savdo monopollariga aylandilar. Vizantiya, Misr, Suriya, Egey dengizi orollari savdo-sotiq borasida Venetsiyaga qaram edilar. Venetsiya savdo kemalari Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Angliya va Niderlandiyaga qatnab turardi.

Venetsiyada sanoat sohasi ham rivojlangan edi. Venetsiya movutlari, ipak gazlamalari, oynasi, qurol-yarog‘lari, kahrabodan ishlangan turli nozik va qimmatbaho buyumlar Sharq va G‘arb bozorlarida xaridorgir edi. Venetsiya shahar-respublikasi G‘arbiy Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarida vositachilik qilgan. Venetsiyaning oltin dukatlari Yevropada pul muomalasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi va ko‘p asrlar davomida ular ushbu qit’ada xalqaro pul vazifasini ham bajardi.

Venetsiyaning asosiy raqibi O‘rta dengizning g‘arbiy yarmida hukmronlik qilgan Genuya shahar-davlati edi. Bu ikki shahar-respublikalar savdo-sotiq va siyosiy raqobat sababli uzoq vaqt davomida o‘zaro urush olib bordilar. O‘zaro kurash bir asr davom etdi.



1380-yilda Venetsiya respublikasi Genuya flotini tamomila mag‘lub qildi. Shu davrdan boshlab genuyaliklarning O‘rta dengiz sharqiy qismidagi siyosiy va iqtisodiy hukmronligi barham topdi. Venetsiya floti va savdo kemalari esa Qora dengizga ham kirish huquqiga ega bo‘ldi.

Venetsiya savdo-oligarxiya respublikasi edi. Venetsiya respublikasini saylab qo‘yiladigan ***doj*** boshqargan. Venetsiya dojlarining rasmiy hukumati senat hisoblangan.

Venetsiyadagi dojlar saroyi Italiya gotika me’morchiligining ajoyib yodgorligi edi. Uning qurilishi dastlab IX asrdan boshlanib, 1309–1424-yillarda hozirgi ko‘rinishga keltirilgan. Venetsiyaning bu asosiy binosi birinchi navbatda respublika dojlarining qarorgohi edi. Saroyda Buyuk kengash va Senat, Oliy sud, politsiya, advokatlar idoralari va boshqa tashkilotlar joylashgan edi.

Venetsiyalik savdogar va sayyoh Marko Polo Osiyo bo‘ylab sayohatni amalga oshirgan. Sayohati davomida ko‘rgan-kechirganlari haqida **“Marko Polo kitobi”**ni yozgan.



*Venetsiyaning asosiy maydoni*



*Florensiya*

## FLORENSIYA RESPUBLIKASI

O‘rta asrlarda Italiyaning yirik sanoat va madaniyat markazi hisoblangan Florensiya respublikasi Arno daryosi sohillarida joylashgan edi. Maftunkor go‘zalligi, noyob me’morchiligi hamda jozibador madaniyati uchun shaharni **“Italiya Afinasi”** deb ta’riflashgan.

Florensiya sanoatining asosiy boyligi movut bo‘lib, bu yerda yetishtirilgan junning o‘zi yetarli emasligi uchun Ispaniya, Janubiy Italiya, hatto Angliya va Shotlandiyadan olib kelingan. 1330-yilda Florensiyada 90 ming aholi istiqomat qilgan. Ularning asosiy mashg‘ulotlaridan biri movut ishlab chiqarish edi. Birgina XIV asrda Florensiyada 200 dan ortiq movut ishlab chiqarish korxonalari mavjud bo‘lib, ularda o‘ng minglab to‘p movut tayyorlangan. Shuningdek, bu yerda ipak gazlama to‘qish, mo‘ynachilik va zargarlik hunarlari ham rivoj topgan edi.

Florensiya Italiyaning savdo, sudxo‘rlik va bank ishi markazi ham edi. Hatto Rim papalari o‘zlarining behisob boyliklarini Florensiya banklarida saqlashgan. Shuningdek, papalar nafaqat Italiya, balki butun Yevropada cherkov daromad va soliqlarini yig‘ishni florensiyalik bankirlarga topshirgan edi. Italiya shahar-respublikalari orasida Florensiya birinchi bo‘lib 1252-yilda oltin tanga zarb qilgan va ular xalqaro savdoda Venetsiya dukatlari bilan raqobatlashardi.

Florensiyada yirik zodagonlar hukmronligi uzil-kesil mustahkamlangan edi. Respublikaning oliy organi ***sinyoriya*** edi. Unga katta korxonalardan yettita, kichik korxonalardan ikkita vakil saylangan. Sinyoriya boshlig‘i adolat bayroqdori hisoblanib, qo‘shinning ham bosh qo‘mondoni edi.

XIV asrda Florensiyada iqtisodiy va siyosiy vaziyat og‘irlashdi. Yirik mulkdorlar orasida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketdi. Shu jarayonda 1378-yilda yirik qo‘zg‘olon ham bo‘lib o‘tdi. Florensiya Italiyaning yirik madaniyat markazi ham edi. Bu yerda paydo bo‘lgan gumanistik g‘oyalar Yevropa Uyg‘onish davriga asos bo‘ldi.



## GENUYA RESPUBLIKASI

Genuya Italiyaning shimoli-g‘arbiy sohilida joylashgan dengiz respublikasi edi. Bu davlatga XI asrda asos solingan va 1797-yilgacha mavjud bo‘lgan. O‘z tarixi davomida Genuya respublikasi O‘rta dengiz va Qora dengiz bo‘ylab ko‘plab hududlar, jumladan, Korsika, Monako, Lesbos va Xios orollaridan tashkil topgan edi. Genuya floti asrlar davomida respublikaning boyligi va qudratida asosiy rol o‘ynagan hamda uning ahamiyati butun Yevropada tan olingan.

O‘rta dengizdagi hukmronlik uchun Genuya respublikasining asosiy raqibi Venetsiya respublikasi edi. 1298-yilda genuyaliklar Venetsiya flotini mag‘lub etishdi. To‘qnashuvda venetsiyalik doj va Marko Polo asir tushib qoldi. U asirlikda o‘zining Piza shahridan qilgan sayohati tarixini aytib berdi.

Genuyaning Venetsiya bilan oxirgi yirik to‘qnashuvi 1380-yilda ro‘y berib, venetsiyaliklarning g‘alabasi bilan yakunlandi.




*Genuya*

## DEHQONLAR QARAMLIGINING BEKOR QILINISHI

Italiya dehqonlari yirik mulkdorlarga bevosita qaram bo‘lmay, balki ularga yer orqali bog‘langan edi. Dehqon xohlagan vaqtida yerdan, istiqomat qilib turgan joyidan va o‘z xo‘jayinidan voz kechib keta olardi. Shuning uchun Italiyada dehqonlar qaramligining bekor bo‘lishi boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan tezroq va nisbatan oson kechdi. Dehqonlarning ozod bo‘lishi Italiya shimolida XIII asrda, janubiy shahar-respublikalarda esa XIV–XV asrlarda yuz berdi.

## “BUYUK BO‘LINISH” – RIM CHERKOVINING UCH PAPASI

Nafaqat Italiya, balki butun Yevropa tarixida Rim papalari muhim ahamiyatga ega edi. Papalar Italiyadagi Papa davlati – Vatikandan turib butun katolik cherkovi, hatto Yevropa qirollari ustidan hukm o‘tkazar, soliqlarni yig‘ib olishar edi. Biroq fransuz qirollarining tazyiqi bilan papa o‘z qarorgohini Avinyonga ko‘chirganidan so‘ng ularning nufuziga va siyosiy ta’siriga katta putur yetdi.

1377-yilda papa Grigoriy XI Avinyondan Rimga ko‘chib keldi va 1378-yilda shu yerda



Piza shahri

vafot etdi. Yangi papa saylanish jarayonida Italiya va Fransiya kardinallari o‘zaro tortishib ikkita nomzod ko‘rsatishdi. Italiyaliklar Urban VI ni, fransuzlar esa Kliment VII ni papa qilib sayladilar. Shu tariqa katolik cherkovida ikkita papa hukmronligi boshlandi. Ulardan papa Urban VI Rimda, papa Kliment VII esa Avinyon shahrida qarorgoh tutishgan edi. Yevropaning boshqa mamlakatlari ham bu borada ikkiga bo‘linib, ularning ayrimlari italiyalik papani, ayrimlari esa fransuz papasini tan olardi.

Shundan so‘ng cherkov yakka papalikni ta’minlash uchun 1409-yilda Italiyaning Piza shahrida katta yig‘in chaqirdi. Ushbu yig‘ilishda har ikkala papa ham o‘z hokimiyatidan ixtiyoriy ravishda voz kechmadi. Shuning uchun yig‘ilish ishtirokchilari Aleksandr V ni yangi papa qilib sayladilar. Natijada katolik cherkovida rasman uchta papa hukmronlik qildi. Bu voqea tarixga **“Buyuk bo‘linish”** nomi bilan kirdi. Shundan so‘ng 1418-yilda o‘tkazilgan navbatdagi cherkov yig‘ilishida har uchala papa ham ag‘darib tashlandi va Martin V ni yangi papa sifatida sayladilar. Uning hokimiyati rasman tan olindi va qarorgohi Rim shahri bo‘lib qoldi. Shunday qilib papalarning “buyuk bo‘linishi”ga barham berildi.

**ATAMALAR IZOHI**

***Doj*** *(yunon tilida rahbar, graf ma’nosini bildiradi) – VIII–XVIII asrlarda Venetsiya respublikasining saylangan rahbari. Bu vaqtda Venetsiyada 120 ta dojlar rahbarlik qilishgan. Ular Venetsiyadagi eng boy va nufuzli oilalardan saylangan.*

***Dukat*** *(italyancha “ducato” – gersog ma’nosini bildiradi) – oltin va kumush tangalar bo‘lib, Italiya davlatlarining pul birligidir. Dukatlar birinchi marta 1284-yilda Venetsiya respublikasi tomonidan Florensiya pullariga taqlid sifatida chiqarilgan.*

***Kardinal*** *(lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, asos, yurak ma’nosini anglatadi) – katolik cherkovining Rim papasidan keyingi eng oliy ruhoniysi.*

***Sinyoriya*** *– XIII–XIV asrlarda Italiya shahar-davlatlarida hokimiyat boshqaruvi tizimi va idorasi.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti qanday jarayonlarga bog‘liq ravishda kechdi?***
2. ***Italiya shahar-respublikalari Venetsiya va Florensiyada o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlar nimalarda ko‘zga tashlanar edi?***
3. ***Dehqonlar qaramligining bekor qilinishi qanday oqibatlarga olib keldi?***
4. ***Rim cherkovidagi “buyuk bo‘linish” yoki “uch papalik davri” qanday omillar sababli yuz berdi?***



Qirol Ferdinand II

## 8-mavzu

# Pireney yarimoroli mamlakatlari: Ispaniya va Portugaliya

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Pireney yarimorolidagi davlatlar;
- Granada, Navarra, Kastiliya, Aragon;
- Portugaliyada ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;
- Kastiliya va Leon qirollarining Amir Temur bilan elchilik aloqalari.

## PIRENEY YARIMOROLIDAGI DAVLATLAR

Arab xalifaligi 711–714-yillarda Pireney yarimorolidagi Vestgot qirolligini bo‘ysundirdi. Bu yarimorolda hozirgi Ispaniya, Portugaliya, Andorra davlatlari va Gibraltar hududi joylashgan. 756-yili Ispaniyada arab xalifaligidan ilk mustaqil amirlik tashkil topdi. X asrdan u Qurdoba amirligi deb atalgan. XII asrda Pireney yarimorolida Kastiliya, Navarra, Aragon va Portugaliya davlatlari yuzaga keldi. Arablarga qarshi uzoq vaqt olib borilgan kurashlar natijasida Ispaniya davlati tashkil topdi.



*Al-Hamro saroyi*

## GRANADA VA NAVARRA DAVLATLARI

**Granada (G‘arnota)** Ispaniyaning janubida joylashgan. U XI asrdan arablar qo‘l ostiga o‘tgan va 1238-yildan bu yerda Granada amirligi tashkil topgan. Bu Yevropadagi so‘nggi arab davlati va 1238-yildan 1492-yilgacha Pireney yarimoroli hududidagi so‘nggi islom davlati edi. Granada amirligining ispanlar tomonidan qayta bosib olinishi yarimorolda rekonkista jarayonini yakunladi. Granada amirligining qulashi xuddi Konstantinopolning qulashi kabi Yevropa davlatchiligi tarixida muhim bosqich bo‘ldi.

XIII–XV asrlarda Granada siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazlardan biri bo‘lgan. Ushbu amirlik tarkibiga Almeriya, Granada, Malaga viloyatlari va Kadisning eng sharqiy hududlari kirgan. 1492-yilda Granada amirligi qulaganidan keyin, uning hududi Kastiliya tojining bir qismiga aylandi.

**Navarra davlati** 905–1512-yillarda Pireney yarimorolidagi davlat bo‘lib, poytaxti Pamplona bo‘lgan. Navarraning birinchi qiroli Sancho Garsiya edi.

Navarra 1076–1134-yillarda Aragonga tobe bo‘lgan. XIII asr o‘rtalarida Navarrani fransuzlar egallagani uchun bu yerda ularning ta’siri kuchli bo‘lgan. Navarra iqtisodiy qoloq davlat hisoblangani bois XIII–XV asrlarda Pireney yarimorolida katta ta’sirga ega bo‘lmagan. 1512-yilda Navarrani aragonlik Ferdinand bosib olgan va u Ispaniya tarkibiga kirgan.

## KASTILIYA QIROLLIGI



*Qirol Alfonso X*

Kastiliya qirolligi Pireney yarimorolidagi muhim va eng katta hududga ega davlat hisoblangan. Bu qirollik rekonkista jarayonlarida ham juda faol ishtirok etgan. Bu yerda dehqonlar ham arablarga qarshi kurashda jonbozlik ko‘rsatishgan. Shuning uchun yirik zamindorlar ularga yon berishga majbur bo‘lishgan hamda ular nisbatan ertaroq qaramlikdan qutulishgan.

Yevropadagi toifa vakillarining ilk yig‘ini ham aynan Kastiliyada vujudga kelgan va **kortes** deb atalgan. Kortesning birinchi yig‘ilishi Kastiliyada 1137-yilda chaqirilgan. Unda dastlab ruhoniylar va zodagonlar ishtirok etgan bo‘lsa, keyinchalik, 1188-yildan shaharliklar va dehqonlarning vakillari ham qatnashish huquqiga ega bo‘lishgan. Kastiliyada qirol markazlashgan hokimiyat uchun boshqa Yevropa mamlakatlaridagi kabi zodagonlarga qarshi kurash olib bordi. Bu kurashda qirol ko‘proq shaharliklarga tayandi, mamlakatda hamma uchun barobar bo‘lgan qonun ustuvorligini ta’minlashga harakat qildi. XIII asrda qirol Alfonso X **“Huquqning yetti bo‘limi”** deb nomlangan qonunlar to‘plamini yaratdi. Ushbu qonunlar to‘plamiga Rim huquqi asos qilib olingan bo‘lib, o‘rta asrlar Yevropa jamiyatidagi qonunlarning dastlabki umum-



### MENING TARIXIY TADQIQOTLARIM

*Qo‘shimcha ma’lumotlar asosida Angliyadagi parlament, Fransiyadagi General shtatlar va Ispaniyadagi Kortes tarixi hamda bugungi faoliyatini taqqoslab kichik loyiha tadqiqotini amalga oshiring. Loyiha tadqiqotingizni sinfda ko‘rgazmali vositalar bilan taqdimot qiling.*

to‘plamlaridan biri edi. Shuningdek, u ispan tilida yirik asarlar va Ispaniya tarixini yozish, ilmiy matnlarni arab tilidan ispan tiliga tarjima qilish tashabbusi bilan chiqdi. Kastiliya tili keyinchalik ispan adabiy tiliga asos bo‘ldi.

Qirol Alfonso X davrida Toledo maktabi Yevropa ilmiy tarjimashunosligining beshigiga aylandi. Bu yerda tarjima qilingan asarlar nafaqat Ispaniyada, balki butun Yevropada mashhur bo‘ldi. Italiya, Germaniya, Angliya yoki Niderlandiya kabi davlatlardan olimlar tarix, falsafa, tibbiy va diniy asarlarni tarjima qilish uchun Toledoga ko‘chib o‘tishdi. Ko‘plab olimlarni qirolning o‘zi turli mamlakatlardan yuqori maosh to‘lab ishga chaqirib oldi. Toledo tarjimashunoslik ilmiy maktabida Markaziy Osiyo olimlarining asarlari ham arab tilidan lotin va boshqa tillarga tarjima qilindi. Qirol Alfonso X Salamanka universitetida osmon jismlarini kuzatadigan yirik rasadxona qurdirdi, astronomik jadvallar tuzishda ishtirok etdi. Uning davrida mamlakatda qirol hokimiyatining nufuzi yuksaldi.

Qirol Pedro I Yuz yillik urushda Angliya davlatining ittifoqchisi sifatida ishtirok etdi, yirik mulkdorlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Keyingi qirollar davrida mamlakatda markazlashgan hokimiyatning nufuzi pasaydi. Qirol hokimiyatini kortes qo‘llab-quvvatlashga harakat qildi, biroq XIV–XV asrlarda korteslarning ham obro‘si tushib, juda kam yig‘iladigan bo‘lib qoldi.

## ARAGON DAVLATIDAN ISPANIYA QIROLLIGIGA



*Qirol Ferdinand*



*Aragon qirolligining oltin tanga puli*

Pireney yarimorolida Aragon federatsiya shaklidagi kichik bir davlat edi. O‘rta dengizdagi Sitsiliya, Sardiniya, Neapol, Balear orollari Aragon tarkibiga kirgan. Aragonda qirol hokimiyati juda zaif bo‘lib, mamlakatda parokandalik hukm surardi. Aragon Kastiliya bilan chegaradosh bo‘lib, aholisining kelib chiqishi va etnik tarkibi bir edi. Kastiliya va Aragonda markaziy hokimiyatning zaifligi, toifalar o‘rtasidagi ziddiyatlar har ikkala davlatni yagona Ispaniya davlatiga birlashishga majbur qildi.

1469-yilda aragonlik shahzoda Ferdinand hamda kastiliyalik malika Izabellaning turmush qurishi Ispaniyani birlashtirish yo‘lida katta qadam bo‘ldi. Shu vaqtdan boshlab Kastiliya va Aragon alohida davlat kengashlari hamda parlamentlarga ega, biroq yagona siyosiy qirollik bo‘lib qoldi. Bu yagona Ispaniyaning vujudga kelishiga asos bo‘ldi. Ferdinand va Izabella Ispaniyasi tez orada buyuk davlatga aylandi. 1492-yil Granada, 1512-yil Navarra Ispaniyaga qo‘shib olindi. Portugaliyadan tashqari butun Pireney yarimoroli Ispaniyaga birlashtirildi.



# PORTUGALIYADA IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR



*Vasko da Gama*

Portugaliya Pireney yarimorolining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, 713–718-yillarda arablar tomonidan bosib olingan. Rekonkista davrida 868-yilda Vimara Peresh boshchiligida Portugaliya grafligi tuzildi. 1139-yilda qirol **Afonso Enrikesh** Portugaliyaning mustaqilligini e’lon qildi va uning birinchi qiroli bo‘ldi. 1225-yildan boshlab Lissabon shahri Portugaliyaning poytaxtiga aylandi. XIII asrda Portugaliya qirollari o‘z chegaralarini kengaytirib, bugungi kungacha deyarli o‘zgarmagan hududga ega bo‘lishdi.

Qirol Sancho I davrida Portugaliya tarixida tinch islohotlar amalga oshirildi. Afonso II davridan boshlab mamlakatda kortes, ya’ni parlament o‘z ishini boshladi. 1279–1415-yillarda Portugaliyada monarxiya mustahkamlandi. Qirol Dinish Portugaliya flotiga, Yevropadagi nufuzli Koimbra universitetiga asos soldi.



*Vasko da Gamaning Hindistonga birinchi sayohati haqidagi qaydlar*

XV asrda Avislar sulolasidan Xuan I hukmronligidan boshlab, Portugaliyaning mustamlaka siyosati boshlandi. Kichik qirollik asta-sekinlik bilan ko‘plab mustamlakalarga ega bo‘lgan dunyodagi eng yirik imperiyalardan biriga aylandi.

Bu davrga kelib Portugaliya xalqaro siyosatda katta dengiz flotiga ega bo‘lgan hamda xalqaro savdo ishlarini amalga oshiradigan muhim davlatga aylandi. XIV–XV asrlarda portugal karvonlari Afrika, Sharqning uzoq mamlakatlari va Janubiy Amerika qit’asigacha yetib borgan. Turli mamlakatlar bilan olib borilgan savdo-sotiq ishlari uni iqtisodiyoti mustahkam mamlakatga aylantirdi. Portugaliyalik dengizchilar Vasko da Gama 1498-yilda Hindistonni va Pedro Kabral 1500-yilda Braziliyani kashf etdi. Portugaliya mustamlaka imperiyasi XV asrdan boshlab o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi.

# KASTILIYA VA LEON QIROLLARINING AMIR TEMUR BILAN ELCHILIK ALOQALARI



*Gonsales de Klavixo tomonidan yozilgan “Esdaliklar”*

Pireney yarimorolidagi Kastiliya davlati Sharq mamlakatlari bilan savdo va elchilik aloqalarini olib borishga harakat qilgan. Qirol Genrix III de Trastamara o‘z davrida Sharqning buyuk davlati hisoblangan Sohibqiron Amir Temur davlati bilan diplomatik yozishmalar olib borgan. Qirol Genrix III Sharq mamlakatlari bilan juda qiziqib qolgan edi. U dastlab 1402-yili Payo Sotomayor va Ernan Sanches boshchiligidagi elchilarni Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboradi. Ispan elchilarini Sohibqiron yaxshi qabul qilib, ularga qo‘shib o‘z elchisi Muhammadqozi orqali qirol nomiga yozilgan maktub va sovg‘alar jo‘natadi. Bunga javoban ispan qiroli 1403-yilda Rui Gonsales de Klavixo boshchiligida ikkinchi marotaba o‘z elchisini yo‘llaydi. Rui Gonsales de Klavixo diplomat va sayohatchi bo‘lib, madridlik boy oilaning vakili edi.

Klavixoning Amir Temur huzuriga elchilik safari uzoq va qiziqarli bo‘ladi. U 1403-yil may oyida Kadisdan suzib o‘tib, Rodos, Konstanti-

nopol va Trapezund orqali 1404-yil avgustda Samarqandga yetib boradi.

Poytaxt Samarqandda, Amir Temur qarorgohida bo‘lgan Rui Gonsales de Klavixo 1405-yil missiyasini yakunlab, 1406-yil mart oyida Kastiliyaga qaytib ketadi va qirol Genrix III de Trastamaraga sayohati haqida ma’lumotlar jamlangan hisobotini topshiradi. So‘ngroq bu hisobotlar avval Ispaniyada, keyinchalik Yevropada ispan va lotin tillariga tarjima qilinib, **“Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi”** va **“Samarqandga sayohat kundaligi”** nomlari bilan nashr etiladi.



*Rui Gonsales de Klavixo*

“Esdaliklar”da Klavixo Sharqning mamlakat va shaharlari, xalqlarining turmushi, Amir Temur barpo etgan binolar, qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, Temuriylar davlatining turli mamlakatlar bilan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo‘lgan tartib-qoidalar hamda boshqa muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

1407-yilda keksa Gonsales de Klavixo davlat ishlaridan nafaqaga chiqadi. 1412-yilda vafot etadi va avliyo Fransisko cherkoviga dafn etiladi. Klavixo Temur saltanati bilan shaxsan tanishib, davlat va jamiyat hayotini o‘z “Esdaliklar”ida tasvirlab bergan.

Gonsales de Klavixo “Esdaliklar”i birinchi marta 1582-yili Ispaniyaning Sevilya shahrida “Buyuk Temurning hayoti va faoliyati” nomi bilan chop etilgan. Shundan so‘ng dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va ko‘p marotaba nashr etilgan.

## ATAMALAR IZOHI

***Rekonkista*** *– Pireney yarimorolining arablardan qaytarib olinishi jarayoni tarixga shunday nom bilan kirgan. Rekonkista VIII–XV asrlarda davom etgan.*

***Kortes*** *– ispan tilida o‘rin, joy ma’nosini bildiradi. O‘rta asrlarda Ispaniyada vakillik yig‘inlari shunday nomlangan. Birinchi kortes 1137-yilda Kastiliyada paydo bo‘lgan. XIX asrdan Ispaniya va Portugaliyada milliy qonun chiqaruvchi organ – parlament kortes deb yuritila boshlagan. Korteslar Angliyadagi parlament (1265-yil) va Fransiyadagi General shtatlardan (1302-yil) oldinroq paydo bo‘lgan.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Pireney yarimorolidagi Granada, Navarra, Kastiliya, Aragon davlatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida qanday o‘xshash va farqli jihatlar mavjud?***
2. ***Portugaliya davlatining tashkil topishi va buyuk davlatga aylanishida qanday siyosiy va ijtimoiy yo‘llar bosib o‘tildi?***
3. ***Ispaniyadan Sharqning qaysi buyuk davlatlariga elchilar jo‘natildi va ularning ahamiyati nimada edi?***



*Knyaz Yuriy Dolgorukiy*

## 9-mavzu

# Rus knyazliklarida ijtimoiy-siyosiy hayot

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Kiyev Rusining bo‘linib ketishi va siyosiy tarqoqlik;**
- **Mo‘g‘ullar hujumi;**
- **Shved va nemis ritsarlarining rus yerlariga tahdidlari;**
- **Rus knyazliklarida markazlashish jarayonlari;**
- **Rus yerlarining ozod bo‘lishida Amir Temurning o‘rni.**

## KIYEV RUSINING BO‘LINIB KETISHI VA SIYOSIY TARQOQLIK

Rus yerlarini hukmdor – knyaz boshqargan. Mustaqil o‘lkalarda zodagonlarning har biri oliy hukmdorlik lavozimiga o‘z nomzodini o‘tkazishga harakat qilar edi. Knyazlarda esa zodagonlarga nisbatan ishonch tuyg‘usi yo‘q edi. Shuning uchun turli toifalar o‘rtasida ham o‘zaro ichki kurashlar kuchayib ketdi. O‘zaro kurash va nizolar mamlakatning parchalanib ketishiga olib keldi. Knyaz Vladimir Monomaxning o‘g‘li Mstislav I vafotidan keyin XII asrning birinchi yarmida Kiyev Rusi Novgorod feodal respublikasi, Kiyev, Galich-Volin, Vladimir-Suzdal, Moskva, Pskov, Ryazan, Tver kabi 10 dan ortiq mustaqil knyazliklarga bo‘linib ketdi.

Kiyev Rusi yerlarining bo‘linishi natijasida vujudga kelgan davlatlar boshqaruvida umumiy va farqli xususiyatlar mavjud edi. Barcha o‘lkalarda uchta asosiy kuch – knyaz, qo‘shin va shahar kengashi bor edi. Janubiy Rus o‘lkalarida zodagonlar muhim rol o‘ynaydigan monarxiya, shimoli-sharqiy Rusda knyaz katta mavqega ega bo‘lgan monarxiya, shimoli-g‘arbiy o‘lkalarda – veche hal qiluvchi rolga ega bo‘lgan zodagonlar respublikasi hukmronligi o‘rnatilgan edi.



**ESLAB KO‘RING!**

- *Qadimgi slavyanlar qanday guruhlarga bo‘lingan?*
- *Kiyev Rusi davlati qachon tashkil topgan, uning asoschisi kim edi?*

## NOVGOROD RESPUBLIKASI

Novgorod Sharqiy Yevropada savdo yo‘llari kesishgan muhim strategik hududda joylashgan edi. Ryurikovlar sulolasi vakillaridan birortasi ham Novgorodda mustahkam o‘rin egallay olmadi va aksincha, zodagonlarning kuchayishi kuzatildi. 1136-yilda knyaz Vsevolod Mstislavich taxtdan ag‘darilib, Novgorod o‘lkasida respublika boshqaruv shakli paydo bo‘ldi.

Novgoroddagi oliy hokimiyatni **xalq vechesi** boshqargan. Veche qo‘ng‘irog‘ining chalinishi yig‘ilishlar chaqirilishini bildirgan. Shahar hokimi Novgorod yerlarini, sudini boshqargan, turli mansabdor shaxslarni lavozimga tayinlagan va lavozimidan ozod qilgan.

Novgorodda pravoslav cherkov boshlig‘i – yepiskop ham vecheda saylangan. U davlat xazinasini, ichki va tashqi ishlarni nazorat qilgan, cherkov sudini boshqargan, uning qarorgohida yilnomalar saqlangan. Novgorod respublikasida knyazning mavqeyi yuqori edi. Knyaz va uning qo‘shini boshqa o‘lkalardan veche tomonidan taklif qilingan. Urushlar vaqtida knyaz qo‘shinni boshqarishi kerak edi. Veche knyaz bilan shartnoma tuzgan. Knyaz shahar hokimiyati ishlariga aralashishga haqli emas edi. Agar u kelishuvni buzsa, veche uni haydab yuborgan. Biroq hokimiyat yirik zodagonlar qo‘lida to‘plangan bo‘lib, Novgorod respublikasi amalda zodagonlar respublikasi edi.







*Novgorod tangasi*

Moskva knyazi Ivan III ning Novgorodga yurishi natijasida 1478-yilda Novgorod mustaqilligi tugatildi, veche siyosiy muassasa sifatida yo‘q qilindi va veche qo‘ng‘irog‘i Moskvaga olib ketildi. O‘lka Moskva knyazligi tarkibiga kiritildi.

## KIYEV KNYAZLIGI

Kiyev Rusi deyarli mustaqil o‘lkalarga bo‘linganidan so‘ng Kiyev knyazligi hududi torayib qoldi. Biroq Kiyev shahri poytaxt hisoblanishda davom etdi. Rus o‘lkalarining knyazlari unga da’vo qilishi mumkin edi. Shuning uchun ham turli o‘lkalarning knyazlari zodagonlar ko‘magida uni bo‘ysundirishga harakat qildilar. Biroq Kiyev knyazligining yirik harbiy salohiyati bunga imkon bermadi. XIII asrda Kiyevda knyaz va zodagonlar o‘rtasidagi nizolar o‘lkani siyosiy jihatdan zaiflashtirdi.



*Knyazlar yig‘ilishi*

## SMOLENSK O‘LKASI

Bo‘linish jarayonida Smolensk o‘lkasi knyaz Rostislav Mstislavich davrida Kiyevdan mustaqil bo‘ldi.

Mo‘g‘ullar bosqinidan oldin Smolensk o‘lkasi rus yerlari orasida eng kuchlilaridan biri edi. XIII asrning o‘rtalariga kelib Smolensk o‘lkasi zaiflashdi. XIV asrda Litva knyazi Smolenskni egallab oldi va bu yerda o‘z hukmronligini o‘rnatdi. 1401-yilda Smolensk knyazlari hokimiyatni qaytarib olishga muvaffaq bo‘lishdi. Ammo 1404-yilda Litva knyazi yana Smolenskni egallab, uni Litvaga qo‘shib oldi. 1514-yilda Rus-Litva urushidan keyin Smolensk Rossiya tarkibiga kirdi.

## VLADIMIR-SUZDAL KNYAZLIGI

1130-yilda Vladimir-Suzdal o‘lkasi Kiyev Rusidan mustaqil bo‘ldi. Knyaz **Yuriy Dolgorukiy** o‘lka poytaxtini Rostovdan Suzdalga ko‘chirdi va 1147-yilda Moskva shahriga asos soldi. Uning vorisi Andrey davrida poytaxt Vladimir shahriga ko‘chirildi. Vladimir-Suzdal rus o‘lkalari ichida kuchli knyazliklardan biri edi.

## MOSKVA KNYAZLIGI



1263-yilda knyaz Daniil Aleksandrovich Moskva va uning atrofini egallab, Moskva knyazligiga asos solindi. Uning vorislari boshqa knyazlar bilan raqobatlashib, o‘z nazorati ostidagi hududni doimiy ravishda yaxlit saqlab qolishga harakat qildilar.

XIV asr boshlarida Kiyev knyazligi bosh ruhoniysi Pyotrning Vladimirdan Moskvaga ko‘chirilishi bilan knyazlikning mavqeyi yanada mustahkamlandi. 1383-yilda knyazlik Vladimir knyazligi bilan birlashdi.

Kiyev Rusining parchalanib ketishi siyosiy tarqoqlik, o‘zaro urushlar, hokimiyat uchun kurash, mudofaa qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Knyaz va zodagonlar o‘rtasida nizolar kuchayib bordi. Zodagonlar o‘z yerlari va hududlarida siyosiy hamda iqtisodiy mustaqillikka harakat qildilar. G‘arbiy Yevropadagi kabi bu yerda ham knyaz o‘zboshimcha zodagonlarga qarshi kurashda o‘rta qatlam vakillari va shaharliklarga tayandi. Biroq rus yerlarida uzoq vaqt yirik zodagonlarning o‘zboshimchaligi hamda knyazliklarning siyosiy tarqoqligiga butunlay barham berilmadi. Natijada o‘lkaga tashqi kuchlar hujumi yuz berdi.

## MO‘G‘ULLAR HUJUMI



*Suzdal haqida hikoya qiluvchi yilnoma*

XIII asr boshlarida Osiyoda Chingizxon boshchiligida qudratli Mo‘g‘ul davlati tashkil topdi. Mo‘g‘ullar imperiyasi Sariq dengizdan Boltiq dengizigacha va Himolaydan Rossiyaning shimoliga qadar cho‘zilgan edi. 1227-yilda Chingizxon vafot etgach, uning vorislari ulug‘ xoqon boshlagan istiloni davom ettirdilar.

Mo‘g‘ullar Chingizxonning nabirasi Botuxon boshchiligida 1237-yilda rus yerlariga hujum qilishdi. Birin-ketin Ryazan, Vladimir-Suzdal, Polotsk-Minsk, Smolensk bosib olindi.

1240-yilda Kiyev qo‘lga kiritildi. Mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan rus yerlari Botuxon tashkil etgan Oltin O‘rda davlatiga bo‘ysundirildi. Rus knyazliklari har yili Oltin O‘rdaga soliq to‘lab turishi lozim edi. Shuningdek, rus knyazlari ham mo‘g‘ul hukmdori tomonidan tayinlanib, ularga maxsus yorliq berilgan.



*Aleksandr Nevskiy*

## SHVED VA NEMIS RITSARLARINING RUS YERLARIGA HUJUMLARI

1240-yilda Novgorod-Pskov knyazligiga shved qo‘shinlari hujum qildi. Bu vaqtda Novgorod knyazi yosh **Aleksandr Yaroslavich** edi. Neva daryosi bo‘yida bo‘lib o‘tgan jangda shvedlar mag‘lubiyatga uchradilar. Nevadagi g‘alabasi sharafiga knyaz Aleksandr Nevskiy deb atala boshlandi. U Rossiyaning taniqli harbiy va davlat arbobiga aylandi.

O‘sha yili nemis Livoniya ritsarlari ham Novgorodga hujum qildilar. Ular Izborsk va Pskovni egallashga muvaffaq bo‘lishdi. Shiddatli hujumlar natijasida nemislar tez orada Novgorod chegaralariga yaqinlashdilar. Zodagonlar shvedlar ustidan g‘alaba qozonganidan keyin Aleksandr Nevskiyning nufuzi ortib ketganidan xavotirlanib, uni Novgorodni tark etishga majbur qilishdi. Biroq Livoniya ritsarlari hujumi vaqtida aholining qat’iy talabi bilan Aleksandr Nevskiy Novgorodga qaytarilib, unga armiya qo‘mondonligi ishonib topshirildi. Kuchli raqibga qarshi kurashish uchun Aleksandr o‘z harbiy bo‘linmasini Vladimir-Suzdal askarlari bilan to‘ldirdi va xalq qo‘shinini to‘pladi. U dushmanlarga qarshi kurashib, tezda Pskov va Izborskni ozod qilishga muvaffaq bo‘ldi.

Novgorodni to‘liq himoya qilish uchun u nemis ritsarlariga hujum qilishga qaror qildi. Hal qiluvchi jang **1242-yil 5-aprel** kuni Chud ko‘li ustida bo‘lib o‘tdi. Ko‘l usti muzlaganligi sababli bu voqea **“Muz ustidagi jang”** nomi bilan tarixga kirdi. Aleksandr Nevskiyning jang taktikasi va strategik mahorati rus askarlarining g‘alabasini ta’minladi. Chud ko‘li ustidagi jangda erishilgan tarixiy g‘alaba natijasida nafaqat Novgorod va Pskov o‘lkalarining mustaqilligi saqlanib qoldi, balki mo‘g‘ullar zulmi davom etayotgan bir davrda muhim siyosiy ahamiyatga ham ega bo‘ldi.

## RUS KNYAZLIKLARIDA MARKAZLASHISH JARAYONLARI

XIV asrda rus yerlarida mo‘g‘ullar istibdodiga qarshi kurash yanada kuchaydi. Rus o‘lkalarini yagona davlatga birlashtirish ularning mo‘g‘ullar zulmidan ozod bo‘lishini ta’minlar edi. Tarqoq o‘lkalarni birlashtirishga Moskva knyazligi boshchilik qildi.

1327-yilda Moskva knyazi **Ivan Kalita** (1325–1340) Oltin O‘rda hukmdoridan rus yerlarida soliq yig‘ish huquqini oldi. Moskva knyazligining siyosiy mavqeyi ortib, iqtisodiy ahvoli yuksalishi natijasida ko‘plab knyazliklarni o‘z tarkibiga qo‘shib oldi.

Knyaz Dmitriy Ivanovich davrida Moskva shahri harbiy jihatdan mustahkamlandi, siyosiy mavqeyi yanada oshdi. Moskva knyazligi rahbarligida rus yerlarining yagona davlatga birlasha boshlashi Oltin O‘rdani tashvishga soldi. Chunki ruslarning birlashishi Oltin O‘rda hukmronligining tugashiga olib kelar edi. Shuning uchun Oltin O‘rda tumanboshisi Mamay rus yerlariga hujum qildi. Oltin O‘rda va Moskva knyazligi o‘rtasidagi jang 1380-yili Don



*Dmitriy Donskoy*

daryosi bo‘yidagi Kulikovo maydonida bo‘lib o‘tdi. Jang Moskva knyazligining g‘alabasi bilan tugadi. Ushbu g‘alaba sharafiga knyaz **Dmitriy Donskoy** deb ataladigan bo‘ldi. Oltin O‘rdaning mag‘lubiyati Moskva knyazligining nufuzini yanada oshirib yubordi. Biroq rus yerlari Oltin O‘rda hukmronligidan to‘la ozod bo‘la olmagan edi. 1382-yilda Oltin O‘rdaning yangi xoni To‘xtamishxon rus yerlariga hujum qildi va Moskvani bosib oldi. Ruslar Oltin O‘rdaga yana qayta soliq to‘lay boshladi.

## RUS YERLARINING OZOD BO‘LISHIDA AMIR TEMURNING O‘RNI

Bu davrda Sohibqiron Amir Temur boshchiligida Movarounnahrda kuchli davlat barpo etilgan edi. Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon Amir Temur davlatiga ham tahdid qila boshladi. Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasida 1389, 1391 va 1395-yillarda uch marotaba janglar bo‘lib o‘tdi. Hal qiluvchi jang 1395-yil Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi bo‘yida kechdi. Jangda Amir Temur To‘xtamishxon ustidan to‘liq g‘alaba qozondi.

Amir Temurning Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon ustidan qilgan g‘alabasi ruslar uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, ularning mo‘g‘ullar zulmidan xalos bo‘lishini tezlashtirdi. Amir Temur Yevropa xalqlariga xolis xizmat ko‘rsatdi. 1480-yilda ruslar Oltin O‘rdaga soliq to‘lashni butunlay to‘xtatdi. Rus yerlarining mo‘g‘ullarga ikki asrlik qaramligi barham topdi. Natijada ularning yagona davlatga birlashishi uchun imkoniyat yaratildi.

XV asr oxirida Moskva knyazligi boshchiligida hokimiyat markazlasha boshladi, Oltin O‘rda qaramligidan xalos bo‘ldi. Ivan III davrida Novgorod, Tver va boshqa hududlarning qo‘shilishi bilan Moskva knyazligi Rossiya davlatiga aylandi. Moskva knyazi Ivan IV 1547-yilda podshoh unvonini oldi.

**ATAMALAR IZOHI**

***Veche*** *– qadimgi slavyan tilidan olingan bo‘lib, kengash ma’nosini bildiradi. Veche X–XVI asrlarda slavyan davlatlarida xalq yig‘ini vazifasini bajargan.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Kiyev Rusining bo‘linib ketishi va siyosiy tarqoqlikka qanday omillar sabab bo‘ldi?***
2. ***Rus yerlariga mo‘g‘ul bosqinchilari qachon kirib keldi va u qanday siyosiy natijalarga olib keldi?***
3. ***Shved va nemis ritsarlarining rus yerlariga hujumlarining sabab va oqibatlari nima edi?***
4. ***Rus knyazliklarida markazlashish jarayonlari qanday omillar asosida yuz berdi?***
5. ***Rus yerlarining ozod bo‘lishida Sohibqiron Amir Temurning qanday o‘rni va hissasi bor?***



Polsha qiroli Kazimir III

## 10-mavzu

# Bolqon mamlakatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Ikkinchi Bolgariya podshohligi: ijtimoiy-siyosiy hayot;
- Serbiya qirolligi;
- Chex davlati;
- Polshada ijtimoiy-siyosiy hayot;
- Vengriya davlatining tashkil topishi.

## IKKINCHI BOLGARIYA PODSHOHLIGI: IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT

Bolgariyaning Vizantiyaga qaramligi 1018-yildan 1187-yilgacha qariyb bir yuz yetmish yil davom etdi. 1187-yili kelib chiqishi zodagonlardan bo‘lgan **Asen** Vizantiyaga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi va Ikkinchi Bolgariya podshohligining birinchi hukmdori bo‘ldi. Uning vorisi Asen II davrida Bolgariya podshohligi siyosiy va iqtisodiy jihatdan gullab-yashnadi. Bu davrda Bolgariya Bolqon yarimorolidagi eng katta mamlakatga aylandi. Frakiya, Makedoniya, Epir va Fessaliyaning bir qismi Bolgariyaga qo‘shib olindi. Mamlakatda birinchi marotaba oltin pul zarb qilindi. Biroq keyingi hukmdorlar davrida Bolgariya siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaiflashdi. Ba’zi hududlar uning tarkibidan chiqib ketdi.



**ESLAB KO‘RING!**

- *Bolgariya podshohligi qachon tashkil topdi?*
- *Chexiya va Polsha davlatlari qanday tashkil topgan, asoschilari kimlar edi?*

XIII–XIV asrlarda Bolgariyada aholi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari bilan mashg‘ul edi. Bu yerda ip gazlamalar, turli temir va mis buyumlar, terini qayta oshlash, vinochilik va yog‘ ishlab chiqarilar edi. Yuqori sifatli bolgar terilaridan ishlangan oyoq kiyimlar G‘arb bozorlarida xaridorgir edi. Bolgar savdogarlari Dunay daryosi bo‘yida, Qora dengiz sohillari, G‘arbiy Yevropa hamda slavyan davlatlarida savdo ishlarini olib borganlar, Fransiyaning Flandriya va Shampan kabi mashhur yarmarkalarida qatnashganlar.

Bolgariyada zodagonlarning nufuzi yuqori edi. Ayrim hukmdorlar ham ular bilan hisoblashib ish yuritishga majbur edi. Yirik zodagonlar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar va tashqi hujumlarning barcha og‘irligi oddiy xalq zimmasiga tushar edi. Shunday sharoitda XIII asrning so‘nggi choragida Bolgariyada dehqonlarning tashqi kuchlar, zodagonlar va podshoh hokimiyatiga qarshi harakati bo‘lib o‘tdi.

XIV asrda Bolgariya Tirnovo, Vidin va Dobruja kabi uchta mustaqil davlatga bo‘linib ketdi. Mamlakatdagi siyosiy tarqoqlik natijasida 1396-yilda Ikkinchi Bolgariya podshohligi tugatildi. Mamlakat Usmoniy turklar davlatiga qaram bo‘lib qoldi. Bolgariyada turklarning hukmronligi XIX asrning ikkinchi yarmigacha davom etdi.

## SERBIYA QIROLLIGI

Serblar Bolqon yarimorolida istiqomat qiluvchi janubiy slavyanlar edi. Serbiya uzoq vaqt davomida Vizantiyaga qaram edi. XII asrda Serbiya siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lmagan bo‘lsa-da, biroq yirik davlatga aylandi. Davlatni Nemanya sulolasi vakillari idora etardi. Ushbu sulola vakili Stefan II davrida Serbiya Vizantiyadan mustaqil bo‘lib, qirollikka aylandi.

Qirol **Stefan Dushan** hukmronligi davrida (1331–1355) Serbiya Bolqon yarimorolidagi eng yirik va qudratli davlatlardan biri edi. Uning davrida mamlakat siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlandi. Maxsus qonunlar to‘plami qabul qilinib, aholi tabaqalarining huquq va burchlari, soliq yig‘ish va iqtisodiy munosabatlar belgilab berildi.





Stefan Dushan vafotidan keyin Serbiya podshohligi parchalanib ketdi. Mamlakat butun Bolqon yarimoroli-dagi boshqa davlatlar qatori Usmoniy turklar qaramligiga tusha boshladi. Serblar va Usmoniy turklar o‘rtasida 1389-yili Kosovo maydonidagi hal qiluv-chi jang bo‘lib o‘tdi. Jangda turk sultoni Murod I serb askari Milosh Obilich to-monidan o‘ldirildi. Biroq serblar Usmoniy turklar hujumiga bardosh bera olmadi. 1459-yilda Serbiyaning oxirgi hududi ham turklar tomonidan ishg‘ol etildi. Ser-biya uzoq vaqt butunlay Usmoniy turklar imperiyasi ta’sirida qoldi.

*Imperator Stefan Dushan va uning “Qonunlar to‘plami”*

## CHEX DAVLATI. GUSCHILAR HARAKATI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

XIII asrda Chexiya davlati Bogemiya deb ham atalgan va Markaziy Yevropadagi muhim mamlakatlardan biri edi. Boshqa Yevropa o‘lkalari singari bu yerda ham feodal munosabatlar hukm surar edi. Yirik zamindorlar, zodagonlar, shahar aholisi bilan bir qatorda qaram va erkin dehqonlar toifalari mavjud edi.

Mamlakatning o‘z qiroli bo‘lsa-da, siyosiy jihatdan nemis imperatorlariga bo‘y-sunar, ular bilan birga katolik cherkoviga ham soliq to‘lar edi.

Qirol **Pshemisl II** davrida Chexiya Yevro-padagi rivojlangan dav-latlardan biriga aylandi, hududi kengayib Adriati-ka dengizining janubiga-cha yetib bordi. U hatto nemis imperatorligiga o‘z nomzodini qo‘ydi. Biroq muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Qirol Yan Lyuksemburg davrida Chexiyada ruhoniylar, pan va harbiy-ritsarlar-dan iborat seym – vakillik yig‘inlari muntazam chaqiriladigan bo‘ldi.



*Pshemisl II ning taxtga o‘tirishi*

XIV asrda Chexiya iqtisodiy jihatdan yana-da rivojlanib bordi. Mahalliy sanoat va qishloq xo‘jaligining yuksalishi natijasida Chexiya Yevropaning eng boy mamlakatlaridan biri bo‘ldi. Praga yirik savdo markaziga aylandi. Biroq bu davrda Chexiyada ijtimoiy nizolar kuchayib bordi. Turli toifalar, ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar bilan birga diniy masalalarda ham norozi-lik avj olib borar edi. Chexiya katolik cherkoviga juda katta miqdorda soliq to‘lar-di, shuningdek, bu yerda indulgensiya savdosi ham avj olgan edi. Bu muam-molardan esa eng avvalo aholi jabr ko‘rar edi.

Bu kabi qiyinchiliklar xalq orasida noroziliklarni keltirib chiqardi. Praga universiteti professori **Yan Gus** katolik cherkovi hamda ruhoniylarning bunday qilmishlarini keskin tanqid qildi. Bu davrda ham saqlanib qolgan indulgensiya savdosini qoraladi, aholini diniy marosimlar uchun pul to‘lashdan qaytardi, ibodatlarni



*Yan Gus Konstansadagi yig‘ilishda*

chex tilida o‘tkazishni taklif qildi. Buning uchun chex tili grammatikasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, Chexiyaning o‘z cherkovi bo‘lishi va u papaga emas, qirolga bo‘ysunishi kerak edi. Uning da’vatlari aholi orasida keng tarqalib bordi. Bundan cho‘chigan Rim papasi va Praga cherkovi uni shakkoklikda aybladi, uning ibodat qilishini taqiqladi, professorlik va universitet rektorligidan ozod etdi. Shunga qaramay u maqsadidan qaytmadi.

Rim papasi Yan Gusni Germaniya janubidagi Konstansa shahrida bo‘lib o‘tadigan ruhoniylar yig‘ilishiga chaqirdi. Garchi, unga himoya yorlig‘i berilgan, shaxsiy daxlsizligi kafolatlangan bo‘lishiga qaramay, nohaq qamoqqa olindi va 1415-yili gulxanda yoqildi.

Yan Gusning o‘limi Chexiyada ommaviy norozilikka sabab bo‘ldi. 1419-yilda Pragada qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Isyonchilar o‘zlarini Yan Gus sharafiga **guschilar** deb atadilar. Qo‘zg‘olon natijasida qirol taxtdan ag‘darildi. Yangi qirol Sigizmund qo‘zg‘olonni bostira olmadi. Qo‘zg‘olonchilar unga bo‘ysunishni istashmadi. Natijada Chexiya 1419-yilda Germaniya imperiyasidan butunlay ajralib, mustaqil davlatga aylandi.

Biroq guschilar harakati ham ikki oqimga bo‘linib ketdi. Ular o‘rtasida o‘zaro qarama-qarshi fikrlar qo‘zg‘olonchilarning umumiy maqsadlarini yo‘qqa chiqardi. Guschilar harakati deb nomlangan xalq harakati 1434-yilda bostirildi. Biroq bu harakat keyinchalik butun Yevropada cherkov islohotlarining amalga oshirilishi va feodal tuzumning yemirilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Guschilar harakati Chexiyani deyarli yuz yil davom etgan Germaniya imperiyasiga qaramlikdan mustaqil davlatga aylantirdi. Chexiya keyinchalik Germaniya imperiyasi tarkibiga qayta kirdi. Biroq bu safar uning o‘z manfaatlarini ko‘zlagan talab va shartlari mavjud edi.

### BILAG‘ONLAR UCHUN

*Yan Gus – 1371-yilda Chexiyaning Gusines qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keldi.*

*Yan Gus 10 yoshga to‘lganda, ota-onasi uni monastirga yuborishdi. U izlanuvchan bola edi, buning natijasida barcha fanlardan yuqori baholar oldi. Shundan so‘ng, o‘qishni davom ettirish uchun Pragaga jo‘nadi. Praga universitetida ta’lim oldi. 1400-yilda u ruhoniy bo‘ldi, shundan so‘ng u va’z-go‘ylik faoliyatini boshladi.*

*1398-yilda Praga universiteti professori, 1402-yilda chexlar orasida birinchi bo‘lib shu universitet rektori bo‘ldi.*

*Yan Gus iqtidorli notiq bo‘lib, oddiy odamlar uchun tushunarli bo‘lgan chex tilida va’z qildi. U chex tili va madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning g‘oyalari Chexiya tarixini tubdan o‘zgartirgan guschilar harakatiga asos bo‘ldi. Yan Gus chex xalqining milliy qahramoniga aylandi. Mamlakatning turli hududlarida unga yodgorliklar o‘rnatildi.*



## POLSHADA IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT. TARQOQLIK VA BIRLASHUV JARAYONLARI

Butun Yevropada kechayotgan feodal munosabatlar Polshada ham yuz berayotgan edi. XIII–XIV asrlarda polyak dehqonlarining katta qismi shaxsiy erkinliklariga ega edi. Ammo yirik zodagon pan – qiroldan olgan yorlig‘iga ko‘ra erkin dehqonni sud qilish huquqiga ega edi. Harbiy maqsadlarda shaharlar, qo‘rg‘onlar, yo‘llar qurish va tozalash ishlari dehqonlarning davlat oldidagi majburiyati bo‘lgan. O‘ta qashshoqlashib qolgan aholi vakillari esa harbiy xizmatga jalb qilingan. Barcha dehqonlar cherkovga soliq to‘lar edi. Boshqa Yevropa mamlakatlariga qaraganda Polsha shaharlari hali uncha rivojlanmagan edi. Krakov, Gnezno, Poznan kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari hisoblangan.

960–1385-yillarda Polshani Piastlar sulolasi idora qildi. Knyaz Boleslav III davrida Polsha o‘nlab mayda viloyatlarga bo‘linib ketdi. Ayrim viloyatlar amalda mustaqil bo‘lib, o‘z hukmdorlariga ega edi. Bu esa mamlakatda siyosiy tarqoqlikka olib keldi. XIII–XIV asrlarda Polshada yirik yer egalari va zodagonlarning hukmronlik davri bo‘ldi. Parchalanish oqibatida mamlakatda qirollik unvoni va mavqeyi deyarli yo‘qoldi. Shuningdek, bu davrda mamlakatga tashqi hujumlar ham jiddiy xavf solib turdi. Tevton ordeni harbiylari tomonidan Prussiya va Pomoryening bosib olinishi Polshaning Boltiq dengiziga chiqish yo‘lini to‘sib qo‘ydi. Bunday vaziyatda mamlakatni birlashtirish eng muhim vazifa edi.

XIV asrning birinchi yarmida Polshada siyosiy birlashuv jarayonlari boshlandi. Knyaz Vladislav I birinchi bo‘lib Polshani birlashtirib, qirollik mavqeyini qayta tikladi. Uning o‘g‘li Kazimir III davrida Polshada qirollik eng qudratli hokimiyatga aylandi. Qirol Kazimir III mamlakatni markazlashtirish siyosatini olib bordi, markaziy idora tizimini qayta tikladi. Uning davrida mamlakat siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlana boshladi. Savdo-sotiq jonlandi, yangi yo‘llar, qishloqlar, shahar va qo‘rg‘onlar qurildi, pul-muomala tizimi tartibga solindi.

XV asrda Polshada butun mamlakat uchun yagona bo‘lgan umumtoifa vakillarining yig‘ini – ikki palatali seym tashkil etildi. Bu mamlakatning keyingi siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.



*Oltin bullaga qo‘yilgan muhr*

## VENGRIYA DAVLATINING TASHKIL TOPISHI, IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT

Vengerlar ugro-fin (ural) tillari guruhiga mansub xalqlar bo‘lib, Janubiy Ural tog‘lari etaklari, Dunay va Azov daryolari bo‘yi, Don dashtlarida istiqomat qilganlar. Vengerlar mojorlar ham deb atalgan. Dastlab ularning asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan bo‘lsa, X asrdan dehqonchilikni ham o‘zlashtirib oldilar.

Vengriya davlati IX asr oxirida janubi-sharqiy Yevropada tashkil topdi. Vengriyaning birinchi qiroli Arpad sulolasidan bo‘lgan qirol Ishtvan Buyuk (Yevropa adabiyotlarida Stefan shaklida uchraydi)

milodiy 1000-yilda toj kiydi. Uning davrida Vengriya xristian dinini qabul qildi, uning o‘zi mamlakatni birlashtirdi va papadan qirol unvonini oldi. U venger bo‘lmagan ko‘chmanchilarga ham bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘ldi. XIII asrda Vengriya butunlay feodal davlatga aylandi. Bu davrda Dunay va Tissa daryolari bo‘yida venger zodagonlari, ruhoniy va ritsarlarining yirik mulklari mavjud edi. Katta-katta hududlar va viloyatlarni ishpan deb ataluvchi (franklardagi graf) mansabdorlar idora qila boshladi. Bu mansab otadan bolaga vorislik asosida meros o‘tadigan bo‘ldi.

XIII asrda Vengriya gullab-yashnadi, hududi Adriatika sohillarigacha borib yetdi. Arpadlar sulolasidan bo‘lgan qirol Andrash II davrida Vengriyaning muhim huquqiy hujjati – **Oltin bulla** qabul qilindi. Ushbu tarixiy hujjat muarrixlar tomonidan Angliyada qabul qilingan “Erkinlikning buyuk xartiyasi”ga qiyoslanadi. Ushbu huquqiy hujjatda zodagonlar, ruhoniylar, harbiylar, shaharliklar hamda dehqonlarning huquq va burchlari belgilab berildi. Jumladan, ishpanlarning vakolatlari cheklandi, harbiy ritsarlar soliqlardan ozod etildi va davlat yig‘ilishlarida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdi.

1240-yilda Vengriya Botuxon boshliq mo‘g‘ullar tomonidan ishg‘ol etildi. Mamlakatning ko‘plab shahar va qishloqlari vayron qilindi. 1301-yilda Arpadlar sulolasi barham topdi. Mamlakat bir muddat hukmdorsiz qoldi. Nihoyat 1308-yilda Anjuy sulolasi vakillari taxtni egallashdi. Ushbu sulola vakili qirol Layosh davrida Vengriya qudratli davlatga aylandi. Hatto mamlakat hududi qo‘shni davlatlar hisobiga biroz kengaydi. Uning vafotidan keyin taxtda bir necha sulolalar almashdi. Keyinchalik butun mamlakat Usmoniy turklar va Avstriya Gabsburglar imperiyasiga bo‘ysundirildi.



*Qirol Ishtvan*

**ATAMALAR IZOHI**

***Pan*** *– Chexiya va Polsha davlatlarida feodal, yer egasi, xo‘jayin, janob ma’nolarini bildiradi.*

***Seym*** *– o‘rta asrlarda Chexiya va Polsha davlatlarida vakillik yig‘inlari – parlament shunday atalgan.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Ikkinchi Bolgariya podshohligi qanday yuzaga keldi?***
2. ***Serbiya qirolligida qanday ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yuz berdi?***
3. ***Guschilar harakati va uning tarixiy ahamiyati nimada edi?***
4. ***Polsha davlati hayotida qanday ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yuz berdi?***
5. ***Vengriya davlatining tashkil topishi va ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida mulohaza yuriting.***





# II BOB

# OSIYO, AFRIKA VA AMERIKA XALQLARI







Hukmdor Usmon I

## 11-mavzu

# Uch qit’ani birlashtirgan sultonlik (Usmoniy turklar davlati)

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Usmon beyligining vujudga kelishi va uning mustaqil davlatga aylanishi;
- Sultonlarning harbiy yurishlari, Bolqondagi istilolar;
- Davlat boshqaruvi, yer egaligi, soliq va majburiyatlar;
- Amir Temur va Boyazid munosabatlari, Anqara jangi;
- Konstantinopolning egallanishi va Vizantiya imperiyasining qulashi.

## BEYLIKNING TASHKIL TOPISHI

Saljuqiylar davlati parchalangach uning Anatoliya (Onado‘li)dagi mulklari bir nechta mayda beyliklarga bo‘linib ketadi. Ulardan biri Kichik Osiyoning shimoli-g‘arbida joylashgan Usmon beyligi edi. Beylikning ilk hukmdori Erto‘g‘rul bo‘lsa ham, ammo uning o‘g‘li Usmonbey davrida beylik mustaqil davlatga aylanganligi uchun uning nomi bilan Usmon beyligi deb atalgan. Keyinchalik bu davlat Usmoniylar imperiyasi nomini olib, o‘rta asrlarda jahonning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Usmonning ajdodlari o‘g‘uz qabilasidan bo‘lib, O‘rta Osiyodan Anatoliyaga ko‘chib kelishgan. Erto‘g‘rul boshchiligidagi qabila saljuqiy sulton Alouddin Qayqubod II dan ruxsat olib Vizantiya chegarasidagi Eskishaharga joylashadi. Erto‘g‘rul tez orada beylik yerlarini Vizantiyaga chegaradosh hududlar hisobiga kengaytiradi. Erto‘g‘rul vafotidan so‘ng, uning o‘g‘li **Usmon I** (1299–1326) beylikka boshchilik qiladi.



**BUNI YODDA SAQLANG!**

***Usmoniy turklar davlati*** *– Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrim hududlarini egallab, “uch qit’ani birlashtirgan davlat” hisoblanadi. Davlatning asoschisi – Usmon I.*

## MAMLAKAT HUDUDINING KENGAYISHI

Vizantiya imperiyasi Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turuvchi hamda Yevropaga istilolar uchun tayanch hududda joylashganligi bois Usmon asosiy e’tiborini Vizantiya imperiyasiga qarashli yerlarni bo‘ysundirishga qaratadi. Uning imperiyaga qilgan dastlabki muvaffaqiyatli yurishi 1291-yilda Melangiyani zabt etish bo‘ldi. Vizantiyaning bu mo‘jaz shaharchasini Usmon o‘ziga qarorgoh qilib olib, bu yerga Garmiyon va Anatoliyaning boshqa hududlaridan aholini ko‘chirib joylashtiradi. Natijada Usmon saljuq sultonlaridan beyligini tasdiqlovchi nog‘ora va tug‘ olib, 1299-yilda o‘ziga tegishli beylik yerlarini mustaqil davlat deb e’lon qiladi hamda **Usmoniylar davlati**ga asos soladi.

Vizantiyada taxt uchun kurashning boshlanishi turklarning imperiyaga yurishlarini osonlashtirib, Usmon davrida Bursa shahri va uning atroflari, uning o‘g‘li O‘rxon davrida esa Nikeya va Nikomediya shaharlarini bosib olishga imkon beradi. Shu tariqa XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida Usmoniylar davlati o‘z hududini sezilarli darajada kengaytirib oladi.

## HARBIY ISLOHOTLAR, MUNTAZAM QO‘SHINNING TUZILISHI

Usmoniylarning harbiy qudrati yaxshi tashkil etilgan otliq, piyoda, yanichar qo‘shini hamda dengiz flotining mavjudligida edi. Sultonlar qo‘shinni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratganlar. Xususan, O‘rxon davrida harbiy islohot o‘tkazilib, piyoda bo‘linma – **yayov** va otliq qo‘shin – **musallam**dan iborat doimiy qo‘shin tashkil etiladi. Piyoda jangchilar urushda qatnashgan paytda umumiy o‘ljadan ulush tekkan bo‘lsa, tinchlik paytida soliqlardan ozod qilingan holda ekinzorlarda mehnat qilishardi.





### BILAG‘ONLAR UCHUN

*Yanicharlar qo‘shini asir olingan Bolqon yarimoroli aholisining 8–16 yoshli sog‘lom va baquvvat xristian bolalaridan tashkil etilgan. Dastlab o‘g‘il bolalar turkiy oilalar tarbiyasiga yuborilgan, ular islom dinini qabul qilib, u yerda turk tili, islom dini va harbiy ishlarning asoslarini o‘rganganlar. Keyin yigitlar o‘quv binolariga yuborilib, kamida olti yil amaldorlar nazorati ostida tahsil olishgan. Ular xattotlik, huquq, ilohiyot, adabiyot va tillarni ham o‘rganganlar. Turklar ularga jang san’atining sir-asrorlari bilan birga harbiy qurollarning ko‘p turlaridan foydalanishni ham o‘rgatib, bolalarni juda qattiq tartib-intizom va tinimsiz harbiy mashg‘ulotlar orqali asl navkarga aylantirishar edi. Yillar o‘tib bolalar o‘z tilini va dinini unutib, sultonning sodiq yanicharlariga aylangan. Ular doimo harbiy qarorgohda yashab, davlat xazinasidan maosh olib turganlar.*

Otliq qo‘shinning har bir suvoriysiga esa yetarlicha daromad keltiradigan yer-mulk – *tumori* berilgan. Natijada otliq qo‘shin soni 150 minggacha yetgan. 1365-yilda sulton **Murod I** (1362–1389) tomonidan turk armiyasining zarbdor bo‘linmasi – yanichar (yangi qo‘shin) qo‘shini ham tuziladi. Yanicharlar harbiy sohada nihoyatda mohir bo‘lib, shamshir, doira shaklidagi qalqon, xanjar, ikki tig‘li boltacha, kamon va o‘q-yoy, keyinchalik o‘qotar qurollar bilan qurollanishgan. Yanicharlar bo‘linmasi mirshablik, xavfsizlikni ta’minlash, o‘t o‘chirish va kerak bo‘lsa jazolash vazifalarini ham bajargan. Sultonlar doimo o‘zining sodiq yanicharlari bilan jangga kirar, ularning jangga kirishi vaziyatni butunlay o‘zgartirib, aksar hollarda turk qo‘shinlarining g‘alabasini ta’minlagan.

## BOLQON YARIMOROLIDAGI ISTILOLAR

Usmoniylar istilosiga qadar Bolqon yarimorolida Vizantiya, Albaniya, Bolgariya, Bosniya va Serbiya kabi yirik davlatlar mavjud edi. Ammo siyosiy tarqoqlik va ichki ziddiyatlar bu davlatlarning turklar istilosiga qarshi birlashuviga imkon bermadi. 1352–1354-yillarda Yevropadagi dastlabki yurishlarni boshlagan turklar Bolqonning bir qismini egallab, Yevropa hududida yangi Rum eli (Rumeliya) viloyatini ta’sis etadilar. Sulton Murod I qo‘shinlari vizantiyaliklarni Adrianopol ostonalarida tor-mor etib, shaharni batamom mudofaasiz qoldirishadi. Natijada 1362-yilda Adrianopol shahri egallanib, unga Edirna deb nom beriladi hamda mamlakat poytaxtiga aylantiriladi. 1389-yil Serbiyaga yurish boshlagan Sulton Murod I Kosovo maydonida bo‘lgan jangda g‘alaba qozonishi bilan turklar Bolqonning yakka xo‘jayiniga aylanishadi. Serbiyaga yurish vaqtida Murod I vafot etib taxtga o‘g‘li **Boyazid** (1389–1402) o‘tiradi. U qisqa vaqt ichida Bolgariya va Grek knyazliklarini bo‘ysundirib, Albaniyaning bir qismini egallaydi. Shuningdek, Anatoliyaning g‘arbiy va markaziy qismidagi turk beyliklarini ham tobe qiladi. Sultonning Konstantinopolni qamal qilishi Yevropani sarosimaga solib qo‘yadi.

## AMIR TEMUR VA BOYAZID MUNOSABATLARI

Bu davrda o‘z saltanatining hududlarini g‘arbga tomon kengaytirib kelayotgan Amir Temur davlatining chegaralari Kichik Osiyoga yaqinlashib qoladi. Sohibqironning Usmoniylar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga harakat qilishiga qaramay Boyazidning Amir Temurga qarshi ayirmachilar harakatini qo‘llab-quvvatlaganligi ikki buyuk hukmdor to‘qnashuvini muqarrar qilib qo‘yadi. Oqibatda 1402-yilning iyulida Anqara yaqinida jang bo‘lib, Boyazid yengiladi va asir olinadi. Sohibqiron Usmoniylar mulklarini Boyazidning o‘g‘illariga bo‘lib beradi.




## KONSTANTINOPOLNING EGALLANISHI VA VIZANTIYA IMPERIYASINING QULASHI



*Mehmed II tomonidan Konstantinopolning ishg‘ol etilishi. 1453-yil*

Sulton Boyazidning vafotidan so‘ng o‘g‘li sulton **Mehmed I** (1413–1421) taxtga chiqib, tez orada Usmoniylar harbiy qudratini qayta tiklaydi va Vizantiya imperiyasini bo‘ysundirish uchun kurash boshlaydi. Usmoniylar Sulton Murod II davrida Konstantinopolni bir necha marta qamal qiladilar. Ammo mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralib, quruqlikdan va dengizdan yaxshi himoyalangan bu shaharni egallash sulton **Mehmed II** (1451–1481)ga nasib qiladi. Yurishga tayyorgarlik ko‘rayotgan turklar og‘ir artilleriyaga alohida e’tibor qaratadilar. Shu bilan birga, ular Vizantiya poytaxti taqdirini hal qiladigan katta flot yaratadilar. Natijada Konstantinopol ikki oylik qamaldan so‘ng 1453-yil 29-may kuni egallanadi. Jangda Vizantiyaning so‘nggi imperatori halok bo‘lib, Sharqiy Rim imperiyasi ham qulaydi. Usmoniylar Konstantinopol shahrini Istanbul deb nomlab, unga o‘z poytaxtini ko‘chiradi. Shahardagi mashhur Avliyo Sofiya ibodatxonasi Ayo Sofiya deb nomlanib, sultonning asosiy masjidiga aylantiriladi.

### O‘YLANG VA XULOSA QILING!

*Aziz o‘quvchilar, o‘ylab ko‘ringchi, nima sababdan ko‘plab hukmdorlar, shuningdek, turk sultonlari ham Konstantinopolni egallashga harakat qilganlar?*



## DAVLAT BOSHQARUVI

Dastlab Usmoniylarning boshqaruv tizimi juda sodda bo‘lib, bey unvoni qabila boshliqlari yig‘inida berilgan. Bey birinchi navbatda harbiy boshliq sifatida harakat qilishi va harbiy yurishlarni tashkil qilishi kerak bo‘lgan. Bey egallangan shahar va qal’alarning hukmdorligiga o‘zining yaqinlari va qarindoshlarini tayinlagan. Beylikning kuchayib borishi uning boshqaruvida ham o‘zgarishlarga olib keladi. Natijada O‘rxon davrida ilk bor vazir lavozimi ta’sis etiladi. Davlat yerlari ma’muriy birliklarga bo‘linadi va **Bursa** shahri poytaxtga aylantirilib, 1327-yilda shaharda birinchi marta kumush tanga zarb qilinadi. Davlat boshqaruv tizimini takomillashtirishda musulmon ruhoniylarining o‘rni katta bo‘lib, O‘rxon davrida islom ulamolarini boshqaruvchi va qozi sifatida jalb qila boshladilar. Shuningdek, sultonlar mamlakatni boshqarishda asosan shaharlarda mavjud bo‘lgan hunarmandlar uyushmalari bilan ham faol hamkorlik qiladilar.





*Usmoniylar imperiyasi tangasi*

Mamlakat hududi kengaya borib, beylik yirik markazlashgan davlatga aylanishi natijasida beyning hokimiyati ham kuchayib boradi. Natijada mamlakat mutlaq monarxiyaga aylanib, uni cheklanmagan vakolatga ega hukmdor boshqara boshlaydi. O‘rxonning o‘g‘li **Murod I** davridan boshlab hukmdorlar **sulton** deb ataladi. Sulton hukumat rahbari, qo‘shinning bosh qo‘mondoni va oliy qozi hisoblangan. Sulton Salim I tomonidan Misr bosib olingach, Qohiradagi xalifa taxtni unga topshiradi. Shu tariqa Usmoniylar saltanati xalifalik markazi, sultonlar esa barcha musulmonlarning yagona xalifasi bo‘lib qoladi. Usmoniylar davlati musulmonlar nomidan ish ko‘rar, musulmon diyori bo‘lgan boshqa biror yerda xalifalik yo‘q edi. Shuning uchun Usmoniylar musulmonlarning ramzi bo‘lgan, ularga ehtirom bilan qaralgan.

## YER EGALIGI, SOLIQ VA MAJBURIYATLAR

Usmoniylar davlatida yerga egalik qilishning shakllari qo‘shni xalqlar va davlatlarnikiga o‘xshash bo‘lib, mulk yerlari, harbiylar mulki hamda vaqf yerlari mavjud bo‘lgan. Mamlakat hududining kengayishi yer egaligining harbiy-mulk tizimining shakllanishiga yordam bergan. Sultonlar bosib olingan o‘lkalardagi yer-mulklarni harbiylar va amaldorlarga **iqto** tarzida taqsimlab berganlar, keyinchalik esa ularning bir qismi xususiy mol-mulk tarzida meros qilib berilgan. Mamlakatdagi hukmron tabaqaning asosiy qismi Kichik Osiyodagi mahalliy zodagonlar bo‘lib, ular o‘z mulklarini saqlab qolish niyatida Usmoniylarning xizmatiga o‘tishgan. XIV asrdan boshlab **vaqf mulklari** ham keng tarqalib, sultonlikdagi barcha ekin yerlarining uchdan bir qismini tashkil qilgan. Usmoniy hukmdorlar yerlarni taqsimlay boshlaganlarida qishloq aholisi yangi yer egalariga – turk harbiy feodal zodagonlariga qaram bo‘lib qolishgan. Barcha yerlarga dehqonlar tomonidan ishlov berilib, ular hosilning ma’lum bir qismini ijara haqi uchun yer egalariga berganlar. Shuningdek, aholi tegirmon solig‘i, chorva mollari solig‘i, yer solig‘i kabi har xil turdagi soliqlarni to‘lashgan.

## XV ASR OXIRI – XVI ASR BOSHLARIDA USMONIYLAR IMPERIYASINING KENGAYISHI

XV asrning ikkinchi yarmida Usmoniylar Kichik Osiyoda katta harbiy muvaffaqiyatlarga erishib, bu yerdagi barcha beyliklar ustidan hukmronlik o‘rnatishadi. XVI asrning boshlarida esa Bolqon yarimoroli, janubi-sharqiy Anatoliya, Arabiston yarimoroli hamda Shimoliy Afrikadagi egallagan yerlar hisobiga mamlakat hududi deyarli ikki barobar kengayib, uch qit’ada Usmoniylar hukmronligi o‘rnatiladi.

**ATAMALAR IZOHI**

***Rum eli (Rumeliya)*** *– XIV–XV asrlarda Usmoniy turklar imperiyasi tomonidan Bolqon yarimorolidagi bosib olingan yerlarning umumiy nomi.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Usmoniylarning kelib chiqishi haqida nimalarni bilib oldingiz, ularning asl vatani qayer ekan?***
2. ***Usmoniylar harbiy qudrati va harbiy yurishlardagi muvaffaqiyatlarining siri nimada deb o‘ylaysiz?***
3. ***Davlat boshqaruvi haqida nimalarni bilib oldingiz, sultonlarni nega butun musulmonlarning yetakchisi deb hisoblashgan?***
4. ***Mamlakatdagi yer egaligi munosabatlarining afzalligi nimada, qanday qilib yer-mulk tizimi turk istilolarining yanada kengayishiga xizmat qilgan?***
5. ***Usmoniylar davlati qay tariqa kichik bir beylikdan ulkan imperiyaga aylandi?***



*Kumush dirham*

## 12-mavzu

# O‘rta asrlarda Eron

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Eronda ijtimoiy-siyosiy vaziyat;**
- **Mo‘g‘ullar istilosi va ularga qarshi qo‘zg‘olonlar;**
- **Hulokuiylar (Elxoniylar), Sarbadorlar, Muzaffariylar, Jaloyiriylar, Qora qo‘yunlilar hamda Oq qo‘yunlilar davlatlari.**

## ERONDA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MO‘G‘ULLAR ISTILOSI




*Hulokuning faoliyat davri*

Arab xalifaligi parchalangach, Xuroson va Eronda Tohiriylar, Safforiylar, XI asr o‘rtalaridan Saljuqiy turklar o‘z hukmronligini o‘rnatadilar. O‘zaro kurashlar va qabilalar isyoni natijasida Saljuqiylar hukmronligi zaiflashib qolgach, Xorazmshohlar davlati 1194-yilda Eronni egallab, uni Xorazmga qo‘shib oladi. Ammo Xorazmshohlar hukmronligi ham uzoqqa bormay, tez orada Eron mo‘g‘ullar bosqiniga uchraydi.

Movarounnahr bosqinidan so‘ng Chingizxonning to‘rtinchi o‘g‘li Tulu boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Eron hududiga bostirib kirib Marv, Niso, Sabzavor, Nishopur va Tus shaharlarini egallaydilar. Ammo bu yerda ular Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchraydilar. Jaloliddin vafot etganidan keyingina mo‘g‘ullar Tabriz va Isfahonni zabt etishadi. XIII asrning 50-yillariga kelib Xuroson, Seyiston, Mozandaron, Fors Irog‘i (Iroqi Ajam) va Ozarbayjon mo‘g‘ullar qo‘liga o‘tib, faqatgina Eronning janubi va janubi-g‘arbidagi bir nechta mulklargina o‘z mustaqilligini saqlab qoladi.

## HULOKUIYLAR (ELXONIYLAR) DAVLATI

Mo‘g‘ul xoni Munke topshirig‘iga ko‘ra Huloku 1256-yilda 70 ming qo‘shin bilan Eronni to‘liq bosib oladi va bu yerda Hulokuiylar davlatiga asos soladi. Ulug‘ xon Munke tomonidan Huloku bosib olingan yurtlar hukmdori deb tan olinib, unga **elxon** (ulus xoni) unvoni beriladi. Shu tariqa **Hulokuiylar davlati**da hukmdorlar elxon deb nomlanib, Elxoniylar davlati deb ham atalgan. Elxonlar mamlakatni turk-mo‘g‘ul zodagonlari hamda mahalliy musulmon amaldorlariga tayanib boshqarganlar. Hulokuiylar davlatiga Erondan tashqari Afg‘oniston, Turkmanistonning katta qismi, Kavkazorti, Iroq va Kichik Osiyoning sharqiy qismi kirgan.

Mo‘g‘ullarning istilosi oqibatida yirik shaharlar, hunarmandchilik va savdo markazlari vayron qilindi, suv inshootlari buzib tashlandi. Dehqonchilik yerlarini yaylovga aylantirishdi.



Aholi og‘ir soliqlar to‘lashga majbur qilinib, dehqonlarga tegishli mahsulotlarning katta qismi ham tortib olindi. Soliqlar tufayli qarzdor bo‘lgan ko‘plab oilalar qul qilib sotib yuborildi. Mamlakatdagi vayronagarchiliklar tufayli dehqonlar o‘z yerlarini tashlab keta boshladilar. Natijada xalqning noroziligi kuchayib, og‘ir zulm va mamlakat ozodligi uchun kurashuvchi qo‘zg‘olonchi guruhlar vujudga keldi.

## IJTIMOIY-SIYOSIY ISLOHOTLAR



*G‘ozonxonning islom dinini qabul qilishi*

Iqtisodiy inqiroz va xalq noroziligining kuchayishi natijasida elxonlar islohotlar o‘tkazish zarurligini anglashgan. Islohot uchun urinishlar yettinchi elxon **G‘ozonxon** (1295–1304) va uning vaziri, qomusiy olim Rashiduddin faoliyati bilan bog‘liq. G‘ozonxon davrida mamlakat ahvolini yaxshilash maqsadida ma’muriy va iqtisodiy islohotlar o‘tkazilib, asosiy e’tibor davlatni markazlashtirishga, soliq tizimini tartibga solishga qaratilgan. G‘ozonxon islom dinini qabul qilgach, 1295-yili qurultoyda islomni davlat dini deb e’lon qiladi. Bu esa elxonning musulmon a’yonlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga olib keladi. G‘ozonxon pul islohoti o‘tkazib, 2,15 grammli kumush dirham, 12,9 grammli oltin dinor tangalar zarb qildirgan. Bu pul tizimi qulayligi sababli keyinchalik Chig‘atoy ulusida ham joriy qilinadi.

G‘ozonxon islohotlari sababli mamlakat xo‘jaligi birmuncha yaxshilandi. Biroq katta yer egalarining soliq to‘lashdan bosh tortib, mustaqillikka intilishi mamlakatning iqtisodiy ahvolini yomonlashtirib, markaziy hokimiyat kuchsizlana boshladi. Elxon Abu Said vafotidan so‘ng Hulokuiylar davlatida yagona hukmdor qolmadi. Turli viloyatlarda alohida-alohida elxonlar hukmronlik qila boshladi. XIV asrning 30-yillaridan boshlab ular o‘rtasidagi kurash hamda sarbadorlar qo‘zg‘oloni natijasida Hulokuiylar davlati bir necha mustaqil davlatlar (Muzaffariylar, Jaloyiriylar va boshqalar)ga bo‘linib ketdi. Xurosonning sharqiy qismidagina 1353-yilgacha elxonlar hokimiyati saqlanib qoldi xolos.

## SARBADORLAR HARAKATI

1337-yilda Xurosonning Sabzavor shahri yaqinidagi Boshtin qishlog‘ida mo‘g‘ullar va yirik mulkdorlar zulmiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Isyonchilar o‘zlarini **“sarbadorlar”**, ya’ni boshini dorga tikkanlar deb ataganlar. Qo‘zg‘olonga mayda mahalliy zamindorlar rahbarlik qiladi. Isyonchilar Sabzavor va Xuroson yerlarini egallab, bu yerda o‘z davlatlarini tuzadilar. Sarbadorlar rahbarlari aholining ahvolini yaxshilashga qaratilgan bir qator islohotlar ham o‘tkazadilar. Xususan, xiroj solig‘i hosilning 1/3 foizi miqdorida olinishi belgilanadi. Sarbadorlarning yetakchilari Vojihiddin Mas’ud sulton unvonini oladi. Dehqonlarni o‘ziga og‘dirish uchun ulardan 12 ming kishilik qo‘shin tuzib, ularni doimiy maosh bilan ta’minlaydi. Sarbadorlar ichida birlik yo‘q bo‘lib, ular davlat boshqaruvini yuqori tabaqa vakillariga topshirish tarafdori bo‘lgan hamda tenglik asosida dehqon va hunarmandlar boshqaruvidagi davlat tuzishni xohlovchi guruhlarga bo‘linadi. Shuningdek, qo‘zg‘olon rahbarlarining taxt uchun o‘zaro kurashi, ularning ruhoniylar bilan kelishmovchiligi davlatni zaiflashtiradi. Natijada Amir Temur 1381-yilda Sabzavorni egallab, Sarbadorlar davlatiga barham beradi.



*Muzaffariylar tanga puli*

## MUZAFFARIYLAR DAVLATI

Muzaffariylar davlatiga mo‘g‘ullarning Yazd shahridagi noibi **Muboriziddin Muhammad ibn Muzaffar** (1314–1358) asos solgan. Mamlakat poytaxti Sheroz shahri bo‘lgan. Muzaffariylar dastlab Xurosonga o‘rnashib, keyinchalik mo‘g‘ullar bosqini natijasida Yazdga ko‘chib boradi va elxoniylarga tobe bo‘lib qoladi. Muzaffariylardan birinchi bo‘lib Muboriziddin Muhammad mustaqillik harakatini boshlaydi. U Hulokuiylar davlati inqirozga uchraganidan foydalanib, Kirmon, Fors va Isfahon viloyatlarini o‘z davlatiga qo‘shib oladi hamda Janubiy Eronda o‘z hukmronligini o‘rnatadi. Ammo sulola vakillarining davlat mulklarini bo‘lib olish uchun boshlagan o‘zaro urushlari tufayli mamlakat zaiflashib qoladi. 1387–1393-yillarda Amir Temur Janubiy Eronni egallab, Muzaffariylar davlati tugatiladi.

## JALOYIRIYLAR DAVLATI

Jaloyiriylar turkiy xalqlardan biri bo‘lib, ular Mo‘g‘ulistondagi Onon va Kerulen daryolari bo‘yida yashaganlar. Keyinchalik esa Yettisuv va Movarounnahrning ayrim viloyatlariga ko‘chib kelib o‘rnashadilar. Mo‘g‘ullar bosqini natijasida ularning katta bir guruhi Ozarbayjon va Iroqqa kelib joylashib, Erondagi elxoniylarga tobe bo‘lib qoladilar. Hulokuiylar davlati yemirilgach, **shayx Hasan Buzurg** 1340-yilda o‘zini sulton deb e’lon qilib, Jaloyiriylar davlatiga asos soladi. Bag‘dod shahrini poytaxtga aylantiradi. Jaloyiriylar davlati sulton **Uvays I** davrida (1356–1374) juda yuksaladi. Ammo Sulton Uvaysning to‘rtinchi o‘g‘li Ahmad davrida Jaloyiriylar davlatiga qo‘shni mamlakatlarning tahdidlari kuchayib ketadi. Amir Temur Tabriz va Bag‘dodni egallagach, Jaloyiriylar Temuriylar davlatiga tobe bo‘lib qoladi. Sohibqiron Eronni egallash orqali bu yerdagi siyosiy tarqoqlikka barham berish bilan birga ayirmachilik harakatlariga ham chek qo‘yadi. Amir Temur vafot etgach Jaloyiriylarning Bag‘dodda hokimiyati qayta tiklanadi. Biroq XV asrning 30-yillarida Qora qo‘yunlilar tomonidan Jaloyiriylar davlati butunlay tugatiladi.



*Bag‘dod shahri*

## QORA QO‘YUNLILAR VA OQ QO‘YUNLILAR DAVLATI



*Oq qo‘yunlilar davlati bayrog‘i*

**Qora qo‘yunlilar** ko‘chmanchi turkman qabilalari ittifoqi bo‘lib, Van ko‘lining sharqiy qismida yashaganlar. Ularning yo‘lboshchisi **Qora Yusuf** 1387-yilda Tabrizni egallab, mustaqil harakat qila boshlaydi. Ammo Amir Temurdan yengilib, Misr sultoni Barquq qarorgohidan panoh topadi. Amir Temur vafot etgach Ahmad Jaloyiriy bilan ittifoq tuzib temuriylarga qarshi kurashni davom ettiradi. Qora Yusuf dastlab temuriyzoda Abu Bakr, so‘ngra Mironshoh qo‘shinini ham mag‘lubiyatga uchratadi. 1410-yilda Tabriz va Bag‘dodni egallab, Qora qo‘yunlilar davlatiga asos soladi.

Qora Yusuf va Iskandar davrida Qora qo‘yunlilar temuriylar va shirvonshohlar bilan urushlar olib boradilar. 1435-yil Shohrux Mirzo Qora qo‘yunlilar qo‘shinini tor-mor keltirib, ularni tobe qiladi. 1468-yilda asosiy raqiblardan Uzun Hasan Qora qo‘yunlilarni yengib, ularga tegishli barcha hududlarni egallaydi. Shu tariqa Qora qo‘yunlilar davlati tugatiladi.



*Qora qo‘yunlilar davlati bayrog‘i*

**Oq qo‘yunlilar** XIV–XV asrlarda Dajla daryosining yuqori oqimida yashagan turkman qabilalarining ittifoqi bo‘lib, keyinchalik Anatoliyaga kelib o‘rnashadilar. Ular **Uzun Hasan** (1453–1478) boshchiligida Qora qo‘yunlilarni mag‘lub etib, poytaxti Tabriz bo‘lgan Oq qo‘yunlilar davlatiga asos soladi. Oq qo‘yunli davlati hududiga G‘arbiy Eron, Kurdiston, Xuziston, Fors, Kirmon hamda Armaniston va Ozarbayjonning bir qismi kirgan. Oq qo‘yunlilarning G‘arbiy Eronni bosib olishi, temuriylar bilan munosabatlarni keskinlashtiradi. 1469-yili yuz bergan jangda Uzun Hasan g‘alaba qozonib, temuriy sulton Abu Said halok bo‘ladi. Ammo Oq qo‘yunlilar Usmoniylarga qarshi kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Shuningdek, hukmdorlarning davlatni saqlab qolish uchun zodagonlarga qarshi kurashi Oq qo‘yunlilar davlatini markazi Tabriz va Isfahonda bo‘lgan ikki qismga bo‘linib ketishiga olib keladi.

XV asrda Eron ko‘chmanchi harbiy zodagonlar hukmronlik qilgan mo‘rt va iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan kichik davlatlardan iborat edi. Mamlakatning bir necha o‘lkalarga parchalanib ketishi hamda yirik mulkdorlar o‘rtasidagi nizolar iqtisodiy tanazzulga sabab bo‘ladi. Bu holat feodal tarqoqlikni tugatib, mamlakatni markazlashtirish orqali uni taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni taqozo qila boshlaydi. Shunday vaziyatda Janubiy Ozarbayjonning Ardabil shahrida badavlat yer egalari bo‘lgan Safaviylarning ta’siri kuchaya bordi. Natijada XVI asrning boshida Safaviylar Oq qo‘yunlilarning asosiy kuchlarini mag‘lub etib, Eronni yagona davlatga birlashtiradi.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Mo‘g‘ullar bosqiniga qadar Eronda qaysi davlatlar hukmronlik qilgan?***
2. ***Elxoniylar davlati boshqaruvi, yer egaligi munosabatlari, soliqlar va majburiyatlar haqida nimalarni bilib oldingiz?***
3. ***Xalq qo‘zg‘olonlari, Sarbadorlar davlatining vujudga kelishi, ularning g‘oyalari va o‘tkazgan islohotlariga sizning fikringiz qanday?***
4. ***Erondagi ayirmachi davlatlar va ularning temuriylar bilan munosabatlari qanday kechdi?***



## 13-mavzu

# Oltin O‘rda xonligi

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Oltin O‘rda davlatining tashkil topishi, davlat boshqaruv tizimi;**
- **Tashqi siyosat, rus knyazliklari va Amir Temur bilan munosabatlari;**
- **Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, soliq va majburiyatlar;**
- **Oltin O‘rdaning yuksalishi hamda inqirozga uchrashi.**



## OLTIN O‘RDANING TASHKIL TOPISHI



### ESLAB KO‘RING!

*Chingizxonning nechta o‘g‘li bor edi? U o‘g‘illariga bosib olingan yerlarni qachon va qanday shaklda bo‘lib bergan edi? Buning natijasida mo‘g‘ullar davlatida qanday ma’muriy birlik vujudga keldi?*

Oltin O‘rda davlati Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘ji ulusi hududida tashkil topgan. Chingizxon davlatni o‘g‘illari o‘rtasida taqsimlagan paytda Jo‘jiga eng katta hududlar berilib, u g‘arbda Irtish daryosidan sharqda Volgabo‘yiga qadar cho‘zilib, Dashti Qipchoq, Shimoliy Xorazm, Amudaryo va Sirdaryoning quyi etaklarini o‘z ichiga olgan holda Jo‘ji ulusi tashkil topgan. Jo‘ji vafot etgach uning o‘g‘li Botuxon ulus yerlarini kengaytirish maqsadida harbiy yurishlarni boshlab yuboradi.

Botuxon 1237–1242-yillarda Rus va Sharqiy Yevropada juda katta istilolarni amalga oshiradi, xususan, Polsha, qisman Serbiya va Bolgariyani bo‘ysundiradi. Keyinchalik Chexiya va Vengriyaga ham bostirib kiradi. Shu tariqa katta hududlarni bosib olgan Botuxon XIII asrning 40-yillari boshida Volga bulg‘orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim, G‘arbiy Sibir hududlarini o‘z ichiga olgan Oltin O‘rda davlatiga asos soladi. Rus knyazlari Oltin O‘rdaga qaram bo‘lib, soliq to‘lab turadilar. Bu mamlakat rus manbalarida Oltin O‘rda, Sharq manbalarida esa **Jo‘ji ulusi** deb atalgan.

## BOSHQARUV TIZIMI

Oltin O‘rdani xon boshqargan. Xonlar faqat chingiziylar urug‘idan va Jo‘ji avlodlaridan bo‘lishi shart edi. Xonni saylash masalasi zodagonlar yig‘ini – *qurultoyda* hal etilgan. Saylangan xon oq kigizda ko‘tarilib, taxtga o‘tqizilgan, so‘ngra unga oltin qilich topshirilgan. Qurultoyda urush va tinchlik masalasi, uluslarning chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hamda yirik feodallar o‘rtasidagi nizolar masalalari ham muhokama qilingan. Ijro hokimiyati boshlig‘i **beklarbegi** hisoblangan va davlat ishlari bilan shug‘ullangan. Oliy amaldor **vazir** bo‘lib, u Devonxonaga rahbarlik qilgan. Uning boshchiligidagi devon soliq, moliya va savdo ishlariga mas’ul bo‘lgan.

Oltin O‘rdaning hukmron qatlami asosan mo‘g‘ullardan, qisman qipchoqlardan iborat bo‘lsa-da, Eron va arab davlatlaridan kelgan bilimli kishilar ham ma’muriy lavozimlarda ishlaganlar. Viloyat va shaharlarga hokim qilib **dorug‘alar** yuborilgan.

Bo‘ysundirilgan hududlarda mo‘g‘ullar dastlab o‘zlarining an’anaviy boshqaruv tizimini joriy etganlar. Egallangan hududlar Botuning ukalariga berilib, ularning suyurg‘ol mulkiga aylangan. Suyurg‘ol egalari xon qo‘shiniga ma’lum miqdordagi jangchilarni jo‘natishdan tashqari, unga aholidan to‘plangan soliqlarning bir qismini ham yuborgan.

Oltin O‘rda qo‘shinini beklarbegi boshqargan. Qo‘shin bir nechta qismlarga bo‘linib, unga tumanbegi, no‘yon, yuzboshilar qo‘mondonlik qilganlar. Qo‘shinning asosiy kuchi *“yurishda yengil, zarbada og‘ir”* hisoblangan otliqlar edi. Mamlakatning harbiy qudrati O‘zbekxon davrida eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi, uning qo‘shini 300 ming jangchidan oshgan. XIV asr oxirida O‘rda armiyasi hatto o‘z artilleriyasiga ega bo‘lishni boshlagan.





*Oltin O‘rda davlatining oltin pullari va zargarlik buyumlari*



### BILAG‘ONLAR UCHUN

***“Oltin O‘rda” –*** *“O‘rda” atamasi qarorgoh, chodir ma’nosini anglatib, Oltin O‘rda xonlarining qarorgohi yoki chodiriga nisbatan ishlatilgan. Oltin O‘rda nomi elchilar va sayohatchilarning xon qarorgohining ulug‘vorligi va chodirining boy bezaklari haqidagi taassurotlari natijasida yuzaga kelgan. Masalan, Botuxon Volgabo‘yidagi qarorgohiga o‘zining hashamdor oltin chodirini o‘rnatadi. Arab sayyohi Ibn Battutaning ma’lumotlariga ko‘ra, Oltin O‘rda xoni O‘zbekxonning taxti oltin bilan qoplangan.*



### TARIX YONDAFTAR-CHANGIZGA KIRITING!

***Suyurg‘ol*** *(mo‘g‘ulcha – in’om, sovg‘a) – oliy hukmdor tomonidan harbiy yurishlar va tinch vaqtlarda davlat oldidagi muhim xizmatlari uchun mansabdor va qo‘shin qo‘mondonlariga sovg‘a tariqasida in’om etilgan yer-suv hamda mol-mulk. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng suyurg‘ol tartibi Movarounnahr, Dashti Qipchoq hamda Yaqin Sharq mintaqalarida keng tarqalgan. Suyurg‘olga berilgan yer nasldan naslga meros bo‘lib o‘tgan.*

Oltin O‘rda aholisi turli millat va diniy e’tiqod vakillaridan iborat bo‘lgan. Ko‘chmanchi mo‘g‘ullar aholining bir qisminigina tashkil etib, ular zabt etilgan xalqlar, asosan turkiy xalqlar orasida tarqalib ketganlar. Aholining asosiy qismini esa qipchoq, bijanak, xazar va bulg‘orlar kabi turkiy xalqlar tashkil etgan. Quyi Volga hududidagi aholi vakillari ko‘chmanchi hayot tarziga yaqin bo‘lib, bu yerda o‘troq va ko‘chmanchi xo‘jalik qorishib ketishi oson kechdi. Mamlakatning tayanchini tashkil etgan mo‘g‘ullar va turklar asta-sekin o‘troq turmush tarziga o‘tdilar. Ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning o‘ziga xos rivojlangan madaniyati bo‘lmagani bois, ular bosib olingan xalqlarning sivilizatsiya yutuqlarini o‘zlashtirib, asta-sekin mahalliy aholi bilan aralashib ketdilar. Oltin O‘rdada shaharsozlik madaniyatiga ham e’tibor berilgan. Mamlakatda shaharlar iqtisodiy va madaniy hayot markazlariga aylanib, **Saroy Botu** va **Saroy Berka** dunyoning eng katta shaharlari qatorida bo‘lgan. Oltin O‘rdaning dastlabki poytaxti **Saroy Botu** shahri bo‘lib, u Volga daryosining quyi



*Saroy Botu shahri*



*Xon – mo‘g‘ullarning oliy hukmdori*

oqimida, hozirgi Astraxan shahri yaqinida joylashgan. Berkaxon davrida poytaxt Volga daryosining chap sohilidagi Yangi Saroy shahriga ko‘chirilib, u **Saroy Berka** deb nom oladi. Jonibek davrida Saroy Berka aholisi 100 ming kishiga yetib, shahar yirik savdo, madaniy va diniy markazga aylanadi.

Oltin O‘rda hukmdorlari savdo-sotiq masalasi, ayniqsa, xalqaro savdoga katta ahamiyat berganlar. Shuning uchun ham savdo yo‘llarini rivojlantirish va muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratganlar. Oltin O‘rda Yaqin Sharq, Xitoy, Hindiston va Yevropa mamlakatlari bilan ham savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosini bosib olingan xalqlardan olingan soliqlar va xalqaro savdo tashkil etgan. Mo‘g‘ullar kumush, mo‘yna va zargarlik buyumlari orqali o‘lpon olishni afzal ko‘rganlar. Dehqonlar soliqni pul shaklida yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘lashlari shart bo‘lgan. Hukmdorga yangi harbiy yurishlar boshlash uchun mablag‘ zarur bo‘lsa, mustamlaka hudud hokimlariga talabnoma yuborilib, soliq yig‘ib olingan. Ipak yo‘lining Yevropa va Uzoq Sharqni bog‘lab turuvchi shimoliy tarmog‘i Oltin O‘rda hududi orqali o‘tishi mamlakatda tashqi va tranzit savdoga yo‘naltirilgan butun bir iqtisodiy tarmoq paydo bo‘lishiga olib kelib, savdo bojlari xazina daromadlarining asosiy qismini tashkil qilgan.

## TASHQI SIYOSAT

Oltin O‘rda tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalish ulug‘ xon boshchiligidagi Mo‘g‘ullar imperiyasi bilan hamkorlik qilish edi. Chunki ulug‘ xon barcha mo‘g‘ul davlatlarining oliy hukmdori bo‘lib, Mo‘g‘ullar imperiyasining dunyo siyosiy maydonidagi roli va vazifalarini belgilab berar edi. Oltin O‘rda hukumati esa Mo‘g‘ullar imperiyasi bilan bo‘lgan munosabatda o‘z hokimiyatini qonuniylashtirish va ulug‘ xon tomonidan o‘z mustaqilligini rasman tan olishga harakat qilgan. Dastlab Botuxon davrida Oltin O‘rda ulug‘ xonga bo‘ysunib, qurultoyda ishtirok etish uchun u vaqti-vaqti bilan Qoraqurumga borib turgan.

Mo‘g‘ullar imperiyasining o‘zidagi beqarorlik va Chingizxon avlodlari o‘rtasidagi taxt uchun kurashlar ulug‘ xon markaziy hokimiyatining kuchsizlanishiga olib keldi. Bu esa imperiya tarkibidagi mo‘g‘ul davlatlarini itoatda tutishni qiyinlashtirib, ularning mustaqil bo‘lishini tezlashtirdi. Jumladan, Botuxon Qoraqurumdagi saroy fitnalariga aralashib, jiyani Munkening ulug‘xon etib saylanishiga yordam berish orqali o‘zining mavqeyini mustahkamlab, imperiyadagi eng nufuzli chingiziy hukmdorga aylanib oldi. Uning ukasi **Berkaxon** (1255–1266) esa ulug‘ xon ruxsatisiz saroyda hokimiyat tepasiga kelgan Jo‘ji ulusining birinchi hukmdori bo‘ldi.

Berkaxon davriga kelib Qoraqurum bilan munosabatlar yomonlashdi. Imperiyadagi o‘zaro kurashlarda Xubilay g‘alaba qozonib, ulug‘ xon deb e’lon qilindi. Berkaxon Xubilay hokimiyatini tan olgan bo‘lsa-da, biroq unga itoat qilishni istamadi va Oltin O‘rdani mustaqil boshqara boshladi. Botuning nabirasi **Mangu Temur** (1266–1282) esa xon unvonini olib, 1269-yilda o‘z mulklarini Mo‘g‘ullar imperiyasidan mustaqil deb e’lon qildi. Shuningdek, ulug‘ xon Xubilay nomi yozilgan va tamg‘asi bosilgan



*Payza – noiblar, chopar va elchilarga beriladigan yorliq*




tangalar o‘rniga o‘z nomidan tangalar zarb qila boshladi. Bu orqali Oltin O‘rda Mo‘g‘ullar imperiyasidan ajralib chiqib, rasman mustaqil davlatga aylandi. Chingiziylar davlatlari bilan munosabatlar ham Oltin O‘rda tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Jumladan, Erondagi Hulokuiylar davlati bilan Kavkazortiga egalik qilish masalasida raqobatlashdi. Unga qarshi kurashda hatto Misr sultonlari bilan ittifoq tuzdi. Mo‘g‘ul davlatlariga nisbatan agressiv siyosat olib borilib, Hulokuiylar davlati va Chig‘atoy ulusiga qarshi bosqinchilik harakatlari amalga oshirildi, mo‘g‘ullarning Xitoydagi Yuan imperiyasi tan olinmadi.

## RUS VA OLTIN O‘RDA



*To‘xtamishxonning Moskvaga bostirib kirishi haqida hikoya qiluvchi xronika*

Botuxon rus knyazliklarini bo‘ysundirgan bo‘lsa-da, ammo bu hududlar Oltin O‘rda tarkibiga kiritilmagan. Rus knyazliklari vassal hisoblanib, soliq to‘lashi va xonning buyrug‘ini bajarishi kerak edi. Rusda barcha knyazlar Oltin O‘rdadan boshqaruv yorlig‘ini olishlari shart bo‘lgan. Oltin O‘rda qudratli bo‘lganligi sababli rus knyazlari mo‘g‘ullar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga harakat qilganlar hamda ularga to‘xtovsiz o‘lpon to‘lab turganlar. Bu orqali knyazlar o‘z xalqini mo‘g‘ullarning talonchiligi va qulga aylantirilishidan saqlab qolganlar. XIV asrning o‘rtalariga kelib Oltin O‘rdada siyosiy nizolar avj olishi bilan rus knyazliklari unga qarshi birlashib, katta harbiy kuch to‘play boshladilar. Ular o‘rtasida bir necha bor harbiy to‘qnashuvlar bo‘lib, bu urushlarda goh Oltin O‘rda xonlari, goh rus knyazlarining qo‘li baland kelib turgan. Oxir-oqibat 1480-yilda Oltin O‘rdaning Moskva knyazi Ivan III ni bo‘ysundirish uchun qilgan urinishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Natijada knyaz Oltin O‘rdaga boj-yasoq to‘lashdan bosh tortadi. Shu tariqa rus yerlarida uzoq davom etgan mo‘g‘ullar hukmronligi nihoyasiga yetadi.

## OLTIN O‘RDANING YUKSALISHI VA INQIROZGA YUZ TUTISHI



*To‘xtamishxon*

Oltin O‘rda davlati hukmdorlar **O‘zbekxon** (1312–1342) va uning vorisi **Jonibekxon** (1342–1357) lar davrida siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli davlatga aylandi. O‘zbekxon katta ma’muriy-hududiy islohotlar o‘tkazdi va imperiya hududini 70 ta tumanga bo‘lib, ularni ulusbegilar boshchiligidagi o‘nta yirik viloyatga birlashtirdi. Natijada xon hokimiyatni o‘z qo‘lida mustahkam ushlab, chekka hududlardagi barcha ayirmachilik harakatlarini shafqatsizlarcha bostirdi. Shuningdek, ichki nizolarga chek qo‘yib, davlat hokimiyatini markazlashtirish orqali Oltin O‘rdaning yuksalishiga erishdi. 1314-yilda islomni qabul qilib, uni davlat dini deb e’lon qilishi ham Oltin O‘rda qudratini mustahkamlagan omillardan biri bo‘ldi. Shu bilan birga zabt etilgan xalqlarning o‘z dinlarini saqlab qolishiga ruxsat berilib, poytaxtda turli diniy ibodatxonalar qurildi.

Oliy hukmdor Jonibekxonning vafotidan so‘ng Oltin O‘rda taxti uchun kurash boshlandi. Mamlakatda taxt vorisi to‘g‘risidagi qonunning yo‘qligi va xonlikka da’vogarlarning ko‘pligi tez-tez to‘qnashuvlarga, hatto o‘zaro urushlarga ham olib keldi. Hukmdorlarning tez almashinishi siyosiy beqarorlikni keltirib chiqardi. XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib yigirma besh yil ichida 20 ta xon almashib, markaziy hokimiyat butunlay kuchsizlandi. Oxir-oqibat bu kurashda Movarounnahr hukmdori Amir Temur yordami bilan **To‘xtamishxon** (1380–1395) g‘alaba qozondi va ichki nizolarga barham berib, davlat birligini qayta tiklashga erishdi.

Biroq To‘xtamishning Amir Temurga qarshi ittifoq tuzishga intilishi hamda temuriylarga tegishli mulklarga bosqinchilik harakatlarini amalga oshirishi Oltin O‘rda va Temuriylar davlati o‘rtasidagi munosabatlarning tamomila buzilishiga olib keldi. Natijada 1395-yilda Amir Temurning To‘xtamishxon ustidan qilgan g‘alabasi Oltin O‘rda davlatining inqirozini yanada tezlashtirdi. Ichki ixtiloflar tufayli Oltin O‘rdaning yemirilishi boshlanib, XV asrning birinchi yarmida u qator xonliklarga bo‘linib ketdi. Ulardan eng yiriklari **Astraxan, Qozon, Qozoq, Qrim, Sibir xonliklari** va **No‘g‘ay O‘rdasi** bo‘lgan. Oltin O‘rda xonlari bu davrda nafaqat ichki kurashlarni bartaraf etishga, shuningdek, ham Usmoniylar bilan, ham o‘z ittifoqchilari – Qrim tatarlari bilan kurashishga majbur bo‘ldi. Bu kurash natijasida 1502-yilda Qrim xoni Mengli Garay Oltin O‘rda qo‘shinini uzil-kesil mag‘lubiyatga uchratdi va davlat parchalanib ketdi.



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Mamlakat boshqaruvining o‘ziga xos jihatlari bo‘ladimi? Sizningcha, Oltin O‘rda xonlari davlat boshqaruvi sohasida qanday yutuqlarga erishganlar?***
2. ***Oltin O‘rdaning yuksalishiga qanday omillar sabab bo‘lganini aniqlang.***
3. ***Amir Temur davlati bilan munosabatlar nega keskinlashdi va buning oqibati nimaga olib keldi?***
4. ***Mamlakatdagi ichki ziddiyatlarning eng asosiylari qaysilar edi, ularni bartaraf qilish uchun qanday takliflar bergan bo‘lardingiz?***



Qutbiddin Oyboq

## 14-mavzu

# O‘rta asrlarda Hindiston

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Dehli sultonligi tashkil etilishi va uning yuksalib borishi. Davlat boshqaruvi;**
- **Yer egaligi, sultonlikda bir qator islohotlarning o‘tkazilishi va uning natijalari;**
- **Sultonlikning inqirozga yuz tutishi.**

## DEHLI SULTONLIGINING TASHKIL TOPISHI

Hindistondagi mahalliy hukmdorlarning o‘zaro urushlari va mustaqillikka intilishi markaziy hokimiyatning kuchsizlanishiga olib keldi. Bundan foydalangan turk va afg‘on qabilalari Hindistonning shimoliy hududlariga bir necha bor hujumlar uyushtirdilar. Keyinchalik ular bu yerga o‘rnashib, 1206-yilda **Qutbiddin Oyboq** (1206–1210) tomonidan **Dehli sultonligi**ga asos solinadi. Qutbiddin Oyboq turkiy qabilalardan qo‘shin tashkil qilib, Hindistonga yurishlarni davom ettiradi. Sulton Qutbiddin Oyboqning vafotidan so‘ng taxtga uning turk g‘ulomi bo‘lgan **Shamsiddin Eltutmish** (1211–1236) keladi. U sultonlikka Panjob, Sind, Bengaliyani qo‘shib olib, mamlakat hududini sezilarli darajada kengaytiradi. Uning davrida sultonlikning shon-shuhrati Hindiston chegaralaridan tashqariga chiqib, 1229-yilda Bag‘dod xalifasi tomonidan Eltutmish mustaqil hukmdor deb e’tirof etiladi.



*Shamsiddin Eltutmish*

Sultonning o‘g‘il farzandlari layoqatsiz, davlatni boshqarishga qodir emas edilar. To‘ng‘ich qizi Roziya esa adolatpesha, xalqparvar va siyosatchilarga xos xislatlarga ega edi. Sulton qizining yuksak salohiyati sababli uni o‘zining merosxo‘ri etib tayinlaydi. Shunga qaramay, sulton vafot etgach o‘g‘illari taxt uchun kurash boshlaydilar. Ammo keng xalq ommasi, ayrim viloyat hokimlari Roziyani qo‘llab-quvvatlab, 1236-yilda uni sultonlik taxtiga o‘tqazadilar. Roziya taxtga o‘tirishi bilan nafaqat sultonlikning musulmon bo‘lgan yagona ayol hukmdori, balki Janubiy Osiyo mintaqasining birinchi musulmon ayol hukmdoriga ham aylanadi. U tez orada isyonlarni bostirib, mamlakatda tinchlik o‘rnatadi. Shuningdek, adolatli qonunlar chiqarib, fuqarolarga g‘amxo‘rlik qiladi. Tanga pullar zarb ettirib, savdo ishlarini tartibga soladi. Roziya adolatli malika, fan va san’at homiysi bo‘lib, ilm va din peshvosi deb ulug‘lanadi. Biroq uning hukmronligi uzoq davom etmaydi. Uning turk zodagonlari bilan munosabatlari keskinlashib, 1240-yil apreldagi isyondan so‘ng Roziyani taxtdan ag‘daradilar.



*Hukmdor Roziya*

XIII asr oxirida Dehli sultonligi o‘z qudratining cho‘qqisiga chiqdi. 1290-yilda **Jaloliddin Feruzshoh** hokimiyatni egallab, **xiljiylar sulolasi**ga asos soldi. Uning davrida musulmonlar mulki Janubiy Hindistonga qadar yetib bordi. Sulton Alouddin Xiljiy esa kuchli qo‘shin tuzib, o‘zboshimcha feodallarni bo‘ysundirdi. Dekan, Gujarot va Rajastonni egalladi. Dehli sultonligining kuchli va intizomli qo‘shinga ega bo‘lishi shimoldan mo‘g‘ullar hujumlarini qaytarish imkonini berdi.

Dehli sultonligi boshqaruvi islom huquqiga asoslangan edi. Sultonlar va saroy zodagonlari barcha davlat ishlarida shariat qonunlariga rioya qilish uchun mas’ul edilar. Sulton siyosiy, huquqiy va harbiy sohalarning asosiy rahbari bo‘lib, u qo‘shinning bosh qo‘mondoni ham edi.

Sulton yuqori mansabdor shaxslar, viloyatlar hokimlaridan tarkib topgan maslahat organi – Kengashga tayangan holda viloyatlar va shaharlar hukmdorlarini, harbiy boshliqlarni hamda mansabdor shaxslarni tayinlar edi. Davlat boshqaruv ishla-





riga bosh vazir rahbarlik qilib, barcha davlat idoralari – devonlar unga bo‘ysungan. Vazir moliya va harbiy bo‘limlarga ham rahbarlik qilgan.

Sultonlikda harbiy islohot o‘tkazilib, maxfiy bo‘lim tuziladi. Natijada sultonlar viloyatlardagi barcha voqealar haqida ma’lumotga ega bo‘lish uchun hududlarga o‘z odamlarini yuborib, shu tariqa barqarorlikni ta’minlashga harakat qiladilar. XII–XIII asrlar davomida Dehli sultonligining barcha hududlarida musulmonlar hokimiyati uzil-kesil o‘rnatiladi. Sultonlik mulkining kengayishi hamda hokimiyatning kuchayishi bilan islom dini va musulmonlarning hind madaniyatiga ta’siri ham kuchayadi. Islom davlat dini deb e’lon qilinib, yangi din avvalo savdogarlar, hunarmandlar va shahar aholisi tomonidan qabul qilinadi. Musulmon bo‘lmaganlarga *jizya* – jon solig‘i solinadi.



*Dehli sultonligi tangasi*



### TARIXIY MUSHOHADA

*Alouddin Xiljiy davrida iqtisodiy hayot va xalq farovonligini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Unga ko‘ra bozordagi narxlar belgilab qo‘yildi. Sultonning ayg‘oqchilari bozorlarni kezib, “sinov xaridlari”ni amalga oshirishar, agar narxlar belgilanganidan yuqori bo‘lsa, savdogarlar katta jarimaga tortilar edi. Agarda bu chora-tadbirlar ham natija bermay narxlar oshib boraversa, sulton davlat omborlaridagi g‘alla zaxiralarini bozorga chiqarishni va bu o‘ziga xos “iqtisodiy usul” bilan narxlarni tushirishni buyurardi.*

***Xiljiyning islohotlari haqiqatan ham samara bergan deb hisoblaysizmi? Iqtisodiy bilimlaringizga tayanib ayting-chi, siz yana qanday islohotlar amalga oshirilishini ma’qullaysiz?***

## YER EGALIGI, SULTONLIKDA BIR QATOR ISLOHOTLARNING O‘TKAZILISHI VA UNING NATIJALARI

Hindistonda feodal tuzum o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Bir tomondan, musulmon yer egaligi tizimi qaror topib, butun yerlar davlat boshlig‘i – sultonning mulki deb qaralgan. Kelgindi musulmon feodallar sultonning harbiy xizmatchisi bo‘lib, undan iqto – vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun yer olganlar. Ular to‘plangan soliqlarning 10–20% ini o‘ziga qoldirishi evaziga zarur bo‘lganda sultonga o‘z qo‘shinini berishi lozim edi. Ikkinchi tomondan, mamlakatda mahalliy hind feodallari, knyaz – rojalar o‘z viloyatlarini amalda mustaqil ravishda boshqarib, sultonga muayyan miqdorda boj to‘lab turganlar. O‘rta va mayda hind feodallari hisoblangan rajputlar o‘zlari uchun berilgan yerga harbiy xizmat muddati tugagunicha bo‘lgan vaqtgacha egalik qilardilar. Yer egaligining yana bir turi xolisa – davlat ixtiyoridagi yerlar bo‘lib, undan olinadigan soliqlar xazinaga tushib, davlat xarajatlari va maxsus qo‘shinni ta’minlash uchun sarflangan.



**BUNI YODDA SAQLANG!**

*Dehli sultonligi 1206–1526-yillarda mavjud bo‘lib, uni G‘ulomlar, Xiljiylar, Tug‘luqlar, Sayyidlar hamda Lo‘diylar sulolalari boshqargan.*

Dehli sultonligi XIV asrda yirik davlat bo‘lib, uning tarkibiga Shimoliy Hindistondan tashqari, Markaziy Hindiston viloyatlari va Dekan yassitog‘ligidagi mulklar ham kirgan. O‘zini “Iskandar Zulqarnaynning davomchisi” deb nomlagan **Sulton Muhammad Tug‘luq** (1325–1351) deyarli butun Hindistonni bo‘ysundirdi. Feruzshoh Tug‘luq davrida soliqlar kamaytirilib, davlat yerlari dehqonlarga ijaraga bo‘lib berildi. Shu bilan birga, shahar aholisining savdo va hunarmandchilikdan to‘laydigan asosiy solig‘idan tashqari boshqa boj va yig‘imlar ham bekor qilindi. Feruzshohning hukmronlik yillarida qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikning yuksalishi, katta bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilishi hamda davlatni oqilona boshqarish sultonning obro‘sini oshirib, u “xalq homiysi” deb nom oldi. Ammo mamlakatda XIV asrning ikkinchi yarmida boshlangan siyosiy tarqoqlik natijasida ayrim knyazlarning mustaqillikka intilish jarayoni kuchayib, sultonlik tarkibiga kirgan viloyatlarning ba’zilari mustaqil davlatlarga aylana boshlaydi.



*Amir Temurning Dehli sultoni ustidan g‘alaba qozonishi*

Mamlakatda siyosiy tarqoqlik natijasida markaziy hokimiyat zaiflashadi. 1398-yil Movarounnahr hukmdori Amir Temur katta qo‘shin bilan Hindistonga yurish qilib, Sulton Mahmudxon qo‘shinlarini yengadi va Dehlini zabt etadi. Sohibqiron hind mulkiga sayyidlardan bo‘lgan Xizr Xonni noib qilib tayinlab, ko‘plab hind hunarmandlari va me’morlarini olib Samarqandga qaytadi.

## DEHLI SULTONLIGINING INQIROZGA UCHRASHI



*Ibrohim Lo‘diy*

Amir Temurning vafotidan so‘ng mustaqil davlat tuzish imkoni vujudga kelganidan foydalangan **Xizr Xon** hokimiyatni o‘z qo‘liga olib **Sayyidlar sulolasiga** asos soldi. Ammo bu sulola hukmdorlarining hokimiyati Dehli va uning atrofidan nariga o‘tmadi. XV asrning birinchi yarmiga kelib sultonlik avvalgi qudratini yo‘qotib, Dehli shahri va uning atrofidagi yerlarni egallagan oddiy davlatlardan biriga aylanib qoldi. Sayyidlar sulolasi hukmronligining oxiriga kelib yirik feodallarning markaziy hokimiyatga qarshi kurashi va ularning ayirmachilik harakati natijasida Dehli sultonlari shunchaki qo‘g‘irchoqqa aylanib, faqat nomigagina hukmronlikni saqlab qoldilar. Hatto o‘sha davrda “Sulton Shoh Olamning kuchi Dehlidan Palamgacha” degan ibora paydo bo‘ldi. Sulton hokimiyatining nihoyatda kuchsizlanganidan foydalangan afg‘on urug‘laridan birining boshlig‘i **Bahlul Lo‘diy** 1451-yilda Dehlini egallab, o‘zini sulton deb e’lon qildi. Uning davrida saltanat siyosiy jihatdan mustahkamlandi va kengaytirildi. Bahlul Lo‘diyning o‘g‘li **Iskandar** (1489–1517) o‘ziga meros qolgan davlatning qudrati va nufuzini yanada mustahkamladi, poytaxtni Dehlidan Agraga ko‘chirdi. Dehli sultonligining so‘nggi hukmdori Ibrohim Lo‘diy o‘z hokimiyatini mustahkamlash va sultonlikda o‘zining mutlaq hukmronligini o‘rnatish siyosatini yurgizdi. Uning bu siyosatiga zodagonlar qarshi chiqib, sultonning zulmidan qutqarish uchun Kobulda hukmronlik qilayotgan Bobur Mirzodan yordam so‘raydilar. Zahiriddin Muhammad Bobur 1526-yil 21-aprelda Ibrohim Lo‘diy qo‘shinini tor-mor etib, Hindistonni egallaydi, Dehli sultonligi esa parchalanib ketadi.

### ATAMALAR IZOHI

***G‘ulomlar*** *– o‘rta asrlarda musulmon mamlakatlaridagi qullar. Shuningdek, Dehli sultonligida turkiy qullardan bo‘lgan navkarlar hamda ularning orasidan chiqqan sultonlar g‘ulomlar deb atalgan.*

***Palam*** *– Dehli yaqinidagi hozirgi markaziy aeroport joylashgan joy.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Hindistondagi qaysi vaziyat Dehli sultonligining tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etdi?***
2. ***Sultonlik davlat boshqaruvining Hindistondagi an’anaviy boshqaruvdan qanday farqlari bor?***
3. ***Sultonlarning qaysi islohotlarini bilib oldingiz, islohotlarga sizning munosabatingiz qanday?***
4. ***Dehli sultonligining tanazzulga uchrashiga qaysi omillar sabab bo‘ldi?***



## 15-mavzu

# O‘rta asrlarda Xitoy

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Xitoyning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi, uning oqibatlari, Yuan imperiyasining vujudga kelishi;
- Imperiya hududining kengayishi, davlatni boshqarish usullari, yer egaligi munosabatlari;
- Yuan imperiyasining inqirozga uchrashi va Min sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi;
- XV asrda Xitoyda ichki hamda tashqi siyosiy vaziyat.





*Xubilayxon*

## XITOY MO‘G‘ULLAR HUKMRONLIGI OSTIDA

Ma’lumki, mo‘g‘ullarning Xitoyga dastlabki yurishlari Chingizxon boshchiligida Xitoy shimolining egallanishi bilan yakunlangan edi. 1260-yilda Tuluxonning o‘g‘li Xubilay ulug‘ xoqon deb e’lon qilingach, bosqinchilik urushlari orqali Mo‘g‘ullar imperiyasining hududlarini kengaytirib bordi. Imperiya dastlab Mo‘g‘uliston va Shimoliy Xitoydan iborat bo‘lgan bo‘lsa, Xubilay 1279-yilda Xitoyni to‘liq egallagach, uni imperiyaning markaziga aylantirdi.

**BUNI YODDA SAQLANG!**

Sulola nomi Yuan → asoschisi Xubilay → hukmronlik yillari → 1279–1368
Sulola nomi Min → asoschisi Chju Yuan Chjan → hukmronlik yillari → 1368–1644

## IMPERIYA HUDUDINING KENGAYISHI VA BOSHQARISH USULLARI

Xubilay Xitoyni bosib olgach Sun sulolasini tugatib, Yuan sulolasiga asos soladi va Xonbaliq (Xon shahri)ni poytaxt etib belgilaydi. Birma, Kambodja va Koreyani o‘ziga bo‘ysundiradi, Vyetnam vassalga aylantiriladi.

Xubilay Xitoy sulolasi an’analarini davom ettirib, o‘zini Osmon o‘g‘li deb e’lon qiladi. U imperiyani ma’muriy jihatdan o‘n ikki viloyatga bo‘ladi. Poytaxtda uchta markaziy boshqaruv organlari: ichki ishlar boshqarmasi, maxfiy davlat kengashi hamda davlat xizmatchilari



*Xitoy qog‘oz puli*

ishini nazorat qilish bo‘limi tuziladi. Keyinchalik bu boshqaruv tuzilmasi Min va Chin sulolalari boshqaruviga ham asos bo‘ladi.

Xubilay davlat boshqaruvida xitoycha usulni saqlab qolsa-da, mahalliy amaldorlar xizmatidan foydalanmaydi. Shu sababdan saroydagi davlat amaldorlari orasida turli xalq vakillarini uchratish mumkin edi. Xususan, venetsiyalik sayyoh va savdogar Marko Polo Xubilay saroyida yuqori lavozimlardan birida xizmat qilgan. Marko Polo ma’lumotlariga ko‘ra, Yuan sulolasi davrida Xitoy sharq kurashini tomosha qilib, ulardan *“Nega mo‘g‘ullarga qarshi kurashmaysizlar, sizlar ulardan kuchlisiz-ku!”* deganda, xitoyliklardan biri *“mo‘g‘ullarni biz o‘zimizga singdirib yuboramiz”*, deb javob bergan ekan.



*Marko Polo Xubilayxon huzurida*

XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida mo‘g‘ullar xitoyliklarning kuchli ta’siri ostiga tushib qoldilar. Xitoy madaniyati va siyosatining ko‘p qismini o‘zlashtirdilar, xitoy tilida so‘zlashadigan bo‘ldilar. Mamlakat Xitoy an’analari asosida boshqarila boshlandi. Mo‘g‘ul tili rasmiy til hisoblansa-da, ish yuritish mo‘g‘ul va xitoy tillarida baravar olib borilgan.

## DEHQONLAR AHVOLINING OG‘IRLASHUVI VA IMPERIYANING INQIROZGA UCHRASHI

Yuan sulolasi davrida sug‘oriladigan yerlarning asosiy qismi mo‘g‘ul zodagonlarining qo‘liga o‘tishi bilan xususiy mulklar soni yanada ko‘payib, bu yerda ishlovchi dehqonlar mo‘g‘ullarga qaramlikka tushdilar. Dehqonlar sotilar, sotib olinar, ularning majburiyatlari hamda to‘laydigan soliqlarining miqdori mo‘g‘ul zodagonlarining ixtiyorida edi. Dehqonlar og‘ir mehnat evaziga Yanszi daryosi vodiysini o‘zlashtirdilar, u yerda o‘rmonlarni kesib, botqoqlarni quritib, yangi yerlar ochdilar. Dehqonlarning mehnati og‘ir bo‘lib, ular balandlikdagi yerlarni sug‘orish uchun suv tortuvchi qurilmalardan foydalanganlar, yiliga ikki marta hosil olganlar. Dehqonlarga yashash joyini tark etish taqiqlangan edi. Bularning barchasi aholining noroziligini kuchaytirib, dehqonlar qo‘zg‘olonining yuz berishiga olib keldi.



*Dehqon ish jarayonida*

XIV asrning 40-yillarida Sariq daryoda (Xuanxe) toshqin yuz berib, Shandun yarimoroli suv ostida qoldi hamda shimoliy yerlarni sug‘orish orqali oziq-ovqat bilan ta’minlagan Buyuk kanal vayron bo‘ldi. Bu esa shimoliy viloyatlarda ocharchilikka olib keldi, dehqonlar janubga qochib o‘ta boshladilar. Xuanxe oqimining o‘zgarishi tufayli ekin maydonlari ham qisqarib, qishloq xo‘jaligi tanazzulga yuz tutdi. Asosiy soliq to‘lovchi dehqonlarning xonavayron bo‘lishi mamlakatda moliyaviy inqirozni keltirib chiqardi. Mo‘g‘ul hukmdorlarining muvaffaqiyatsiz harbiy yurishlari yuzaga kelgan moliyaviy inqirozni yanada kuchaytirdi.

## MIN SULOLASI HUKMRONLIGINING O‘RNATILISHI

Mo‘g‘ullar imperiyasining inqirozi boshlanishi bilan XIV asrning o‘rtalaridan xalq ozodlik harakati kuchayib, Yuan sulolasining hokimiyatini ag‘darib tashlash va Xitoyni mo‘g‘ullardan ozod qilishni maqsad qilgan milliy tashkilotlar tuzila boshlandi. Ulardan biri 1351-yilda Xenan va Shandun viloyatlarida *“Oq nilufar”* nomli ittifoq tomonidan tayyorlangan *“Qizil peshonabog‘lilar”* qo‘zg‘oloni bo‘ldi. Tez orada “Qizil peshonabog‘lilar” isyoni butun mamlakatni qamrab olib, har bir viloyatda qo‘zg‘olonlar yuz berdi. Markaziy Xitoydagi qo‘zg‘olonga rohib **Chju Yuan Chjan** boshchilik qildi. U 1368-yilda Nankinni egallab, o‘zini imperator deb e’lon qildi va **Min** (yorug‘lik imperiyasi) sulolasiga asos soldi.



### MENING TARIXIY TADQIQOTLARIM

***“Qizil peshonabog‘lilar” qo‘zg‘oloni*** *– 1351–1368-yillar oralig‘ida Xitoyda Yuan sulolasiga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olonining nomi. Qo‘zg‘olonning bunday nomlanishiga isyonchilarning dushmanlardan ajralib turish uchun o‘ziga xos belgi sifatida boshlariga qizil mato bog‘lashgani sabab bo‘lgan.*

## YANGI SULOLA ISLOHOTLARI



*Min sulolasi davridagi Chinni minora*

Xalq orasidan chiqqan yangi sulola hukmdorlari dastlab mehnatkashlar manfaatini birinchi o‘ringa qo‘ygan holda siyosat yuritdi. Masalan, 1370-yilda soliqlar miqdorini aniqlashtirish maqsadida aholi ro‘yxatdan o‘tkazildi. Dehqon, hunarmand va savdogarlardan olinadigan soliqlar kamaytirildi. Soliqlarning yiliga ikki marta undirilishi belgilanib, aholining mehnat majburiyatlari yengillashtirildi. Qullarni ozod qilish haqida qonun qabul qilindi. Mo‘g‘ullar va yirik mulkdorlarga tegishli yerlar musodara qilinib, yersiz dehqonlarga bo‘lib berildi. Hosil kam olingan va ocharchilik yillarida aholini ta’minlash maqsadida davlat omborlarida oziq-ovqat zaxiralari yaratildi.

Imperatorlar poraxo‘rlik va jinoyatchilikka qarshi kurashdilar. Xususan, imperator Chju Yuan Chjan hukmronligi davrida hatto eng kichik jinoyat ham qattiq jazolanardi. Lavozimidan foydalanib oddiy xalqqa zulm qilgan amaldorlar og‘ir jazolarga tortilgan.

### TARIXIY MUSHOHADA

*Min sulolasi davrida uch bosqichli imtihon tizimi qayta tiklanib, davlat lavozimlari uchun yangi mansabdor shaxslarni tayyorlash va o‘qitish choralari ko‘rildi. Oddiy aholi uchun qishloq maktablari va tuman bilim yurtlari ochildi. Xat-savodini chiqarib bo‘lgan o‘quvchilar uch yilda bir marta viloyat markazida “quyi bosqich imtihoni”ni topshirish uchun yig‘ilishardi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tganlar “o‘rta ma’lumotga” ega bo‘lib, “Poytaxt imtihoni”ga borib o‘z omadini sinab ko‘rish imkoniyatini qo‘lga kiritardi. “Poytaxt imtihoni” g‘oliblariga oliy daraja berilib, ular yuqori lavozimlarga tayinlanishlari mumkin bo‘lar edi. Shu tariqa oddiy, kambag‘al kishilarning iqtidorli farzandlari ham vazir darajasiga ko‘tarila olgan.*





*Yongle ensiklopediyasi*

## XITOY XV ASRDA

Imperiyaning yuksala borishi imperator **Yongle** (1402–1424) hukmronligi davridan boshlandi. Uning boshqaruv yillarida mamlakat qudratli davlatga aylandi. Xalqaro aloqalar rivojlanib, Min imperiyasining Hindixitoy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi xalqaro ta’siri oshdi. Uning davrida imperiya poytaxti Nankindan Pekinga ko‘chirildi.

Mamlakat viloyatlari orasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda Xuanxe va Yanszi daryolari oralig‘idagi hududlarni savdo-sotiq munosabatlariga tortish maqsadida **Buyuk Kanal**



### BILAG‘ONLAR UCHUN

***Pekin shahri*** *– mo‘g‘ullar bosqiniga qadar Xitoy shimolidagi Szin davlatining poytaxti bo‘lib, bu davrda u Dasin (Chjundu) deb nomlangan. Mo‘g‘ullar Shimoliy Xitoyni egallagach, Xubilay Dasinni mo‘g‘ullar saltanati poytaxtiga aylantirgan va unga* ***Xonbaliq*** *deb nom bergan. Mo‘g‘ullar Xitoydan quvib chiqarilgach, shahar Beypin nomini oldi. 1421-yilda Beypin Min imperiyasining poytaxtiga aylanib, Beyszin (Pekin) deb atala boshlangan.*

deyarli qayta qurildi. Natijada mamlakat miqyosida yagona suv yo‘li barpo etildi, chet eldan keladigan mahsulotlar kemalarda sharqiy viloyatlargacha olib o‘tildi. Ekin maydonlari bir necha baravar ko‘payib, mo‘l hosil olina boshladi. Dehqonlarning soliq to‘lash imkoniyati yaxshilanib, davlat omborlarida katta miqdorda oziq-ovqat zaxiralari to‘plandi. Shu tariqa bu davr Min imperiyasining “oltin davri” bo‘ldi. Imperator Yongle Xitoy an’analarini qayta tikladi. Uning davrida 1408-yilda Xitoy sivilizatsiyasi to‘plami hisoblangan **“Yongle ensiklopediyasi”** yozildi.

Yongle vafotidan keyin Xitoyga mo‘g‘ullarning hujumi yana kuchaydi. Imperator Cheng Xua hukmronligi davrida mo‘g‘ullarga qarshi kurashlar olib borildi. U tashqi dushmanlar hujumiga qarshi kurashish uchun Buyuk Xitoy devorini tiklashni buyurdi. 200 ming askar devorning 600 km bo‘lgan qismini qurdilar. Natijada Buyuk Xitoy devori hozirgi holatiga keltirildi. Buyuk Xitoy devorining qurilishi hamda bir qator yirik janglardagi mo‘g‘ullar ustidan qozonilgan g‘alabalar mamlakatda vaziyatni barqarorlashtirishga imkon berdi.



*Xitoy tanga puli*

## IMPERIYANING TASHQI SIYOSIY FAOLIYATI

Min sulolasi davrida tashqi siyosatning eng muhim yo‘nalishi mamlakatni chet el bosqinchilaridan himoya qilish bo‘ldi. Bunga sabab, bir tomondan, mo‘g‘ullar haydab chiqarilgan bo‘lsa-da, hali ham katta harbiy kuchlarni saqlab qolgan Yuan sulolasi Mo‘g‘ulistonda mustahkam o‘rnashib, Xitoyning shimoliy hududlariga yangidan hujum boshlagani edi. Ikkinchi tomondan esa Xitoyning sharqiy qirg‘oqbo‘yi hududlariga tinimsiz bosqinchilik qilayotgan yapon qaroqchilarining talonchiligiga chek qo‘yish edi.

Shu sababdan 1387–1388-yillarda mo‘g‘ullarning asosiy harbiy kuchlari yanchib tashlanib, Yuan davlati butunlay tugatildi va Xitoyda uning qayta tiklanishi xavfi yo‘qoldi. Shuningdek, dengiz floti qo‘shinining asosiy qismi yapon qaroqchilariga qarshi kurashga tashlanib, Ryukyu orollari yaqinida yapon floti tor-mor etildi.

Min sulolasi ulug‘ davlatchilik siyosatini yuritib, qo‘shni mamlakatlarni Xitoyga qaram davlatlar deb hisoblashi Amir Temur saltanati bilan munosabatlarning buzilishiga olib keldi. Oqibatda 1404-yil oxirida Amir Temur Xitoyga yurish boshladi. Ammo uning yo‘lda vafot etishi tufayli Xitoyga qarshi yurish amalga oshmay qoldi. Amir Temur vafot etgan bo‘lsada, imperator Yongle temuriylarning qudratini to‘g‘ri baholab, Xurosondagi Shohrux davlati hamda Movarounnahrdagi Ulug‘bek davlati bilan munosabatlar o‘rnatdi.

XV asr boshlariga kelib Xitoy faol tashqi siyosat yurita boshladi. Bu davrdagi eng yirik diplomatik voqea admiral **Chjan Xe**ning ulkan dengiz ekspeditsiyalari va yurishlari bo‘ldi. Mo‘g‘ullar Xitoy savdo karvonlarining dashtlardan o‘tishiga to‘sqinlik qilganliklari sababli imperator Yongle Chjan Xega janubiy dengiz yo‘li bo‘ylab G‘arb mamlakatlari bilan savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatishni buyurdi. Shu bois Chjan Xe boshchiligida 250 ga yaqin ulkan kemalardan iborat dengiz floti yaratilib, 1405–1433-yillar oralig‘ida 70 ta amaldor va 30 ming jangchidan iborat bo‘lgan harbiy ekspeditsiya Janubi-Sharqiy Osiyo, Seylon, Hindiston va hatto Fors ko‘rfazigacha yurishlar tashkil qildi. Admiralning kemalari Arabiston va Afrikaga ham yetib bordi. Chjan Xe sayohat qilgan janubiy dengiz yo‘li o‘sha paytdan boshlab to hozirgacha G‘arbiy Osiyo va Uzoq Sharqni bog‘laydigan asosiy dengiz savdo yo‘liga aylandi. Ushbu ekspeditsiyalar mamlakatning iqtisodiy yuksalishini ta’minlab, Xitoyning ta’sirini sezilarli darajada kengaytirdi.



### TARIX YONDAFTARCHANGIZGA KIRITING!

***Chjan Xe**ning asl ismi **Mahmud** bo‘lib, uning ajdodlari buxorolik zodagonlar edi. Mahmud 1220-yilda Buxoro bosib olingandan keyin harbiy xizmatga olinib, mo‘g‘ullar davlat boshqaruvining yo‘lga qo‘yilishida katta hissa qo‘shgan buxorolik Umar Kamoliddinning oltinchi avlodi bo‘lgan. Umar Kamoliddinning avlodlari, jumladan, Mahmud ham islom diniga e’tiqod qilgan. Min sulolasining o‘rnatilishiga katta hissa qo‘shgan iste’dodli va tajribali dengizchi Mahmudga Min imperatori Yongle tomonidan Chjan Xe ismi berilgan.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Yuan va Min imperiyalaridan qaysi biri oddiy xalqqa ko‘proq g‘amxo‘rlik qildi? Buni misollar bilan izohlab bering.***
2. ***Yuan va Min imperiyasining davlat boshqaruvidagi o‘xshashlik va farqlar nimalardan iborat?***
3. ***Solishtirib ko‘ring-chi, Xitoy davlatining yuksalishida Yuan va Min imperiyalaridan qaysi birining ahamiyati katta bo‘lgan?***
4. ***Xitoy tashqi siyosiy faoliyatining afzalliklari va kamchiliklari haqida fikringiz qanday?***



*Imperator Go Daygo*

## 16-mavzu

# O‘rta asrlarda Yaponiya va Koreya

### SIZ BILIB OLASIZ:

- Davlat boshqaruvining o‘ziga xosligi, Syogun hokimiyatining kuchayishi;
- Yaponlarning mo‘g‘ullarga qarshi kurashi;
- Siyosiy inqiroz va markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi;
- Koryoga mo‘g‘ullar bosqini va uning oqibatlari;
- Choson qirolligining tashkil topishi, uning ichki va tashqi siyosati.

## O‘ZIGA XOS DAVLAT BOSHQARUVI

O‘rta asrlarda Yaponiyadagi siyosiy tuzum o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. XII asrda kelib Yaponiyada imperator – **mikado** hokimiyati o‘rnatilgan. Yaponiyaliklarning e’tiqodiga ko‘ra u quyosh xudosi Amaterasuning o‘g‘li bo‘lib, muqaddas sanalgan. Biroq imperator amalda davlat ishlariga kamdan kam aralashgan. An’anaga ko‘ra, u faqat muhim saroy marosimlarida qatnashib, imperiyani amalda oliy zodagonlar va ko‘plab amaldorlar boshqargan. Bu holat feodallar hokimiyatining mustahkamlanib borishini ta’minlab, ularning o‘z mulklarini tamomila mustaqil idora qilishiga olib keldi. Natijada ko‘p o‘tmay imperator hokimiyati real ahamiyatini yo‘qotdi.



*Samuray*

## SYOGUN HOKIMIYATINING KUCHAYISHI

Poytaxt Xeyyandan tashqaridagi ko‘plab zodagonlar Yaponiya hukumatining boshqarish usulidan norozi bo‘lib, rahbariyat o‘zgarishini xohlardilar. Oxir-oqibat, bir nechta qudratli xonadon vakillari hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishga harakat qilishdi. Ushbu kuchli xonadonlardan ikkitasi – Tayra va Minamoto xonadoni 1156-yilda o‘zaro urush boshladilar. Uzoq davom etgan qarama-qarshilikda **Minamoto Yoritomo** 1185-yilda barcha raqiblarini mag‘lub etib, mamlakatda o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. U samuray sifatida imperatorga sodiq bo‘lib, mikado hokimiyatini saqlab qoldi. Ammo u imperator o‘rniga hukmronlik qilishga qaror qildi. 1192-yilda Minamoto imperator nomidan Yaponiyani boshqaruvchi harbiy qo‘mondon – **syogun** unvonini oldi. Davlatni mustahkamlash uchun harbiy qo‘mondon hukmronligi ostida markazlashgan hukumat tuzdi. Bu yangi idora tizimi – syogunlik boshqaruvi davrida imperator faqat nomigagina hukmdor bo‘lib, amalda samuraylardan iborat juda kuchli qo‘shinga ega bo‘lgan syogun haqiqiy hokimlikni amalga oshirgan.

## MO‘G‘ULLARGA QARSHI KURASH

Xitoy va Koreyani bosib olgan mo‘g‘ullar endi Yaponiyaga ham tahdid sola boshlaydilar. Xubilay dastlab Yaponiya hukmdoridan bo‘ysunishni talab qilib, elchilarini jo‘natadi. Ammo syogun Xubilay hokimiyatini tan olmay uning elchilarini qatl ettiradi. Natijada Xubilay 1274-yilda Yaponiya orollarini zabt etish uchun katta dengiz floti qo‘shinini yuboradi. Yaponiya sohillariga kelib tushgan mo‘g‘ul qo‘shinlari dastlab g‘alaba qozonadilar, ammo yaponlarga qo‘shimcha kuchlarning kelib qo‘shilishi mo‘g‘ullarni o‘z kemalariga chekinishga majbur qiladi. Mo‘g‘ullar qayta hujumga o‘tishga tayyorgarlik ko‘rayotgan paytda tayfun yuz berib, ularning kemalarini cho‘ktirib yuboradi. Natijada mo‘g‘ullar harbiy harakatlarni to‘xtatib, flotni Koreyaga qaytarishga majbur bo‘ladi.

1281-yilda mo‘g‘ullar yana ulkan qo‘shin bilan bostirib kirishadi. Mo‘g‘ullar Xakata ko‘rfaziga kirib kelib, Yapon sohiliga qo‘shinlarni tushiradi. Yaponlar qirg‘oq bo‘ylab uzun



tosh devor qurib, mo‘g‘ul otliqlari hujumini qaytarishga muvaffaq bo‘ladilar. Bir necha hafta davomida shiddatli janglar davom etadi. Bu safar ham kuchli tayfun ko‘tarilib, mo‘g‘ul floti butunlay halokatga uchraydi. Ular to‘rt mingta kema va yuz ming askarni yo‘qotadilar. Natijada Xubilay Yaponiyani bosib olishdan voz kechishga majbur bo‘ladi. Yaponlar bu kuchli tayfunni kamikadze “ilohiy shamol” deb ataydilar. Ular xudolar tayfunni Yaponiyani qutqarish uchun yuborganiga ishonib, o‘zlarini ilohiy kuchlar bilan himoyalangani uchun yengilmas ekanliklarining belgisi sifatida qabul qiladilar.

Mo‘g‘ullarga qarshi kurash siyosiy tuzumga og‘ir yuk bo‘ldi. Ko‘pchilik zodagonlar urushdagi ishtiroki uchun syogun ularga yetarlicha baho bermadi deb hisoblaydilar. Syogunning hukmronligidan norozi bo‘lgan bir nechta qudratli oilalar Asikaga xonadoni bilan birlashib, 1333-yilda Kamakura syogunligini ag‘darib tashlaydilar. Asikaga tez orada Kiotoni egallab, imperatorni Yosino viloyatiga ko‘chib o‘tishga majbur qiladi. 1338-yilda Asikaga syogun unvonini olib, Kioto syogunligiga asos soladi.

*Mo‘g‘ullarning Yaponiyaga bostirib kirishi*

## SIYOSIY INQIROZ

Kioto syogunligi davrida ham Yaponiyada ichki ziddiyatlar bartaraf etilmadi. Xususan, imperator mamlakat boshqaruvini o‘z qo‘liga olish maqsadida syogunga qarshi kurash boshladi. Shu bilan birga viloyatlardagi eng yirik mulkdor – daymyolar ham syogun ta’siridan xalos bo‘lish uchun kurash olib bordilar. Bu holat XIV–XV asrlarda syogun boshchiligidagi markaziy hokimiyatning zaiflashishi va mahalliy hokimiyatning kuchayishiga olib keldi. Har bir viloyatni alohida daymyo boshqarib, u qonunlar chiqargan va soliqlar yig‘gan. Agar viloyatlar o‘rtasida nizolar kelib chiqsa, daymyo samuraylardan tuzilgan qo‘shiniga tayangan. Markaziy hokimiyat siyosatidan norozilik yuz bergan holda daymyolar ittifoq tuzib, syogunga qarshi kurashganlar. Shu tariqa siyosiy hokimiyat yirik mulkdor oilalarning “bosh ittifoqi” qo‘liga o‘tgan. Bu ittifoq mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy muammolarni hal etishda qonli urushlar olib borgan. Shulardan biri 1467–1477-yillarda yuz bergan “Onin urushi” deb nom olgan Asikagalar xonadoni syogunlarining taxt uchun kurashi bo‘lib, bu fuqarolar urushi mamlakatning jiddiy iqtisodiy zarar ko‘rishi hamda poytaxt Kiotoning vayron bo‘lishiga olib keldi.



***Syogun Yoshimitsu Asikaga***

### BUNI YODDA SAQLANG!

Kamakura syogunligi → Minamoto va Fudzivara sulolasi → 1192–1333
Kioto syogunligi → Asikaga sulolasi → 1338–1573



# KOREYA

## KORYO MO‘G‘ULLAR BOSQINI DAVRIDA

XIII asr boshlariga kelib Koreyaga mo‘g‘ullarning tinimsiz hujumlari boshlandi. 1231-yil Anbuk qal’asida bo‘lgan hal qiluvchi jangda Koryo qo‘shinlari yengilib, sulh tuzishga majbur bo‘ldi. Koreyaliklar mo‘g‘ullarga qarshilik ko‘rsatishni to‘xtatmadilar. Mo‘g‘ullarning otliq qo‘shinlari ancha kuchli bo‘lib, ular bilan quruqlikda jang qilish juda qiyin edi. Shu bois Koryo hukumati poytaxt Kegyondan mo‘g‘ul otliqlari bora olmaydigan Kanxva oroliga ko‘chirildi. Mo‘g‘ullar Koreyaning shimoliy qismida o‘z hukmronligini o‘rnatgach, Koryo qiroli mo‘g‘ul hokimiyatini tan olish orqali hokimiyatda qolishga muvaffaq bo‘ldi. Xubilay davrida Xitoydagi Yuan imperiyasi Koryoni vassal davlatga aylantirdi. Natijada Koryo o‘lpon to‘lab turish va mamlakatdagi mo‘g‘ul qo‘shinini boqishga majbur bo‘ldi. Bu yukning asosiy qismi oddiy xalq zimmasiga tushib, ularning ahvolini og‘irlashtirdi. Mo‘g‘ullar koreyaliklarni Yaponiyaga qarshi urushga ham safarbar qildilar. Koreyalik ustalar kemalar yasashga majbur qilingan bo‘lsa, yaponlar bilan bo‘lgan janglarda ko‘plab koryolik jangchilar halok bo‘ldi.

Yuan imperiyasining tanazzulga yuz tutishi bilan Koryoda ham mustaqillik harakati boshlandi. Koryo hukmdori Konmin 1356-yili mo‘g‘ullar tarafdori bo‘lgan amaldorlar va harbiy zobitlarni o‘z lavozimidan chetlatdi. Mo‘g‘ullar tomonidan joriy qilingan qator qonun va qoidalarni bekor qildi. 1368-yilda Xitoyda mo‘g‘ullar hukmronligiga barham berilgach, Koryo Yuan imperiyasiga qaramlikdan xalos bo‘ldi.

## CHOSON QIROLLIGI

Min sulolasi hukmdorlari o‘zlarini Yuan sulolasining merosxo‘rlari deb hisoblab, Koryodan o‘lpon sifatida Koreya yerlarini talab qildilar. Min qo‘shinlari Koryoning Xitoyga chegara hududlariga bostirib kirdilar. Bu vaziyatda Koryo harbiy sarkardalaridan biri Li Son Ge Xitoy bosqinlariga qarshi kurash boshlab, o‘z qo‘shini bilan poytaxtga kirib kelib, 1392-yilda davlat to‘ntarishini amalga oshirdi. Li Son Ge Koryoning so‘nggi hukmdorini taxtdan ag‘darib, hokimiyatni egalladi va Li sulolasiga asos soldi.



### TARIXIY MUSHOHADA

*Qirol Taejong davrida barcha amaldorlar poytaxtdan tayinlangan. Amaldorlar orasida poraxo‘rlik hamda ayirmachilikning oldini olish maqsadida ular vaqt-vaqti bilan bir hududdan boshqasiga o‘tkazib turilgan. Mansabdor shaxslar doimiy nazoratda bo‘lib, ularning faoliyati rasmiy va yashirin taftishdan o‘tkazilgan. 1402-yilda oddiy aholining amaldorlar hamda zodagonlarga qarshi shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun “maxsus qabulxona” tuzilib, saroy tashqarisiga “katta do‘mbira” o‘rnatilgan. Uni amaldorlarning suiiste’mollari yoki nojo‘ya harakatlari to‘g‘risida hukmdorga shaxsan xabar berishni istagan har bir kishi chalishi mumkin edi.*

**Li Son Ge** qirol **Taejo** nomi bilan taxtga o‘tirdi va mamlakat nomini ilk koreys davlatining vorisi sifatida **Choson** deb e’lon qildi. Koreya yarimorolining markazida joylashgan Xanson shahri (hozirgi Seul)ni poytaxt etib tanladi. Qirol Taejo davlat markazlashuvini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi, ammo Koreyani Xitoyning vassali sifatida tan olishga majbur bo‘ldi. Qirolning buyrug‘i bilan yangi poytaxtda mashhur Kyonbokkun saroyi, ziyoratgohlar, yo‘llar va bozorlar qurildi.

Chosonning uchinchi hukmdori **Taejong** (1400–1418) qirollik uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan harbiy, ma’muriy va huquqiy islohotlarni amalga oshirdi. Uning dastlabki harakatlaridan biri zodagonlar ixtiyoridagi qo‘shinlarni tarqatish orqali markaziy hokimiyatning harbiy qudratini mustahkamlash bo‘ldi. Bu islohot yuqori tabaqa vakillarining keng ko‘lamli qo‘zg‘olonlarini cheklab qo‘ydi va milliy armiyani kuchaytirdi. Qirol tasarrufida bosh vazir va uning ikki o‘rinbosaridan iborat oliy hukumat organi – Davlat kengashi tashkil qilindi. Bu kengashning barcha qarorlarini qirol tasdiqlashi shart bo‘lib, bu holat qirol hokimiyatini markazlashtirdi.



*Shaxsni tasdiqlovchi hujjat*

Qirollik hokimiyatining aholi ustidan nazorati kuchaytirildi. 1413-yilda Yuan sulolasi davridagidek aholini ro‘yxatga olish tizimi joriy qilinib, shaxsni tasdiqlovchi hujjat haqida qonun chiqarildi. Qonunga ko‘ra hammada ismi yozilgan “taxta bo‘lagi” bo‘lishi hamda bu taxtachani voyaga yetgan har bir fuqaro yonida olib yurishi shart edi. Bu tartib soliq va harbiy xizmatdan bo‘yin tovlashning oldini olgan.

XV asrning birinchi yarmida Choson qirolligida iqtisodiy va madaniy yuksalish yuz berdi. Bu qirol **Buyuk Sejong** (1418–1450) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Yangi o‘zlashtirilgan yerlar hisobiga ekin maydonlari kengaytirildi. Natijada davlat omborlarida katta miqdorda don yig‘ilib, aholi hosil yetishmovchiligi va ocharchilikdan aziyat chekkan kezlarda oziq-ovqat mahsulotlari taqsimlanadigan bo‘ldi. Soliq hosilning hajmiga qarab o‘sib borishi haqida farmon chiqarildi. Dehqonlarning ortiqcha doni adolatsiz tarzda tortib olinishiga chek qo‘yilib, uni sotishga ruxsat berildi. Bu ishlab chiqarishni rag‘batlantirdi, qishloq xo‘jaligining barqaror o‘sishini

ta’minladi. Qirol Sejong mamlakatning yuksalishidagi muvaffaqiyatlari tufayli **“Buyuk Sejong”** unvonini oldi.

XV asrning ikkinchi yarmida Sejongning vorislari o‘rtasida taxt uchun kurash kuchayib, ichki ziddiyatlar natijasida qirollik kuchsizlana boshladi. Qisqa vaqtda bir nechta qirollar almashdi. Chosonning to‘qqizinchi qiroli **Seongjong** (1469–1494) ning hukmronlik yillarida nisbatan barqarorlik va farovonlik kuzatildi. Uning e’tiborga molik yutuqlaridan biri “Davlat boshqaruvi to‘g‘risida”gi Katta kodeksning nihoyasiga yetkazilishi va hayotga tatbiq etilishi bo‘ldi. U qirollik saroyi tuzilmasida ham muhim o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Jumladan, maxsus maslahatchilar idorasini kengaytirish orqali maslahat kengashining rolini kuchaytirdi.



*Choson sulolasi davrida o‘rta sinf vakillari*

## TASHQI SIYOSAT

Choson qirolligi davrida qo‘shni davlatlar bilan mamlakat xavfsizligini ta’minlash va qirollikning tan olinishi uchun diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Qirol Taejo davrida Min imperiyasi va Yaponiyaga elchilar yuborildi. Min imperiyasiga elchilarni yuborishdan maqsad Xitoy tomonidan Li sulolasi va yangi Choson davlatining tan olinishiga erishish edi. Ammo Min imperatori Xongvu Chosonni tan olishga shoshilmadi. Yaponiyaga kelgan Koreya elchilari syogundan qaroqchilarga qarshi kurashda yordam berishni so‘radilar. Mamlakatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar tiklandi.

Sejong hukmronligi davrida tashqi siyosatning muhim yo‘nalishi Yaponiya bilan munosabatlarni tartibga solish bo‘ldi, chunki bu davrda Koreya yapon qaroqchilari tomonidan bosqinlarga uchragan edi. Sejong Yaponiya hukumati bilan hamkorlik orqali qaroqchilarning hujumlariga chek qo‘yishga harakat qildi. Shuningdek, Chosonning shimoliy chegaralarida qal’alar va harbiy istehkomlar qurish orqali qirollik hududini kengaytirdi.

**ATAMALAR IZOHI**

***Tayfun*** *– dengizda katta to‘lqinlarni yuzaga keltiruvchi kuchli shamol.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Yaponiyada qanday boshqaruv tizimi vujudga keldi, uning an’anaviy boshqaruv tizimidan qanday farqlari mavjud edi?***
2. ***Mo‘g‘ullar nega Yaponiyani bosib ololmadilar, buning sabablarini aniqlang.***
3. ***Koryoning mo‘g‘ullarga qarshi kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz?***
4. ***Choson qirolligi ichki va tashqi siyosatda qanday yutuqlarga erishdi?***



## 17-mavzu

# O‘rta asrlarda Afrika

### SIZ BILIB OLASIZ:

- Afrika xalqlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, unga ta’sir etgan omillar;
- O‘rta asrlarda Shimoliy, Markaziy hamda Janubiy Afrikada davlatlarning vujudga kelishi va faoliyati;
- Afrika qit’asining taraqqiyotda ortda qolishi va buning asosiy sabablari.

## AFRIKA

Afrika kattaligi va aholi soni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turuvchi qit’a bo‘lib, shu nomdagi materik va unga tutash orollardan iborat. Qit’aning O‘rta va Qizil dengizga tutash shimoli-sharqiy qismida unumdor yerlarning ko‘pligi, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish uchun qulay ekanligi sababli bu hududga odamlar dunyoning boshqa mintaqalariga qaraganda ancha oldinroq joylashganlar. Shu sababdan dunyodagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri shimoli-sharqiy Afrikaning Nil vodiysida paydo bo‘lgan.




Afrikaning boshqa mintaqalari ham odamlarning hayoti uchun zarur xomashyolarga boy bo‘lgan. Jumladan, G‘arbiy Afrika hududining asosiy boyligi uning unumdor yerlari bo‘lib, bu yerda aholi ko‘plab ekinlar yetishtirib, mo‘l hosil olgan. Shuningdek, bu mintaqa foydali qazilmalarga, xususan, oltin va temirga boy bo‘lgan. Ushbu ikki manba mintaqa iqtisodiyotining rivoji uchun muhim bo‘lgan savdo-sotiq hamda Afrika madaniyatining rivojlanishida katta rol o‘ynagan.

O‘rta asrlarda Afrika aholisining xo‘jaligi va mashg‘ulotlari ham xilma-xil edi. Qit’aning shimoli-sharqida yashovchi Nilot qabilalari jamoasida chorvachilik ustunlik qilgan. Sahroyi Kabirning janubiy qismida savdo karvonlari va sayohatchilar uchun xavf solib turgan ko‘chmanchi barbarlar yashagan. Markaziy va Janubiy Afrikada yashagan bantu qabilalari dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Qolaversa, metall buyumlar, sopol idishlar va to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning eng oddiy usullarini yaxshi bilishgan. Janubiy afrikalik bushmenlar esa ovchi va terimchi qabila edi. Ularning hayoti tosh davridagi ibtidoiy odamlarning hayotidan deyarli farq qilmagan.

## SHIMOLIY AFRIKA VA TROPIK (MARKAZIY) AFRIKA

Salibchilarga qarshi kurash boshlagan Salohiddin Ayyubiy XII asrning ikkinchi yarmida Ayyubiylar sulolasiga asos soladi. Ayyubiylar mamluk jangchilarni harbiy xizmatga jalb qilganlar. Vaqt o‘tishi bilan mamluklar juda kuchli zodagonlar qatlamini shakllantiradilar. Natijada 1250-yilda ular Ayyubiylar sulolasini ag‘darib, Mamluklar davlatiga asos soladilar. Mamluklar o‘z hududlarini Falastinga qadar kengaytirib, salibchilarni mag‘lub etishadi. Ular Sayfiddin Qutuz boshchiligida 1260-yili mo‘g‘ullar bosqinini to‘xtatadilar. Misr mamluklari islom va uning muqaddas shaharlari Madina, Makka himoyachisiga aylandilar hamda XVI asrning boshlarigacha hukmronlik qildilar.

Afrikaning G‘arbiy Sudan hududi foydali qazilmalarga, ayniqsa, oltinga boy edi. Shu sababdan arablar bu hudud bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yib, Sahroyi Kabir bo‘ylab savdo karvonlari uchun yo‘l ochdilar. Savdogarlar aholi uchun zarur bo‘lgan tuz va boshqa yuksak qadrlanuvchi mahsulotlarni olib kelib, oltinga ayirboshlaganlar. G‘arbiy Sudandan esa oltin, qimmatbaho toshlar va fil suyagi kabi mahsulotlarni xarid qilib Shimoliy Afrika va Yevropaga olib borganlar.

G‘arbiy Sudandagi qabila boshliqlari arablar bilan savdo qilishdan yaxshigina foyda olganlar. Shu tariqa katta miqdorda boylik orttirgan qabila boshliqlarining kuch-qudrati oshib, hukmdorga aylana boshlaganlar. Natijada o‘rta asrlarga kelib, G‘arbiy Sudanda **Gana, Mali, Songay** kabi davlatlar vujudga keladi.





### BILAG‘ONLAR UCHUN

*Arablar Sahroyi Kabir janubidagi yerlarni “Sudan” (arab tilida – “qora tanlilar mamlakati”) deb atashgan. Afrikaning bu qismida asosan qora tanli xalqlar yashaganligi bois keyinchalik bu hudud **“Qora qit’a”** nomini oldi.*

## GANA

G‘arbiy Sudandagi eng qudratli davlat VIII asrda vujudga kelgan Gana edi. Bu davlat hukmdorlari arab savdogarlariga homiylik qilib, o‘z yurtlarida islom dinining yoyilishiga imkon berdilar. Gana oltin qazib olish markazlari bo‘lgan hududlardagi xalqaro savdoni nazorat qilgan hamda mamlakat orqali o‘tgan barcha karvonlardan boj to‘lovlarini undirgan. Shuningdek, tuz va oltin savdosidagi vositachilik orqali keladigan katta foyda tufayli Gana iqtisodiyoti gullab-yashnagan. Mamlakatning asosiy boyligi oltin bo‘lib, Gana hukmdori shunchalik katta boylikka ega ediki, uni “oltinlarning egasi” deb ta’riflashgan. Savdogarlar va sayohatchilar orqali Gananing boyliklari haqida qo‘shni mamlakatlarga xabar tarqalib, ko‘plab qabila va davlatlarning qiziqishiga sabab bo‘ladi. Jumladan, Marokash sultoni Abu Bakr Ganaga yurish boshlab, 1076-yilda uni bosib oladi va har yili o‘lpon to‘lab turishga majbur qiladi. Shuningdek, aholi islom dinini qabul qiladi. XI asr oxirida Ganada milliy ozodlik harakati boshlanib, bosqinchilarni mamlakatdan quvib chiqaradilar. Ammo Marokash sultonligi bilan uzoq davom etgan kurash va oltin zaxiralarining tugashi oqibatida Gana tanazzulga yuz tutib, parchalanib ketadi.



*Hukmdor Mansa Muso*

## MALI

Niger daryosining yuqori oqimida VIII asrda Mali davlati vujudga keladi. Uning poytaxti **Niara** shahri bo‘lib, shuningdek, Tombuktu, Gao, Jenne kabi yirik hunarmandchilik va savdo markazlari ham mavjud bo‘lgan. Mali savdo aloqalarida faol qatnashib, aholining islom dinini qabul qilishi mamlakatga musulmon savdogarlarining kirib kelishini tezlashtiradi. Mali Shimoliy Afrika mamlakatlari bilan oltin savdosida yetakchilikka erishib, oltin, tuz qazib olish va uning savdosi davlatga katta daromad



*Tombuktu shahri*



*Oliy hukmdorning mulozimlari bilan yig‘ilishi*

keltiradi. Mamlakat yerlarining unumdorligi hamda dehqonchilik uchun qulay ekanligi qishloq xo‘jaligining yuksalishiga olib keladi.

Mali XIII asrda – Sundiata Keyta davrida yuksala boshlaydi. Sundiata Keyta kuchli va intizomli qo‘shin tashkil qilib, oltin konlari joylashgan yerlarni va qo‘shni Gana hududini ham egallaydi, g‘arbda Atlantika okeanidan sharqda Chad ko‘ligacha cho‘zilgan hududda o‘z nazoratini o‘rnatadi. Sundiataning eng muhim yurishlaridan biri Bambukning oltinga boy hududlarining egallanishi bo‘lib, bu davlatning moliyaviy farovonligi uchun mustahkam poydevorga aylanadi.

**Mansa Muso** (1312–1337) davrida imperiya o‘z qudratining eng yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Muso mamlakat hududini yanada kengaytirib, Afrikaning yigirma to‘rtta o‘lka va viloyatlari ustidan nazorat o‘rnatadi. Ammo ko‘p o‘tmay sulola vakillarining taxt uchun kurashlari va feodal tarqoqlik tufayli davlat zaiflasha boshlaydi. Oqibatda XV asrga kelib Mali butunlay inqirozga uchraydi va Songay davlati tomonidan bosib olinadi.

## SONGAY

G‘arbiy Afrikadagi yirik savdo markazlaridan biri Gao atrofida Songay qabilalari yashagan. Tez orada ular savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatib, davlat birlashmasini tuzadilar. Mali davlati XIII asr oxirida Gaoni bosib olgach, songaylar uzoq vaqt Mali qirollariga xizmat qiladilar. Ammo XIV asrning oxirida Mali imperiyasi zaiflasha boshlagach, Songay Gao ustidan nazoratni tiklaydi va mustaqil davlatga aylanadi.

Songay XV–XVI asrning birinchi yarmida – Sunni Ali va Muhammad I davrida har tomonlama rivojlandi. Bu davrda mamlakatda yer egaligi munosabatlari sezilarli taraqqiyotga erishdi, otliq qo‘shinlar va daryo flotidan foydalangan holda davlat chegaralari kengaytirilib, Mali hududlari ham qo‘shib olindi. Mamlakat ichidagi siyosiy betartiblik va ichki nizolar tufayli XVI asrning oxirida Songay tanazzulga uchrab, Marokash sultonligi tomonidan bosib olinadi.

## JANUBIY AFRIKA



*Buyuk Zimbabve shahri*

XII asrda Afrika janubidagi Zimbabve va Limpopo daryolari bo‘yida Monomotapa davlati mavjud bo‘lgan. Uning poytaxti Buyuk Zimbabve shahri hunarmandchilik va savdo markazi bo‘lib, shaharda o‘n besh ming kishi atrofida aholi yashagan. Bu jihatdan shahar o‘sha davrdagi Yevropaning yirik shaharlari bilan bellasha olgan. Mamlakat hukmdori lashkarboshi hamda oliy ruhoniy ham hisoblangan.

Monomotapaning eng rivojlangan davri XV asrga to‘g‘ri keladi. Monomotapa harbiy qudratining asosi uning kuchli qo‘shini bo‘lsa, oltin qazib olish va savdodan keladigan daromad iqtisodiy qudratini oshirgan. Savdo-sotiqning rivojlanib borishi aholi o‘rtasida mulkiy tabaqalanishning kuchayib borishiga olib keladi. Mahalliy aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Shuningdek, aholi toshdan imoratlar qurgan, kulolchilik buyumlarini yasagan, oltin, mis va temir eritgan hamda to‘quvchilik va charmsozlikni ham bilgan. XVII asrning oxirida o‘zaro urushlardan zaiflashgan Monomotapani shona qabilalari bosib oladi.

## TARAQQIYOTDAN ORQADA QOLISH SABABLARI

Eng qadimgi davrlardayoq odamlar yashagan, qadimgi sivilizatsiyalarning “beshigi” bo‘lgan Afrika qit’asi o‘rta asrlardayoq taraqqiyotda orqada qola boshlagan. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Avvalo, Afrika qit’asi geografik jihatdan boshqa sivilizatsiya va qit’alardan ajralib qolganligi hisoblanadi. Qit’aning shimoliy qismi arablarning kuchli ta’sirida bo‘lib, qo‘shni mintaqalar bilan savdo va madaniy aloqalarda faol ishtirok etganligi sababli nisbatan rivojlangan bo‘lsa, Qora qit’a uzoq vaqt tashqi dunyodan ajralib qolgan bo‘lib, shu sababdan bu yerda rivojlanish ancha orqada qolgan. Chunki bu vaqtda okeandan xavfsiz suzib o‘ta oladigan yelkanli kemalar bo‘lmaganligi sababli oddiy kemalar Atlantika va Hind okeanlarining xavfli oqimlariga qarshi suzib qit’a sohillariga yetib kela olmagan, quruqlik orqali borish esa eng katta cho‘l – Sahroyi Kabir tufayli imkonsiz edi.



*O‘rta asr Afrika puli “Manilla”*

Yerga va metallga ishlov berish, yozuv va boshqa inqilobiy ixtirolar Yevropaga O‘rta dengiz bo‘ylab Yaqin Sharqdan kelgan. Porox, qog‘oz, chinni va boshqa mahsulotlar esa Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab O‘rta Osiyo va Uzoq Sharqdan keltirilgan. Afrika qit’asi boshqa qit’alardan ajralib qolganligi bois ular bu yangiliklardan chetda qolishgan.

Afrika qit’asi iqlimi jihatidan juda farq qiladi. Shimoli va janubi issiq cho‘llar, markazi tropik savannalardan iborat. Faqat qirg‘oq bo‘ylab va qit’aning markazida o‘rmonlar mavjud. Bu hududlarda yoz fasli butun yil bo‘yi davom etadi. O‘rmonda yovvoyi hayvonlarning podalari va mevalar ko‘payib ketganidan oziq-ovqat zaxiralari haqida qayg‘urishning hojati yo‘q



edi. Shu sababdan bu yerda neolit inqilobi, ya'ni ovchilik va termachilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o'tish Yevropa va Osiyoga qaraganda ancha kechroq sodir bo'lgan.

Qit'aning tabiiy boyliklari ko'p bo'lishiga qaramay, mahalliy aholi uni qazib olish va qayta ishlashning takomillashgan hamda samarali yo'llarini bilmaganlar, tashqi dunyodan uzoq vaqt ajralib qolganligi uchun boshqa qit'a xalqlarining bu sohadagi yutuqlaridan foydalana olmaganlar. Natijada ulkan tabiiy boyliklar mamlakatlar iqtisodiyotining gurkirab o'sishi va sanoatning ko'plab sohalarining rivojlanishiga xizmat qila olmagan. Shuningdek, qabilalar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro urushlar, fuqarolar urushlari, tinimsiz bosqin va istilochilik harakatlari iqtisodiy taraqqiyotni sustlashtirib, savdo aloqalari, ilm-fan va madaniyatning rivojiga to'sqinlik qilgan.

**ATAMALAR IZOHI**

***Mansa*** *– Mali hukmdorlarining unvoni bo'lib, hokimiyat boshqaruvining siyosiy va diniy jihatlarini birlashtirgan oliy maqom shunday nomlangan.*

***Mamluk*** *– Misrda asosan kavkazlik va turkiy xalqlar vakillaridan iborat o'smir qullardan tashkil qilingan harbiylar qatlami.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Afrika qit'asining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?***
2. ***O'rta asrlarda Afrika qit'asining qaysi hududlarida qanday davlatlar vujudga keldi?***
3. ***Nima deb o'ylaysiz, Afrika qit'asining tuprog'i unumdor, tabiiy boyliklari ko'p bo'lishiga qaramay afrikaliklar nima sababdan Yevropa va Osiyo xalqlariga nisbatan taraqqiyotda orqada qolib ketgan?***



## 18-mavzu

# O‘rta asrlarda Amerika xalqlari

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Shimoliy Amerikaning tub aholisi, joylashuvi, ularning mashg‘ulotlari va turmush tarzi;**
- **Kaliforniya hindulari, eskimoslar va aleutlarning joylashuvi, xo‘jaligi hamda ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy hayoti;**
- **XIII–XV asrlarda Mayya, Atstek va Inklar davlati.**

## UMUMIY TAVSIF

Odatda Amerika deyilganda Shimoliy va Janubiy Amerika materiklaridan iborat qit'a tushuniladi. Amerika qit'asi G'arbiy yarimsharda, Atlantika va Tinch okeanlari oralig'ida joylashgan. Qit'aning shimoliy qismidagi katta quruqlik Shimoliy Amerika materigi bo'lib, bu yerda hozir AQSH va Kanada kabi davlatlar mavjud.

Shimoliy Amerikaning mahalliy aholisi hisoblangan hindular Osiyodan borganligi uchun mongoloid irqiga mansub bo'lib, ularning ko'zlari qora, yanoq suyagi chiqqan, yuzlari yalpoq va keng bo'lgan. Ammo ular bo'ylarining balandligi, yuzining uzunchoqligi hamda ko'z qorachig'ining kichikligi bilan Osiyo mongoloidlaridan farq qiladi. Faqat aleut-eskimoslarda mongoloid belgilari ko'proq va hozirgi shimoli-sharqiy osiyoliklarga yaqin. Markaziy va janubiy amerikalik hindular esa eng qadimgi irqiy belgilarini saqlab qolganlar, odatda ular past bo'yli, ochiq jigarrang badanli bo'lgan. Badiiy adabiyotlarda ularni *"qizil tanlilar"* deb yuritishgan.

Shimoliy Amerikaning tub aholisi juda xilma-xil bo'lib, ular o'zi yashagan muhit ta'sirida o'ziga xos til va madaniyat yaratganlar. Shimoliy Amerika hindularining asosiy qismi ovchilik, termachilik, baliqchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar bo'lib, ularning ichida yuksak dehqonchilik madaniyatini yaratgan qabilalar ham bo'lgan. Ular XIII–XV asrlarda qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda bir qator yutuqlarga erishib, yirik qabilalar ittifoqini tuzgan bo'lsalar-da, markaziy va janubiy amerikalik xalqlarga o'xshab yirik shaharlar barpo qilmaganlar. Aholining katta qismi urug'-qabilachilik tuzumida yashab, yirik davlatlar hamda katta imperiyalarga asos solmaganlar.



### BILAG'ONLAR UCHUN

***"Qizil tanli"*** *iborasi hindu qabilasi jangchilarining badanlarini qizil tusli bo'yoq bilan bo'yash odati tufayli kelib chiqqan. Keyinchalik bu ibora hindularni yevropalik, osiyolik va afrikaliklardan ajratuvchi irqiy ko'rinish kasb etgan.*

Mutaxassislar hindu xalqlarining mustamlakachilikdan oldingi davrda shakllangan uchta asosiy madaniy markazlarini ajratib ko'rsatadilar. Ularning birinchisi Kichik Kolorado va Rio Grande daryolari havzalarida joylashgan Pueblo va Pima qabilalarining ancha takomillashgan sug'orma dehqonchilikka asoslangan o'ziga xos madaniyati hisoblanadi. Ushbu qabilalar dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, tosh va xom g'ishtdan ikki va uch qavatli uylar qurganlar, sopol buyumlar yasaganlar hamda paxtadan ip gazlamalar to'qiganlar.

Hindular yaratgan madaniy markazning ikkinchisi krik, chiroki, chokto, natchez, chikaso qabilalarining Missisipi daryosi chap qirg'og'idan Atlantika okeanigacha bo'lgan hududda joylashgan o'troq dehqonchilik madaniyati hisoblanadi. Missisipi aholisi temir tishli chopqilar bilan yerga ishlov berib, dalalar va o'simliklarni o'g'itlashni bilganlar. Qishloq xo'jaligi mavsumiy ovchilik va termachilik bilan to'ldirilgan. Ularning madaniyati qal'a, qo'rg'onlar, ibodatxona va saroy ko'rinishidagi inshootlar bilan ajralib turgan.

Madaniy markazning uchinchisi Buyuk ko'llar yaqinida joylashgan irokez qabilalari madaniyatidir. Irokezlar asosan ko'chma dehqonchilik bilan shug'ullanib, mayda daraxtli o'rmon va to'qayzorlarni kuydirib, yangi yerlar ochganlar. Ovchilik, termachilik va baliq ovlash ham ular orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Irokezlar qishloqlarda jamoa



bo‘lib yashaganlar, jamoa a’zolari uchun yog‘ochdan qarag‘ay po‘stlog‘i bilan qoplangan 6–8 metr kenglikda uzun uylar qurganlar. Bunday cho‘zinchoq uylar alohida xonalarga ajratilib, u jami 20 tagacha oilani sig‘dira olgan. Irokezda mustahkam qabila ittifoqlari ham bo‘lib, keyinchalik ular birlashib “Irokezlar ligasi” (Besh qabila ittifoqi) ni tuzadilar.

## KALIFORNIYA HINDULARI

AQSH dagi hozirgi Kaliforniya shtatining tub aholisi Kaliforniya hindulari hisoblanib, ular dehqonchilikni bilmaganlar, baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanganlar. Asosiy ishlab chiqarish qurollari ovchilikda o‘q-yoy, baliqchilikda sanchqi, savat va daraxt poyasini o‘yib ishlangan qayiq bo‘lgan. Kaliforniya hindularining ko‘pchiligi ko‘chib yurishga qulay bo‘lgan chaylalarda yashagan bo‘lsa, faqat Shimoliy Kaliforniya hindulari yarimyerto‘lalardan iborat kichik qishloqlarda yashaganlar.





*Mayya sivilizatsiyasining iyerogliflari*



*Aleut xalqi*

## ESKIMOSLAR VA ALEUTLAR

Grenlandiya oroli va Shimoliy Kanadadan AQSHning Alyaska shtati, shuningdek, Chukotkaning sharqiy chekkasigacha bo‘lgan hududda yashovchi tub yerli aholi eskimoslar hisoblanadi. Ularning asosiy mashg‘ulotlari ovchilik va baliq ovlash bo‘lib, kit, morj, qutb ayig‘i va shimol tulkisini ovlaganlar. Ov qilingan hayvonlarning go‘sht va yog‘i taomga ishlatilgan, terisidan kiyim tikkanlar va kema yasashda foydalanganlar, suyaklaridan esa uy-ro‘zg‘or buyumlari yasaganlar. Tyulen va morj yog‘i bilan uylarini qizitib yoritganlar.

Tinch okeandagi Aleut orollari, Alyaska yarimorolining g‘arbiy qirg‘oqlarida yashovchi tub aholi aleutlar deb ataladi. Aleutlar xo‘jaligining asosini ovchilik, baliqchilik va parrandachilik tashkil qiladi. Ular suv o‘tmaydigan yopinchig‘i va bosh kiyimlari bilan boshqa qabilalardan ajralib turadilar.

Ma’lumki, Amerika xalqlari ichida Markaziy va Janubiy Amerikaning tog‘ va tog‘oldi hududlarida dehqonchilik bilan shug‘ullangan xalqlar o‘z davlatlarini tashkil qilgan bo‘lib, ular mayya, atstek va inklar davlatlari edi. Bu xalqlar boshqa Amerika xalqlaridan yuksak madaniyat yaratganliklari bilan ham ajralib turadi.



*Mayya piramidasi – Chichen itsa*

## MAYYALAR DAVLATI

Mayya qabilasi hozirgi Meksika, Gvatemala va Belizning keng hududida, Gonduras va Salvadorning g‘arbiy qismida yashagan. Mayyalar Yukatan yarimorolining janubiy qismida, hozirgi Gvatemala hududida bir qancha shahar-davlatlarga asos solganlar. Bu shahar-davlatlarning har biri mustaqil boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, shuning uchun mayyalarni ba’zan **“Yangi dunyo yunonlari”** deb ham ataganlar. Har bir shahar-davlat ma’lum miqdordagi qishloqlarni nazorat qilgan, ularning aholisi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i bo‘lgan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan.

XIII asrda ham Mayyalar davlatini cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan hokim boshqarib, uning eng yaqin yordamchisi va bosh maslahatchisi Oliy kohin hisoblangan. Hukmdor har bir qishloqqa maxsus rahbarlarni tayinlagan. U qishloq aholisini boshqarish bilan birga soliq yig‘ish va sud ishlari bilan ham shug‘ullangan.

Mayyalar o‘ziga xos yuqori darajada rivojlangan va shaharlashgan madaniyatni yaratganlar. Ular Tikal, Kopan, Chichen itsa, Uxmal, Mayyapan kabi yuzdan ortiq shaharlar barpo etganlar. Chichen itsa uzoq vaqt mamlakatning poytaxti bo‘lgan bo‘lsa, 1263-yilda Mayyapan shahriga asos solinib, u keyinchalik Yukatanning asosiy markaziga aylangan. XIII–XV asrlarda Mayyalar davlatida savdo-sotiq rivojlanib borib, bunda loviya va kakao urug‘i pul vazifasini bajargan. Mayyaliklar jamoa bo‘lib yashab, dehqonchilik xo‘jaligiga ega bo‘lganlar. Ular o‘rmonlarni toshboltalar bilan kesib, daraxtlarni kuydirganlar, kul bosgan dalani yog‘och bilan kavlab urug‘ sepganlar. Ular kakao daraxtini birinchilardan bo‘lib o‘stirib, mevasidan ichimlik tayyorlaganlar.

Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin Markaziy Amerikani ispanlar zabt eta boshladilar. 1528-yilga kelib konkistadorlar shimoliy Yukatanni egallashga kirishdilar. Biroq ispanlarga mintaqani butunlay bo‘ysundirish uchun salkam 170 yil kerak bo‘lib, 1697-yilga kelibgina Mayyalar davlati to‘liq bo‘ysundirildi.

## ATSTEKLAR DAVLATI

7-sinf Jahon tarixi darsligidan ma’lumki, Mexiko vodiysining tabiiy boyliklarga boy va unumdor yerlariga shimoldan atstek va tenochka qabilalari kirib kelib joylashgan edi. Vodiydagi mahalliy aholi qarshiligiga uchragan atsteklar Teskoko ko‘lidagi orollarga borib o‘rnashadi. Ular mashaqqatli mehnat evaziga orollarni o‘zlashtirib, 1325-yilda **Tenochtitlan** (Tenochkalar shahri)ga asos soladilar. Ammo atsteklar va tenochkalar o‘zlaridan kuchli bo‘lgan tepanek qabilasiga tobe bo‘lib, ularga soliq to‘lab turganlar. Tepaneklarga yollanma askar sifatida xizmat qilgan atsteklar harbiy o‘ljalar bilan birga bosib olingan shaharlar aholisidan yig‘iladigan o‘lponning bir qismini ham olganlar. Bu Tenochtitlan shahrining iqtisodiy o‘sishi va aholisining ko‘payib borishini ta’minlab, shahar aholisi 1376-yilda shaharning birinchi **tlatoani**si (oliy hukmdor)ni saylab, atsteklarning dastlabki hukmron sulolasiga asos soladilar.

Yetarli darajada kuch to‘plab olgan atsteklar Teskoko va Tlakopan shahar-davlatlari bilan ittifoq tuzib, tepaneklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradilar. Ittifoqchilar tepanek qo‘shinlarini yengib, atsteklar 1429-yilda mustaqillikka erishadilar va Tenochtitlan Meksika vodiysidagi eng qudratli shaharga aylanadi.



*Atstek oltin bezaklari*



### TARIXIY MUSHOHADA

*Atsteklar harbiy sohaga alohida e'tibor qaratganlar. Ularda jang natijasi qullikka tushgan dushmanlar soni bilan baholanib, kishilarning yuqori martabaga erishishi va lavozimining oshib borishi asosan harbiy jasoratlariga bog'liq bo'lgan. Urushda raqiblarini yenggan hamda qurbonlik qilish uchun to'rt nafar dushman jangchisini asir olgan askar "Yuqori martabali jangchi"ga aylangan. Asirlar soniga qarab jangchining martabasi oshib borib, tlatoani bo'lish uchun kamida o'n yetti dushmanni qo'lga olishi kerak edi. O'smirlar balog'atga yetganida, birinchi asirini qo'lga tushirmaguncha sochini olishi mumkin bo'lmagan. Ba'zan buning uchun ikki-uch yigit birlashib, dushmanni asir olishga astoydil harakat qilganlar. Chunki uzun soch asirlarning yo'qligini bildirib, uzun sochli jangchi bo'lish sharmandalik hisoblangan.*

- *Nima deb o'ylaysiz, atsteklarning boshqaruv tizimidagi bu tartib-qoida o'z davri uchun qanchalik muhim bo'lgan?*
- *Sizningcha, bunday qonun-qoidalar harbiy salohiyatni oshirishda qanchalik ahamiyatga ega bo'lgan?*



*Atstek ibodatxonasi toshi*

Atsteklar hukmdori **Montezuma I** XV asr o'rtalarida poytaxt Tenochtitlanda katta qurilish ishlarini olib bordi. Jumladan, shahar aholisini suv toshqinidan himoya qilish uchun to'g'onlar, toshdan saroy va ehromlar quriladi, Buyuk ibodatxona qayta tiklanadi.

Har bir atstek shahar-davlatida alohida hukmdorlar mavjud bo'lib, Tenochtitlan shahri hukmdori bosh rahbar deb e'tirof etilgan. Hukmdorlar sud ishlarini boshqarish, hukm chiqarish, diniy marosimlarning to'g'ri bajarilishini nazorat qilish va o'z fuqarolarini himoya qilishlari shart edi. Atsteklarning so'nggi hukmdori **Montezuma II** yangi hududlarni egallash, mamlakatdagi qo'zg'olonlarni bostirish bilan birga ittifoqni mustahkamlashga harakat qildi. Ammo kelishmovchiliklar tufayli Tenochtitlan, Teskoko va Tlakopan ittifoqi buzilib, atsteklar davlati zaiflashib qoldi. Bunday sharoitda Markaziy Amerikani zabt eta boshlagan ispan konkistadorlari Ernan Kortes boshchiligida 1521-yilda Tenochtitlanni egallab, atsteklar davlatini tugatdilar.

## INKLAR DAVLATI

Inklar davlati Janubiy Amerika hindularining hududi va aholisi bo'yicha eng yirik davlati hisoblanib, uning markazi Quyosh shahri – **Kusko** edi. XIII asrga kelib inklar kuchayib, qabilalar ittifoqiga bosh bo'ladi hamda hukmron qabila sifatida tan olinadi. **Inka Pachakutek** hukmronligi davrida Janubiy Amerikaning ko'plab qabilalari bo'ysundirilib, Inklar imperiyasi

vujudga keladi. Imperiya to‘rt viloyatga bo‘lingan. Viloyatlarning har birini hukmdorning bevosita qarindoshlari bo‘lgan gubernatorlar boshqargan. Davlatni Oliy Inka boshqarib, qo‘shinlarga qo‘mondonlik qilgan, sud va qonun chiqaruvchi hokimiyat uning qo‘lida bo‘lgan. U boshqaruv ishlarida ruhoniylar va qarindoshlariga tayangan, ularni eng yuqori diniy, ma’muriy va harbiy lavozimlarga tayinlagan. XV asrning ikkinchi yarmida inklar faol bosqinchilik harakatlari olib borib, shimolda Kolumbiyadagi Pasto shahridan janubda Chilidagi Maule daryosigacha bo‘lgan hududni egallaydilar. Inklar bosib olingan qabilalarni kechua tilini o‘rganishga majbur qilganlar, ular orasida o‘z urf-odatlari va qonunlarini joriy qilganlar.



*Inklar hukmdori zodagonlar, ruhoniylar va jangchilar hamrohligida*

Inklar jamiyatining asosiy birligi oila bo‘lgan. Har bir oila ishlov berishi kerak bo‘lgan yerga egalik qilgan. Mamlakatda o‘rnatilgan ijtimoiy tuzumga ko‘ra, eng keksa va eng yosh kishidan tashqari hamma mehnat qilgan. Ularning asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lib, dehqonlar qirqqa yaqin ekin turlarini bilganlar. Kartoshkaning ko‘plab turlari Yevropaga shu yerdan olib borilgan. Inklar markazlashgan sug‘orish tizimlarini yaratib, dalalarni shiddatli tog‘ jilg‘alaridan keladigan suv bilan sug‘orish uchun ulkan akveduklarni (osma quvur) qurishga muvaffaq bo‘lganlar.

XVI asr boshlarida Inklar imperiyasi taxt vorislari o‘rtasida boshlangan kurash natijasida zaiflashib, ikki qismga bo‘linib ketadi. 1532-yilda konkistadorlar inklar qo‘shinini tor-mor etadilar, Oliy Inka asir olinadi. 1572-yilda so‘nggi hukmdor taxtdan ag‘darilib, Inklar davlati butunlay tugatiladi.

## ATAMALAR IZOHI

***Hindu*** *– Amerika tub aholisining umumiy nomi. Bu nom XV asr oxirida Xristofor Kolumbning Atlantika okeani ortidagi o‘zi kashf etgan yerlarni Hindiston deb hisoblashi va bu yerdagi mahalliy aholini hindular deb nomlashi tufayli kelib chiqqan.*

***Irq*** *– kishilarning tashqi qiyofasi, gavdasi, nasli, kelib chiqishi kabi irsiy belgilar orqali farq qiluvchi guruhi. Hozirda dunyo aholisi negroid, avstraloid, yevropeoid, mongoloid kabi to‘rtta yirik irqqa bo‘linadi.*

***Konkistador*** *(ispancha – bosqinchi) – Markaziy va Janubiy Amerikani zabt etishga kirishgan ispan va portugal bosqinchilari.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Aziz o‘quvchilar, Amerika xalqlari haqida qanday ma’lumotga ega bo‘ldingiz, ulardan qaysi xalqlar o‘z davlatchiligiga ega bo‘lgan?***
2. ***Amerika xalqlarining qanday o‘xshash tomonlari hamda umumiy jihatlari mavjud ekan?***
3. ***Nega Shimoliy Amerika xalqlari Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari singari shahar-davlatlar va imperiyalar tashkil etmaganlar?***







# III BOB

# XIII–XV ASRLARDA JAHON XALQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI



## 19-mavzu

# O‘rta asrlar Yevropa aholisining kundalik hayoti

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Ijtimoiy tabaqalar, aholining turmush tarzi, uy xo‘jaligi;**
- **Kasalliklar, tibbiyot, kiyinish madaniyati, bazmlar, ritsarlar musobaqalari;**
- **So‘zlashuv tili va din.**

## AHOLINING TURMUSH TARZI

O‘rta asrlarda aholi ruhoniylar, yirik mulkdor zodagonlar, harbiylar, ozod va qaram dehqonlar, hunarmand hamda savdogarlar kabi ijtimoiy toifalarga bo‘lingan.

Zodagonlarning barcha mulklari va qasrlari jamlangan hudud **manor** deb atalgan. Zodagonlar urushga ketganlarida, ularning xotinlari yoki qizlari manorlarni boshqargan. Manorning markazi qal’a yoki qasr bo‘lgan.



*O‘rta asr qal’asi*

Dastlab, qal’a va qasrlar yog‘ochdan qurilgan. Keyinchalik ular toshdan bunyod etilgan va ko‘pincha ikki qavatdan iborat bo‘lgan. Birinchi qavatda oshxona va katta zal bo‘lgan. Bu yerda xonadon ahli ovqatlangan va mehmonlarni qabul qilgan, lozim bo‘lganda qal’a xo‘jayini sud o‘tkazgan. Ikkinchi qavatda katta bazmlar zali, yotoqxonalar, xizmatkorlar xonasi va boshqa xonalar joylashgan. Qasrlar nozik va qimmatbaho jihozlar bilan bezatilgan. Zodagonlar yaxshi kiyimlar kiyib zargarlik buyumlarini taqib yurishgan. Badavlat kishilar hammomlarda yuvinishgan va suvga xushbo‘y moylar, atirgul barglari yoki yalpiz kabi o‘tlar qo‘shib xushbo‘y ifor berishgan.

Dehqonlarning uylari ancha sodda bo‘lgan. Ular loy bilan suvalgan yoki yog‘ochdan yasalgan uylarda yashashgan. Kambag‘al dehqonlarning uylari bir xonali bo‘lgan. Ayrim uylarda ovqat pishirish, ovqatlanish xonasi va yotoqxona uchun alohida xonalar ham bo‘lgan.



*Dehqonlar hayoti*

Yevropa iqlimi dehqonlarga yil davomida ishlash va hosil olish imkoniyatini bergan. Ular avgust va sentyabr oylarida g‘alla yig‘ib olishgan. Oktyabr oyida kuzgi ekinlar uchun zamin tayyorlaganlar. Noyabr oyida chorva mollarini so‘yib, go‘shtini qishlash uchun tuzlashgan. Fevral va mart oylarida suli, arpa, no‘xat, loviya ekish uchun yerni shudgor qilishgan. Yozning boshida dalalarni begona o‘tlardan tozalab, qo‘ylarning junlarini qirqishgan, bog‘bonlar esa bog‘larni parvarish qilishgan. Dehqonning ayoli bir vaqtning o‘zida dalada mehnat qilish bilan birga, uy-ro‘zg‘or ishlari, bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullangan. Kambag‘allar uchun shaxsiy gigiyena juda oddiy edi. Kambag‘allar pechkada yoqish uchun yog‘och qimmatligi sababli uzoq vaqt davomida suvdan isitmay foydalanishgan.





*O‘rta asr ayollar kiyimlari*

## KIYINISH MADANIYATI

XIII asrga kelib Yevropada boylar va kambag‘allar kiyadigan kiyimlar o‘rtasida katta farq bor edi. O‘rta asrlar Yevropasida zodagonlar va oddiy aholi kiyinishda farqlanishi qonunlar asosida tartibga solingan. Faqat qirollik sulolasiga mansub kishilarga oltin va kumush buyumlar hamda binafsha ipak kiyishga ruxsat berilgan. Zodagon ayollar nafis matolardan va baxmaldan tikilgan kiyim kiyishlari mumkin bo‘lgan. Boylarning kiyimlari deyarli har doim tikuvchilar tomonidan tikilgan. Ayollar odatda yenglari va bezakli bosh kiyimlari bo‘lgan uzun kiyim kiyishgan. Erkaklar paypoqlar, bezatilgan plashlar va chiroyli shlyapalar kiyishgan. Shuningdek, kiyimlar qimmatbaho mo‘ynalar, noyob toshlar, boshqa bezaklar bilan bezatilgan. Kambag‘allarning kiyimlari xira va rangsiz matolardan juda oddiy qilib tikilgan. Ularni odatda dehqon ayollari qo‘lda jun yoki zig‘ir matosidan to‘qilgan qo‘pol matodan tayyorlashgan.

XIV–XV asrlarda qimmatbaho matolar, kashta tikish, kiyimlardagi ustki bezaklar, turli chizmalar tushirilgan hashamdor kiyimlar paydo bo‘la boshladi. Urfga qarab kiyinish zodagonlar o‘rtasida ichki raqobatning bir ko‘rinishiga aylanib bordi.

## BAZM VA TAOMLAR

O‘rta asrlarda Yevropada dabdabali ziyofatlar, turli bazmlar asosan qirollar, yirik zodagonlar tomonidan uyushtirilgan. Shuningdek, ov va shaxmat o‘ynash kabi mashg‘ulotlar bilan ham shug‘ullanishda boylar imtiyozga ega edilar.

Kambag‘allarning o‘yin-kulgi va bazmlar uchun imkoniyatlari yo‘q edi, lekin maxsus bayramlarda, masalan, o‘rim-yig‘im paytida, raqs festivallari, sport musobaqalarida qatnasha olganlar.

Ziyofatlar muhim diniy va dunyoviy bayramlar, nikoh, toj kiyish, urushlardagi g‘alabalar, tug‘ilgan kunlar, mavsumiy turnirlar hamda muhim mehmonlarning tashrifi munosabati bilan o‘tkazilgan. Bazmlarda zodagonlar va ularning oila a’zolari boshqalarga qaraganda balandroq joyda o‘tirishgan. Bunday tantanalarda qo‘shiqchi, sirk ijrochilari, sozanda va raqqosalar, shoirlar, hikoyachilar hamda masxarabozlar ishtirok etishgan. Mehmonlar dasturxoniga quyuq va suyuq, go‘shtli va sabzavotli shohona taomlar, shirinliklar hamda turli ichimliklar tortilgan. Frumentiy o‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa bazmlarining muhim taomi edi. U quyuq donli taom hisobla-



*Yuqori tabaqa vakillari bazmlari*



nib, qaynatilgan bug‘doydan tayyorlangan. Frumentiy dastlab dehqonlarning taomi hisoblanib, keyinchalik unga go‘sht, tuxum, bodom, qorag‘at, shakar, za’faron va apelsin qo‘shilib, turli bazmlarning asosiy taomiga aylangan.



Odatda zodagonlar taomnomasida sigir, cho‘chqa, qo‘y, baliq, ov hayvonlarining go‘shtidan sabzavotlar qo‘shib tayyorlangan quyuq va suyuq taomlar bo‘lgan. Taomlarni xizmatkor oshpazlar tayyorlashgan. Zodagonlar oliy sifatli non iste’mol qilishgan. Ovqatdan so‘ng dasturxonga shirinliklar tortilgan. Xizmatkorlar ulardan qolgan ovqatlarni yeyishgan.

Dehqonlar oilasida ayollar taom tayyorlashgan. Pechlarda bug‘doy, javdar, arpa, tariq va sulidan non tayyorlanib, u o‘rta asrlarda oddiy xalqning asosiy taomi edi. Dehqonlar ba’zan sabzavot, sut, yong‘oq va mevalar, tuxum yoki go‘sht ham iste’mol qilishgan.

Aksariyat dehqonlar kunlik taomlarini dalada ishlagan vaqtlarida tanovul qilishgan. Agar dehqonlar dengiz yoki daryolar yaqinida yashashsa, baliq iste’mol qilishgan. Odatda ular juda kam go‘sht tanovul qilishgan, chunki ko‘pchilik dehqonlarning uy hayvonlarini boqish uchun imkoniyati bo‘lmagan. Lordning o‘rmonlarida oddiy aholi uchun yovvoyi hayvonlarni ovlash taqiqlangan.

## RITSARLAR MUSOBAQALARI



O‘n olti yoshdan oshgan yigitlar ritsarlik unvoniga sazovor bo‘lishi mumkin edi. Ritsarlar boshdan oyoq temir sovut va dubulg‘a kiyib, nayza, qilich, bolta, tig‘li cho‘qmor va boshqa qurollar bilan qurollanishgan. O‘zlarini turli o‘lchamdagi, ba’zan butun bo‘yi barobar keladigan qalqonlar bilan himoya qilishgan. Qirol yoki yirik zodagon uning yelkasiga qilich bilan sekin urib ritsarlikka qabul qilingan va unga qilich, qalqon hamda dubulg‘a sovg‘a qilingan. Ritsarlar sovut kiyib, ot ustida jang

qilganlar. Ular ritsarlik kodeksi deb ataladigan qoidalarga qat'iy amal qilishgan. Unga ko‘ra ritsar halol, jasur, yaxshi xulq-atvorli bo‘lishi, ayollarga hurmat ko‘rsatishi, cherkovni hurmat qilishi, odamlarga yordam berishi va dushmanlarga qarshi adolatli jang qilishi lozim bo‘lgan.

Tinchlik davrida ritsarlar o‘rtasida musobaqalar – turnirlar o‘tkazilgan. Ko‘pincha bu bayramlarga aylanib ketgan. Lordlar va xonimlar o‘zlarining eng yaxshi liboslarini kiyib, ritsarlar otda bir-birlariga hujum qilishlarini tomosha qilishgan. Musobaqalarda ritsarlarning rang-barang ramzlari ularni bir-biridan farqlab turgan. Bellashuvda ritsarlar nayza yordamida raqib ritsarni otdan yiqitishga harakat qilganlar. G‘olib ritsarlar turli in'omlar bilan taqdirlangan.

## TIBBIYOT



*O‘rta asrlar dorixonasi*



*O‘rta asrlar tibbiyoti*

O‘rta asrlarda shifokorlar juda oz edi. Shifokorlar tayyorlaydigan birinchi Salerno tibbiyot maktabi IX asrda Italiyada paydo bo‘lgan. 1213-yilda maktab universitet maqomini olib, Yevropa tibbiyot markaziga aylangan. Malakali shifokorlar Gippokrat va Galen asarlari hamda davolash uslublaridan xabardor edi. XII asrda Salernoda **“Kasalliklarni davolash to‘g‘risida”** risolasi yozilgan. XII asrdan boshlab Sharq allomalari Abu Ali ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziylarning asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa tibbiyotida foydalanila boshlandi. Kasalliklar ko‘p tarqalgan davrda shaharlar karantinga olingan. Karantin (italyan tilida qirq kun ma'nosini bildiradi) chegara hududlarida odamlar va tovarlarni 40 kun davomida ushlab turishni anglatadi. Karantin birinchi marta XIV asrda Italiyaning port shaharlarida joriy qilingan.

O‘rta asrlarda kasalliklarni dorivor giyohlar va qon quyish orqali davolashga harakat qilishgan. Inson tanasi haqida bilimlar juda cheklangan edi. Xanjar, arra, pichoqlar, issiq dazmollar va qon quyish uchun o‘tkir tig‘lar jarrohlik asboblari bo‘lib, ularning hech biri tibbiy tozalanmagan. Operatsiyalar vaqtida og‘riqni qoldiruvchi vositalar deyarli bo‘lmagan. Odatda badavlat odamlarga giyohlardan tayyorlagan tinchlantiruvchi dorilar berilgan bo‘lsa, kambag‘allarga bir bo‘lak yog‘och tishlatilgan xolos.

## SO‘ZLASHUV TILI VA DIN

O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa aholisi roman (lotin) tilidan kelib chiqqan ingliz, fransuz, nemis, italyan, portugal, ispan tillarida va lahjalarida so‘zlashgan. Lotin tili o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada rasmiy hujjatlar, cherkov xizmatlari va ibodatda foydalaniladigan tilga aylandi. Sharqiy Yevropa aholisi slavyan tillari guruhiga kiruvchi rus, ukrain, belarus tillarida so‘zlashar edi. Ushbu tillar hind-yevropa tillari oilasiga mansub.

O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada kundalik hayot katolik cherkovi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ruhoniylar maktablar va kasalxonalarni boshqargan. Ular cherkovlarda nikoh va dafn marosimlarini o‘tkazgan, tug‘ilish va o‘limlarni qayd etib borishgan. Yakshanba va diniy bayram kunlarida odamlar ommaviy ravishda ibodatga borishgan.



*Cherkovga borayotgan kishilar*

**ATAMALAR IZOHI**

***Lord*** *– o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada yirik mulkdorlar, zodagonlar, gersog va graflarga nisbatan hurmat ma’nosida ishlatilgan.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***O‘rta asrlarda Yevropada qanday ijtimoiy tabaqalar mavjud edi?***
2. ***Aholining turmush tarzi, uy xo‘jaligi, ovqatlanish, tibbiyot, kiyinish madaniyatida qanday jarayonlar yuz berdi?***
3. ***O‘rta asrlar Yevropa jamiyatida bazmlar va ritsarlar musobaqalarining ahamiyati qanday edi?***
4. ***Aholining kundalik turmush tarzi va hayotida so‘zlashuv tili, din, cherkov va ibodat qanday ahamiyatga ega edi?***
5. ***O‘zbekiston va Jahon tarixi darsliklaridan o‘rgangan bilimlaringiz asosida o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa va Movarounnahr aholisining kundalik hayotini taqqoslang.***



## 20-mavzu

# XIII–XV asrlarda Yevropa iqtisodiy rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Yevropada shahar va shaharliklar hayoti;
- Qora o‘latning tarqalishi va uning qit’aga salbiy ta’siri;
- O‘rta asrlar gildiyalari va ularning inqirozga yuz tutishi;
- Yarmarka, bank va birjalarning vujudga kelishi.

## YEVROPADA SHAHAR VA SHAHARLIKLAR HAYOTI

Rivojlangan o‘rta asrlarda Yevropada yangi shaharlarning vujudga kelishiga bir qator omillar sabab bo‘lgan. Birinchidan, feodal urushlar va boshqa tashqi xavfli omillar aholini o‘zini himoyalashga doir chora-tadbirlarni ko‘rishga majbur etgan. Ikkinchidan, qit’ada savdo va hunarmandchilikning tobora rivojlanishi yangi shaharlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. O‘rta asr shaharlari dastlab feodal yerlarida paydo bo‘lgani bois aholining ko‘pchiligi zodagonlarga bo‘ysunishga majbur edi. Shahar aholisining aksariyati hunarmand, savdogar, sobiq xo‘jayinlaridan qochgan xizmatkor va qaram dehqonlardan iborat bo‘lgan. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa shaharlari ancha kichik bo‘lgan. Odatda shaharlarning ming nafardan besh ming nafargacha aholisi bo‘lgan. XIV–XV asrlarda ham 20–30 ming aholisi bo‘lgan shaharlar yirik hisoblangan. Konstantinopol, Parij, Milan, Florensiya, Kordova, Sevilya kabi shaharlar aholisi 80–100 ming kishidan oshgan. Shaharlar atrofdagi qishloqlardan tashqi ko‘rinishi va aholisining zichligi bilan farq qilar edi. Aholining ehtiyojlari oshib borishi bilan uylar yoniga emas, balki yuqoriga qarab o‘sib borib, ko‘p qavatli uylar barpo etilgan. XIV asrga qadar shahar uylarining bir qismi toshdan, asosiy qismi esa yog‘ochdan qurilgani bois yong‘in chiqqanida, juda katta talafot ko‘rilar edi. O‘rta asrlar shaharlari tor, aylanma ko‘chalardan iborat bo‘lib, uylar bir-biriga qarama-qarshi, ba’zida ikkinchi va uchinchi qavatlar ko‘chalar ustida ham qurilgan edi. Bu davr Yevropa shaharlari nafaqat savdo va hunarmandchilikda, balki dengizchilikda ham yetakchi mavqeni egallagan. Shu tariqa Yevropa qit’asining iqtisodiy rivojlanishida shaharlarning o‘rni katta bo‘lib, ular XIII–XV asrlarda Yevropa taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdilar.



### O‘YLANG VA XULOSA QILING!

*O‘rta asrlar shaharlarining atrof-muhiti turli omillar tufayli ifloslanib turgan. Xususan, turli maishiy va uy hayvonlari axlatlarining ko‘chaga tashlanishidan, xonadonlarni isitishda foydalanilgan ko‘mir tutunidan havo, shuningdek, turli kasb egalarining ustaxonalaridagi ishlab chiqarish chiqindilaridan daryo va ariqlardagi suv ifloslangan. Shu nuqtayi nazardan shahar aholisi ichimlik suvi uchun daryolardan emas, balki quduqlardan foydalangan.*



## QORA O‘LATNING TARQALISHI VA UNING QIT’AGA SALBIY TA’SIRI

O‘rta asrlar Yevropa tarixidagi eng dahshatli ofat – qora o‘lat edi. Bubon vabosi deb atalgan bu kasallik qora kalamushlardan tarqaldi. Italiya savdogarlari o‘latni 1347-yil oktyabr oyida Qora dengizdagi Kaffa shahridan Sitsiliya oroliga olib kelishdi. Vabo 1350-yil oxiriga kelib butun Yevropaga yoyildi. Yevropa aholisining sha-



*Vabo paytida shifokor himoya kiyimi*

harlarda zich joylashuvi, tibbiyotning rivojlanmaganligi va epidemiyaning oldini olish choralari yetarli darajada ko‘rilmaganligi bois qit’ada kasallik keng tarqalib ketdi. Shu tariqa ushbu kasallik O‘rta dengiz atrofiga, undan butun Yevropa – Angliya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Shimoliy Afrika va Gretsiyaga, hattoki Skandinaviya mamlakatlari va Grenlandiyagacha yetib bordi. 1347–1351-yillarda Yevropaning 75 million aholisining uchdan bir qismi vabodan qirilib ketdi. Birgina Angliyada vabo tufayli mingga yaqin qishloq yo‘q bo‘lib ketdi. Qora o‘lat shunchalik dahshatli ediki, ko‘p joylarda dafn marosimini o‘tkazadigan kishilar qolmagan edi. Omon qolgan odamlar esa, nisbatan xavfsiz bo‘lgan boshqa hududlarga ko‘chib ketishdi. Vabodan so‘ng Yevropa aholisining tiklanishi uchun taxminan 250 yil kerak bo‘ldi. Qora o‘lat o‘tib ketgandan so‘ng, odamlar o‘z hayotlarini qayta qurish va tiklashni boshladilar. Vabo Yevropa iqtisodiyotini tubdan o‘zgartirdi. Savdo qisqardi, ishchi kuchi oz bo‘lganligi uchun ish haqi keskin oshdi. Aholining kamayishi oziq-ovqatga bo‘lgan talabni kamaytirdi va narx tushdi. Amalda erkin dehqonlar ko‘paydi. Vabo ham salib yurishlari singari feodal tuzumni zaiflashtirib, Yevropa jamiyatini o‘zgartirishga yordam berdi.



*Shifokor qabulida*






**BUNI YODDA SAQLANG!**

*XI asrdan boshlab hunarmandlar o‘zlarining gildiyalari (hunarmand yoki savdogarlar uyushmasi) ni tashkil qila boshladilar. Gildiyalar shaharlarning iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynagan.*

## O‘RTA ASR HUNARMANDCHILIK GILDIYALARI VA ULARNING INQIROZGA YUZ TUTISHI

Savdoning rivojlanishi bilan shaharlar gazlama, metallsozlik, poyabzal, charm buyumlar kabi keng turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning muhim markazlariga aylandi.



XIII asrga kelib deyarli har bir hunarmandchilikka ixtisoslashgan guruhlarning (ko‘nchi, novvoy, shoyi, ziravorlar yoki jun sotuvchi va hokazolar) savdogarlarniki kabi alohida gildiyalari mavjud edi. Gildiyalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotning soni, sifati uchun me’yorlarni hamda sotish narxini ham belgilab bergan. O‘rta asrlarda hunarmandlar ustaxonasini o‘z uyida tashkil etgan bo‘lib, birinchi qavatda ustaxona va do‘kon, ikkinchi qavatda oilasi joylashgan. Ustalar, odatda, o‘zlariga shogird olishgan. Shogirdlarga maosh berilmagan, lekin ular xo‘jayinlari tomonidan yotoqjoy va oziq-ovqat bilan ta’minlangan. Shogird shartnomada belgilangan muddatdagi xizmatni o‘taganidan so‘ng, ma’lum bir kasb egasiga aylangan xalfalik maqomiga yetgan. Shundan so‘ng ustadan maosh olib faoliyatini davom ettirgan. Shu o‘rinda xalfalar ham usta bo‘lishga intilganlar. Buning uchun ular o‘z hunari bo‘yicha imtihondan o‘tishgan. Mazkur imtihonda xalfaning usta deb e’lon qilinishi, gildiyalikka a’zo bo‘lishi yoki malakasi yetarli emasligi haqida qaror chiqarilgan. O‘rta asrlar savdogarlari va hunarmandlari o‘zlarining umumiy manfaatlarini himoya qilishda gildiyalardan foydalanishgan. Ayni vaqtda gildiyalar mahalliy hududda ishlab chiqarish va tijorat faoliyati



ustidan monopoliyaga erishganlar. Ular o‘rnatgan qoidalar o‘z a’zolarini boshqa shahar hunarmandlaridan, hattoki o‘zaro raqobatdan himoya qilishga qaratilgan edi.

Gildiyalar mohir hunarmand va savdogarlar sonini ko‘paytirish orqali dastlab Yevropa iqtisodiy tizimining rivojlanishiga yordam berdi. Ammo XIV asrning o‘rtalariga kelib G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqarish va savdo munosabatlarining yuqori darajaga ko‘tarilishi hunarmandchilik gildiyalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Oqibatda ba’zi hunarmandchilik sohalari raqobatga dosh bera olmay inqirozga yuz tutdi. Buning ustiga o‘rnatilgan gildiya nizomlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish va zamonaviy dastgohlar bilan ta’minlashga to‘sqinlik qila boshladi. Bundan tashqari, iqtisodiy jihatdan orqaga ketayotgan hunarmandchilik gildiyalari yirik savdogarlarning ta’siriga tushib qolib tamomila inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Bu omillarning barchasi hunarmandchilik gildiyalarini samarasiz holatga keltirib qo‘ydi. Bu davrdagi ayni iqtisodiy jarayonlar hunarmandchilik gildiyalarining feodalizmdan yangi iqtisodiy tizimga o‘tishini taqozo qilar edi. XVI asr boshlariga kelib, yirik boylar o‘zlarining dastlabki fabrikalarini tashkil qila boshladilar. Hunarmandchilik gildiyalari fabrikalarning keng ko‘lamli ishlab chiqarish samaradorligi bilan raqobatlasha olmadi va bu tizim asta-sekin yo‘qola bordi.

## YARMARKA, BANK VA BIRJALARNING VUJUDGA KELISHI



*O‘rta asr tanga pullari*

Yevropada xalqaro savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi bilan X–XII asrlarga kelib ulgurji hamda chakana savdoni amalga oshirish uchun yarmarkalar vujudga keldi. Yarmarkalar turli shaharlarda yiliga bir yoki bir necha marta bo‘lib o‘tadigan yirik tadbir bo‘lib, unga butun Yevropadan va hatto dunyoning boshqa mamlakatlaridan savdogarlar, hunarmandlar hamda sayohatchilar kela boshladi. Yarmarkalarda oziq-ovqat, kiyim-kechak, kulolchilik, charm, metall, zargarlik buyumlari, kitoblar va boshqa mahsulotlar sotilgan. Yarmarkalarda sahna ko‘rinishlari, sirk tomoshalari va turli ko‘ngilochar tadbirlar ham uyushtirilgan. XIII–XIV asrlarda Yevropada yirik yarmarka va savdo markazlari mavjud edi. Eng yirik yarmarka, shubhasiz, XII–XIV asrlarda faoliyat yuritgan Shampan yarmarkasidir. Yarmarkalar Shampan grafligining Trua, Provans, Lan, Bar shaharlarida iyul oyida boshlanib, kelgusi yilning iyun oyida tugagan. Yarmarkalarda, savdo markazlariga turli hududlardan savdogarlarning kelishi sarroflarga bo‘lgan ehtiyojni oshirgan. Sarroflar belgilangan haq evaziga savdogarlarning pullarini yarmarkada amal qilinadigan pullarga almashtirib berganlar. Shaharlarning rivojlanishi va savdoning o‘sishi pul ayirboshlash hajmini ko‘paytirib, sarroflarda asta-sekin ko‘p miqdorda mablag‘ to‘planib borgan. Ayni vaqtda savdosini rivojlantirishga urinayotgan yoki xonavayron bo‘lgan savdogarlar sarroflardan yuqori foiz evaziga qarz ola boshlaganlar. Shunday qilib, pul almashtiruvchilar va qarz beruvchi sarroflar ma’lum foiz evaziga qarz beruvchi dastlabki bankirlarga aylanishgan. Yevropadagi dastlabki zamonaviy ko‘rinishdagi bankka 1407-yil Italiyada asos solingan.



*O‘rta asrlar yarmarkasida savdo*

XV asrda savdo ehtiyojlarini hisobga olgan holda, Italiyadagi Medichilar, Germaniyadagi Fuggerlar va Fransiyadagi Jak Kyor kabi bir qator savdogar oilalar ko‘p qirrali hamda keng ko‘lamli bank faoliyatiga ixtisoslasha boshlaganlar.

XII–XV asrlarda Venetsiya, Genuya, Florensiya, Shampan, Bryugge va Londondagi yarmarkalarda dastlabki birjalar paydo bo‘la boshlagan. Ilk birja Bryuggeda (hozirgi Belgiyada) Van der Burse oilasining uyi yonidagi maydonda bo‘lib o‘tgan. Bu jarayonga boshchilik qilgan Burselar oilasining gerbida tasvirlangan uchta charm hamyonga ishora tarzida savdogarlarning bu yig‘ini **“burse”**, keyinchalik **“birja”** deb atalib ketilgan. Shu tariqa aynan shu yerda, hozirgi Belgiya hududida 1406-yilda birinchi birja tashkil etilgan. Savdoning rivojlanishi pul mablag‘larini bir joydan xavfsiz o‘tkazishga ham, tijorat kreditiga ham ehtiyoj tug‘dirdi. O‘rta asrlarda pullar erkin almashtirilmagan. Davlatlar ichki qonunlaridan kelib chiqib, xorijiy pullarning mamlakat ichida muomalada bo‘lishini va o‘z tangalarini boshqa davlatlarga olib chiqilishini taqiqlagan. Bunday vaziyatda savdogarlar bir hududdan ikkinchisiga pul o‘tkazish uchun vekseldan foydalana boshlaganlar. Bu iqtisodiy munosabatlarda savdogarlar sarroflar orqali vekselni yana naqd pulga almashtirishgan.

**ATAMALAR IZOHI**

***Bank*** *(ital. banco) – sarrof peshtaxtasi, sarroflar almashish uchun tangalarni terib qo‘yadigan stol.*

***Veksel*** *(nemischa, almashtirish) – o‘rta asrlarda valyuta ayirboshlash jarayonida savdogar sarrofga ma’lum miqdordagi pulni topshirganidan so‘ng unga shu miqdordagi mablag‘ni boshqa joydan olish uchun berilgan yozma hujjat.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Qora o‘latning tarqalishi qit’adagi iqtisodiy jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatdi?***
2. ***Gildiyalarning qaysi xususiyati oxir-oqibat ularni tanazzulga olib keldi?***
3. ***Kyoln shahridagi shoyi to‘qish gildiyasi nizomida shunday deyilgan: “Ustaxona qoidalariga muvofiq bo‘lmagan ipak mato ishlab chiqarilganligi aniqlansa, hunarmand jarima to‘lashga hukm qilinadi va mato oqsoqollar huzurida qiyqimlanib tashlanadi”. Ushbu qoidalarning maqsadi nima edi?***



Xitoy savdo kemasi

## 21-mavzu

# Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari iqtisodiy hayoti

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy jarayonlar;
- Afrika mamlakatlaridagi iqtisodiy hayotning o‘ziga xosligi;
- Amerika xalqlari iqtisodiy hayoti.

## OSIYO MAMLAKATLARIDA IQTISODIY JARAYONLAR



*Qog‘oz pullarni chop etish qolipi*



*O‘rta asrlar Xitoy tanga pullari*

XIII asrda mo‘g‘ullarning Sharqdagi qator mamlakatlarga keng miqyosdagi harbiy yurishlari Osiyo mintaqasida ulkan iqtisodiy inqirozni yuzaga keltirdi. Mo‘g‘ullar tomonidan Sharqning mashhur Buxoro, Samarqand, Nishopur, Ray, Isfahon va boshqa shaharlari vayron etildi. Mo‘g‘ul bosqiniga uchragan hududlar yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida tanazzulga yuz tutib, iqtisodiy taraqqiyotdan ortda qoldi. Ammo Buyuk ipak yo‘li savdosining ahamiyatini tushungan mo‘g‘ullar sekinlik bilan bo‘lsa-da qit’alararo yaxlit savdo tizimini qayta yo‘lga qo‘yish, savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlashga harakat qilishdi. Savdo ishida, ayniqsa, moliyaviy bilimi va tajribasi kuchli bo‘lgan turkistonlik savdogarlardan unumli foydalandi. Natijada ichki va tashqi savdo rivojlanib, davlat daromadi oshib bora boshladi. Bu vaqtda Osiyo mamlakatlari nafaqat quruqlik, balki dengiz savdosiga ham alohida e’tibor berdi. Jumladan, Xitoy, Yaponiya, Usmoniy turklar dengiz savdosini rivojlantirish orqali iqtisodiy yuksalib bordi. Xususan, Yaponiyaning dengiz orqali savdosida Xitoy alohida o‘rin tutib, u yerdan harbiy qurollar, ipak mato, paxta, mis olib kelingan. XIII–XIV asrlarda Yaponiyaning g‘arbida joylashgan Suruga, Xakata va Osaka shaharlarida yirik portlar paydo bo‘lib, Xitoy, Koreya bilan savdo munosabatlarini yanada rivojlantirdi. Mintaqaning yirik davlatlaridan biri bo‘lgan Xitoyni esa Indoneziya, Hindixitoy, Hindiston, Fors ko‘rfazi va arab mamlakatlari bilan savdo aloqalari ko‘proq qiziqtirgan. Xitoydagi Yuan sulolasi davrida 1307-yili Suy Yangchyuy boshchiligidagi savdo kemalari Fors ko‘rfaziga, 1334-yili Van Dayuan rahbarligidagi savdo kemalari Arabiston yarimoroliga yuborilgan. Min sulolasi davrida esa Chjan Xe yetti marta dengiz safariga chiqib, Indoneziyadan tortib Arabiston yarimoroli, Afrikaning sharqiy qismlarigacha sayohat qilgan. U sayohatlari davomida yirik hajmdagi savdo ishlarini yuritib, ipak matolar, choy, chinni





idishlar va boshqa xitoy mollarini sotishdan katta daromad ko‘rgan. O‘rta asrlarda janubiy va sharqiy Osiyoning Kamakura, Kioto, Pekin, Nankin kabi yirik shaharlari tez rivojlandi. Bu davrda Makka, Bag‘dod, Dehli, Samarqand, Buxoro, Nishopur, Ray, Sheroz, Damashq, Istanbul kabi shaharlarda qal’a, saroy, masjid, madrasa, kutubxonalar qurildi. Ayni paytda Osiyo shaharlari hunarmandchilik markazlari ham edi. Hunarmandning ustaxonasi va do‘koni bir joyda bo‘lib, asosan bozor atrofida joylashgan. Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng, O‘rta Osiyo va Eronda ipak hamda shoyi matolar, qimmatbaho gilamlar ishlab chiqarish qayta jonlandi. Bu davrda metall buyumlardan qilich, xanjar, oybolta kabi o‘tkir tig‘li qurollar, sovut, dubulg‘a kabi himoya vositalarini yasaydigan hunarmandlarga talab katta bo‘lgan. Kulolchilik buyumlari, teridan tayyorlangan charm, poyabzal va ot jabduqlari asosan ichki bozor uchun ishlab chiqarilgan. Bu davrga kelib Xitoyda sholi va ipak tayyorlash, gazlamalarga pardoz berish, qog‘oz, shisha ishlab chiqarish, chinni tayyorlash hamda kon sanoati tez rivojlangan. Min sulolasi davrida qo‘l mehnatiga asoslangan yirik hunarmandchilik tarmoqlari (chinni ishlab chiqarish) yuzaga kelib, ularda qullar va qaram kishilar mehnatidan foydalanganlar.



## AFRIKA MAMLAKATLARIDA IQTISODIY HAYOTNING O‘ZIGA XOSLIGI



### O‘YLANG VA XULOSA QILING!

***Agar siz u yerda bo‘lganingizda...***

*Siz savdogarsiz, karvonda shimoldan G‘arbiy Afrikaga sayohat qilyapsiz. Karvonda eng qimmat mahsulot – bu tuz. Tuz shunchalik qimmatliki, odamlar uni oltinga almashtiradilar! Siz tuzni oltinga almashtiradigan sirli odamlarni hech qachon uchratmagansiz. Siz ularning vakili bilan gaplashib, mahsulotlarni ayirboshlash manzilini kelishib olasiz. Nima uchun savdogarlar bunchalik yashirin holatda ish olib borgan deb o‘ylaysiz?*



*O‘rta asrlar*
*Afrika tanga pullari*

Gana imperiyasi Niger va Senegal daryolari o‘rtasida joylashgan bo‘lib, uning hukmdorlari avvalo savdoni rivojlantirishga va undan katta foyda olishga urinishgan. Gana mintaqaning eng qimmatli boyliklari – oltin va tuz savdosini amalga oshirish markazi edi. Oltin janubdan, Gvineya ko‘rfazi va Niger bo‘ylab joylashgan konlardan, tuz esa shimoldagi Sahrodan kelgan. Ganada savdogarlar o‘rtasidagi oltin va tuz ayirboshlanishi o‘ziga xos tarzda, “so‘zsiz” amalga oshirilgan.

Shimol va janub savdogarlarining savdolashish manzili bo‘lgan Gana savdo yo‘llarining nazorat qilinishi natijasida mamlakat haddan tashqari boyib ketgan.



Ganaga tuzdan tashqari shimoldan bug‘doy, janubdan qo‘y, qoramol va asal olib kelinib, mahalliy mahsulotlar, jumladan, charm, gazlama, mamlakatning maxsus qimmatbaho buyumi – tilla ipdan tikilgan to‘qmoq evaziga ayirboshlangan. Savdoning o‘sishi bilan Gananing iqtisodiy qudrati ham ortib borgan. Gana poytaxti **Kumbi Sale** G‘arbiy Afrikadagi eng yirik shaharlardan biri bo‘lib, bu yerga kelgan sayohatchilar o‘z bozorlarida sotiladigan mintaqaning barcha mahsulotlarini topishlari mumkin edi. Gana singari, Mali ham tuz va oltin savdosini nazorat qilish orqali boy va qudratli davlatga aylandi. Mansa Muso davrida mamlakat boylik, kuch va shon-shuhrat cho‘qqisiga chiqdi. Uning davrida Tombuktu, Gao va Jenne kabi ko‘plab muhim savdo shaharlari har tomonlama yuksaldi. 1324-yili Muso haj ziyoratiga ketayotib 300 pud oltinni yo‘l-yo‘lakay hadya qilib borishi natijasida katta shov-shuv ko‘tarilgan. Tarixchi Shihod al-Umariyning ta’kidlashicha, Muso odamlarda shunday taassurot qoldirganki, Mali butun Afrika, Osiyo va Yevropada mashhur bo‘lib ketgan.

### BILAG‘ONLAR UCHUN

*“So‘zsiz” ayirboshlash – bu savdogarlarning bir-birlari bilan bevosita aloqa qilmasdan mahsulot almashish jarayoni bo‘lib, bu usul oltin konlarining aniq joylashuvini tuz savdogarlaridan sir saqlash maqsadida amalga oshirilgan. “So‘zsiz” ayirboshlash jarayonida avval tuz savdogarlari oltin konlari yaqinidagi daryo qirg‘og‘iga borib, u yerga qator qilib tuzlarni terib qo‘yishgan va savdo boshlanganini bildirish maqsadida nog‘ora chalingan. Keyin tuz savdogarlari daryo qirg‘og‘idan bir necha chaqirim orqaga borib turishgan. Ko‘p o‘tmay, oltin qazib oluvchilar qayiqda yetib kelishib, qoldirilgan tuz evaziga o‘zlari hisoblagan oltinni tuzning yoniga qo‘yishgan. Shundan keyin konchilar ham tuz savdogarlari qaytishlari uchun bir necha chaqirim orqaga ketishgan. Agar tuz savdogarlari konchilar tomonidan qoldirilgan oltin miqdoridan mamnun bo‘lishsa, belgilangan nog‘ora kuyini chalishib, oltinni olib ketishgan. So‘ngra konchilar ham qaytib kelib, tuzlarini olib ketishgan. Savdo ikkala tomon ham almashinuvdan mamnun bo‘lmaguncha davom ettirilgan.*





## AMERIKA XALQLARI IQTISODIY HAYOTI

Atsteklar ulkan davlat barpo etib, bosib olingan qabilalarni oltin, paxta, oziq-ovqat va boshqa turli mahsulotlar bilan o‘lpon to‘lashga majbur qilishi natijasida qudrati yanada oshib borgan. Bundan tashqari, Atstek iqtisodiyoti mamlakat bo‘ylab yoyilgan savdo tizimidan boj olish orqali ham katta daromad ko‘rgan. Chunonchi, poytaxt Tenochtitlandagi ulkan bozorda mamlakatning turli burchaklaridan kelgan savdogarlar bilan aholi o‘rtasida keng savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgan. U yerda, ayniqsa, oltin, kumush, qimmatbaho tosh va har xil oziq-ovqat mahsulotlari savdosi qizg‘in kechgan. Ma’lumki, atstek-lar poytaxti Tenochtitlanni katta orolda barpo etishgan. Bu esa poytaxtga kelib-ketish va savdo-sotiq ishlarida qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan. Shu bois shaharni qirg‘oq bilan bog‘laydigan uchta keng yo‘l qurilgan. Yo‘llar tuproq bilan qoplangan toshlardan barpo etilgan. Tenochtitlan ko‘l suvi bilan o‘ralgan bo‘lsa-da, bu suv iste’molga yaroqsiz bo‘lgan. Shuning uchun toshdan suvo‘tkazgich va kanallar barpo etilib, poytaxtga suv olib kelingan. Poytaxt ichidagi kanallar tarmog‘i shaharga savdo mahsulotlarini olib kirish va turli dahalarini o‘zaro bog‘lashga ham xizmat qilgan. Atstek davlati iqtisodiyotining yana bir muhim qismi dehqonchilik bo‘lgan. Ammo Tenochtitlan orolda joylashganligi bois dehqonchilik uchun yerlar nihoyatda kam edi. Shu sababli atsteklar dehqonchilik uchun ko‘proq yerga ega bo‘lish maqsadida **chinampa** deb nomlangan “suzuvchi dalalar”ni ixtiro qilishgan. Ko‘lning sayoz bo‘lgan botqoqli qismlariga qator yog‘och qoziqlar qoqilib, bu maydon savatga o‘xshash qamish devor bilan o‘rab olingan. Shundan so‘ng bu sun’iy orol bir metr qalinlikdagi loy va qamish to‘shamalar bilan to‘ldirilgan. Har bir chinam-



pa to‘rt burchakli yer bo‘laklaridan iborat bo‘lib, eng kichigining eni 1,5 metr, uzunligi 15 metrgacha, eng kattalarining eni 4–10 metr, uzunligi 100 metrgacha bo‘lgan. Sun’iy orollarda qamishdan yasalgan uylarda dehqonlar oilalari bilan istiqomat qilishgan. Dehqonlar uchun har bir o‘simlikni ekish vaqti qat’iy belgilangan bo‘lib, masalan, sentyabrda qalampir, oktyabrda pomidor, fevralda qovoq ekilgan. Shu tariqa chinampalardan yil davomida hosil olingan.



*Chinampa suzuvchi oroli*

Inklar ham atsteklar singari bosib olgan hududlarining dehqonchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniy yutuqlarini o‘zlashtirib olganlar. Masalan, tik tog‘larda yoki sohil bo‘ylarida dehqonchilik qilishlari uchun sug‘orish tizimlarini ishlab chiqqanlar. Asta-sekinlik bilan aholi ko‘payib borib, shaharlar bunyod etila boshlandi. Bu shaharlarda to‘qimachilik, kulolchilik, zargarlik kabi hunarmandchilik sohalari rivojlangan. Inklarning aksariyati dehqon bo‘lib, ular iqlimi iliq bo‘lgan vodiylarda makkajo‘xori, yeryong‘oq, salqin tog‘larda esa kartoshka yetishtirganlar. Eng baland tog‘larda yashovchi odamlar esa go‘sht va jun olish uchun lamalarni boqishgan. Ana shu sharoitda inklarda mamlakat iqtisodiyoti o‘ziga xos ravishda tashkil etilgan. Unga ko‘ra, fuqarolar soliq to‘lamagan, balki hukumat tomonidan topshirilgan ishni bajarib, ma’lum bir mehnat majburiyatini o‘tashgan. Ushbu tizim **mita** deb nomlangan. Mita tizimi orqali hukumat oldindan har bir xonadonga nima qilish kerakligini belgilab bergan. Mazkur tizimga ko‘ra kishilar o‘z xo‘jaliklarida ishlashdan tashqari hukumat belgilagan yerlarda dehqonchilik qilish, qo‘shin uchun mato ishlab chiqarish, go‘sht mahsulotlarini yetishtirish, konlarda ishlash, murakkab tog‘ sharoitida yo‘l qurish kabi ishlarni bajarishgan. Inklar davlatida bozorlar bo‘lmagan. Buning o‘rniga hukumat amaldorlari mita tizimi orqali yig‘ilgan mahsulotlarning bir qismini aholiga tarqatgan, qolgan qismini favqulodda vaziyatlar uchun poytaxtdagi omborlarda saqlagan.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Buyuk ipak yo‘li mamlakatlar o‘rtasidagi savdoni rivojlantirishda qanday ahamiyat kasb etgan?***
2. ***Mali Mansa Muso davrida qanday qilib iqtisodiy jihatdan taraqqiyotga erishdi?***
3. ***Atstek davlatida ixtiro qilingan “suzuvchi dalalar”ning ahamiyati haqida esse yozib keling.***
4. ***Inklar jamiyatida fuqarolarning soliq to‘lash o‘rniga ma’lum bir mehnat majburiyatini o‘tashi qanchalik to‘g‘ri bo‘lgan deb o‘ylaysiz?***



*Alkimyogar*

## 22-mavzu

# Yevropada ilm-fan

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Dunyo haqidagi tasavvurlarning kengayishi. Marko Polo sayohati;**
- **Yevropada maorif. Universitetlar faoliyati;**
- **Ilm-fanning taraqqiy etishi;**
- **Kitob bosishning ixtiro qilinishi.**

# DUNYO HAQIDAGI TASAVVURLARNING KENGAYISHI



*O‘rta asrlarda dunyo tushunchasi*



**BUNI YODDA SAQLANG!**

*Marko Polo Xitoydagi tangalardan tashqari qog‘oz pullarni, g‘ayrioddiy yonilg‘i manbasi bo‘lgan ko‘mir va boshqa shunga o‘xshash yangiliklar hamda ma’lumotlarni yevropaliklarga birinchi bo‘lib yetkazgan.*

O‘rta asrlar jamiyatida cherkov juda muhim rol o‘ynagan. Cherkov o‘zining diniy va axloqiy nufuzi bilan qirol hokimiyatining ilohiy kelib chiqishi haqidagi g‘oyani ilgari surgan hamda xalqni kamtarlik va itoatkorlikka chaqirgan. Bunda cherkov o‘zining ta’siri ostida bo‘lgan ta’lim va fan sohalaridan unumli foydalangan. O‘rta asrlarning ilmiy tafakkuri muqaddas kitob hisoblangan Injil va xristianlik dini nazariyotchilarining qarashlariga asoslangan. Eng muhim fan esa ilohiyot (teologiya) edi. Madaniyatning qolgan sohalari ham ilohiyotga xizmat qilishga yo‘naltirilgan. Cherkov odamlarga olamning tuzilishini o‘zining mafkuraviy maqsadiga moslab tushuntirgan. Unga ko‘ra, olamning markazida Yer joylashgan deya talqin etilgan. Dunyo haqidagi tasavvurlar ham xayoliy bo‘lib, Yer har tomondan okean bilan o‘ralgan g‘ildirak shakliga ega deb taxmin qilingan.

O‘rta asrlar kishilari uzoq vaqtgacha turli mamlakat va jonzotlar haqida, asosan, cherkov tomonidan talqin qilingan tor doiradagi dunyoqarash bilan kun kechirishgan. G‘arbiy Yevropada kishilar tasavvurlarining kengayishi, asosan, XIII asrga kelib keng ma’noda rivojlana boshladi. Bu rivojlanishning poydevori tajribaga asoslangan bilimlar doirasida yaratildi. O‘rta asrlar kishilarining dunyoqarashida mavhumlikka asoslangan bilimlar ustunlik qilar edi. Bilishning ilmiy usullari ishlab chiqilmagan bo‘lib, dunyo haqidagi bilimlar ko‘pincha fantastik tushunchalardan iborat bo‘lib qolgan edi. Dunyo haqidagi tasavvurlarning kengayishida Marko Poloning sayohati katta ahamiyat kasb etdi. Venetsiyalik savdogar Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab, ya’ni Yaqin Sharq, Eron, Markaziy Osiyo orqali yurib, Xitoyga yetib keladi. Marko Poloni Xitoyda Xubilayxon iliq kutib olishi bilan birga, uni yuqori amaldorlik darajasiga ko‘tardi. U Xubilayxonning elchisi sifatida Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyoning ko‘plab mamlakatlariga sayohatlar uyushtiradi. U umrining 20 yildan ortiq davrini Osiyoda sayohat qilish bilan o‘tkazadi. Va nihoyat Marko Polo Venetsiyaga qaytib keladi. Sayohatdan so‘ng Poloning maroqli hikoyalarga boy bo‘lgan kitobi chiqdi. Kitobda keltirilgan ma’lumotlar yevropaliklarning Osiyoga nisbatan qiziqishini yanada orttirdi. Shu tariqa bu kitob yevropaliklarning olam haqidagi tasavvurlarini yanada boyitdi.



# YEVROPADA MAORIF. UNIVERSITETLAR FAOLIYATI



*Universitet rektori*

O‘rta asrlar maktablarida diniy ta’lim bilan birga “Yetti erkin san’at” deb nomlangan dunyoviy fanlar ham o‘rgatilgan. U ikkita bosqichdan iborat edi. Birinchi bosqich trivium deb nomlanib, unda grammatika, ritorika, dialektika; ikkinchi bosqich – kvadriviumda esa arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa o‘qitilgan. Bu ta’lim tizimining mohiyati cherkov maqsadlariga yo‘naltirilgan edi. Masalan, ritorika – cherkov va’zlarini to‘plash uchun vosita sifatida, astronomiya – diniy bayramlarni hisoblash, grammatika – cherkov kitoblarini tushunish uchun zarur bo‘lgan fan hisoblangan. Rivojlangan o‘rta asrlarga kelib iqtisodiyotning taraqqiy etishi, davlat boshqaruvi ehtiyojlari va yevropaliklar madaniy saviyasining oshishi ta’lim tizimining rivojlanishi uchun turtki bo‘lib xizmat qildi. Asta-sekin Yevropaning eng yirik cherkov maktablari universitetlarga aylandi. Shu tariqa Yevropaning yirik ta’lim maskanlariga asos solina boshlandi. Xususan, Italiyada Bolonya, Fransiyada Parij, Angliyada Oksford, Kembrij universitetlari tashkil etildi. Universitetlar davlat va cherkov ehtiyojlariga xizmat qilgani bois ko‘p hollarda moliyaviy qiyinchiliklar yoki shahar hokimiyati bilan kelishmovchiliklar yuzaga kelganida ulardan yordam olgan. Universitet o‘z boshqaruviga ega bo‘lgan mustaqil tashkilot edi, ular o‘zining umumiy yig‘ilishida tasdiqlangan nizomlarga tayanib faoliyat yuritgan. Universitet o‘qituvchilari fakultetlarga birlashgan holda faoliyat ko‘rsatishgan. Shuningdek, saylov tizimi asosida fakultet o‘qituvchilari orasidan dekan, o‘qituvchi va talabalarning umumiy yig‘ilishida esa rektor saylangan.

Yevropadagi eng katta oliy ta’lim muassasasi Sorbonna universiteti edi. Ushbu universitetda san’at, huquqshunoslik, tibbiyot va ilohiyot deb nomlangan to‘rtta fakultet mavjud bo‘lgan. Talabalar fakultetlarda umumiy ta’lim, diniy axloqning asosiy me’yorlari, Injildan o‘qish va yozishni o‘zlashtirgandan so‘ng, Rim maktabidan meros bo‘lib qolgan o‘rta asrlarning “Yetti erkin san’ati” takomillashgan holda o‘rgatilgan. Tibbiy va huquqshunoslik ta’limi 5–6 yil, ilohiyotni o‘rganish esa kamida 8 yil davom etgan. Yevropada XV asrga kelib 80 ta universitet mavjud bo‘lib, har bir universitet o‘z kasbiy yo‘nalishiga ega edi. Masalan, Salamanka (Ispaniya), Monpelye (Fransiya), Salerno (Italiya) shaharlarida tibbiyot fanlari o‘rgatilgan, Bolonyada – huquq, Oksfordda matematika va astronomiyadan eng yaxshi dars berilgan bo‘lsa, Sorbonna universiteti ilohiyotchilarni tayyorlagan.



### BILAG‘ONLAR UCHUN!

*Universitetda o‘quv jarayoni ikki asosiy shakl – ma’ruza va bahs-munozaralar shaklida o‘tgan. Magistr dars jarayonida mavzuning qiyin joylarini tushuntirib, kerakli jumlalarni kitobdan ovoz chiqarib o‘qigan. Kitoblar qimmat va noyob bo‘lgani uchun ularni maxsus do‘kondan ozgina haq evaziga ijaraga olib, qo‘lda ko‘chirishgan. O‘qitish lotin tilida olib borilgan.*





*Sorbonna universiteti va uning birinchi nizomlari to‘plami*

## ILM-FANNING TARAQQIY ETISHI

Rivojlangan o‘rta asrlarda universitetlar ilmiy nufuzga asoslangan yirik tadqiqot markazlariga aylandi. XIII asr o‘rtalarida **Foma Akvinskiy** Arastu falsafasi va xristianlik ta’limotini tadqiq qilib, ilohiyot asoslarini mustahkamladi. Ilohiyot bilan bir qatorda alkimyo ham o‘rta asrlar Yevropa ilmiy madaniyatida muhim o‘rin tutar edi. Yevropada kimyo sohasiga oid birinchi asarlar **Rojer Bekon** va **Buyuk Albert** tomonidan yozilgan. Ularning ikkalasi ham oddiy metallarni oltinga aylantirish hodisasiga ishonishgan. Bu g‘oya butun o‘rta asrlar davomida kimyogarlarni turli tajribalarni o‘tkazishga undagan. Ana shunday intilishlar asosida Rojer Bekon tabiatda rang va yorug‘lik hodisasini o‘rgangan, birinchi optik linzalarni yaratish tajribasiga oid ishlarni amalga oshirgan.

XV asr olimlarining faoliyati tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Qadimgi mualliflarning tibbiyot, matematika va astronomiyaga oid asarlarining tarjimalari XV asrda tabiatshunoslik asoslarini rivojlantirdi. Texnik ixtirolar XV asrning oxiriga kelib tabiiy fanlar sohasidagi taraqqiyotni rag‘batlantirdi. Mashhur matematik Luka Pacholi



### BILAG‘ONLAR UCHUN

*Alkimyogarlar oddiy metallarni oltin yoki kumushga aylantira oladigan va inson umrini cheksiz uzaytirish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan moddani izlash bilan shug‘ullangan. Garchi alkimyogarlarning maqsadlari va qo‘llaydigan vositalari ko‘pincha xayoliy bo‘lsa-da, alkimyo har jihatdan zamonaviy ilm-fanning, ayniqsa, kimyoning asosiga aylandi.*



*Gutenbergning kitob bosish dastgohi*



*Bosmaxonada*

algebra, geometriya, hisob nazariyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning mashhur “Ilohiy nisbat to‘g‘risida” asari rassom va me’morlar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Lotin tili o‘rta asrlar sivilizatsiyasining ommaviy tili hisoblangan. Kishilarning cherkov va maktablarda qo‘llanilgan lotin tilini o‘rganishi ularga Yevropaning istalgan nuqtasida muloqot qilish imkonini berdi. Shunday bo‘lsa-da, rivojlangan o‘rta asrlarga kelib ko‘plab yangi adabiyotlar mahalliy xalq tilida – ispan, fransuz, ingliz, nemis kabi ma’lum bir mintaqadagi mahalliy tilda yozildi. Hikoyanavislar madh etgan xalq qahramonlari, odatda, o‘z yurti, xalqini himoya qilgan jangchilar bo‘lishgan. Shu tariqa **“Sid haqida qo‘shiq”** (Ispaniya, XII asr), **“Nibelunglar qo‘shig‘i”** (Germaniya, XII asr), **“Robin Gud haqida ballada”** (Angliya, XIV asr) kabi o‘rta asr qahramonlik eposlari paydo bo‘ldi.

XII–XIII asr Yevropa madaniyatida dunyoviy omillarning shakllanishi va rivojlanishida shahar adabiyoti katta rol o‘ynadi. Bu davrda Fransiyada fablio, Germaniyada shvank kabi adabiy janrlar paydo bo‘ldi. Ular asosan satirik xarakterga ega bo‘lib, oddiy odamlarning aql-zakovati va zukkoligi, sog‘lom aql-idrokini tarannum etish bilan birga zodagonlarning ochko‘zligi va buzg‘unchiligini, ruhoniylarning takabburligini masxara qilgan. Shahar adabiyotining rivojlanishi G‘arbiy Yevropa madaniy hayotida yangi hodisa – shahar madaniyatining butun G‘arb sivilizatsiyasining rivojlanishida juda muhim rol o‘ynaganligidan dalolat beradi. Shahar madaniyatining mohiyati inson hayotining barcha jabhalarida dunyoviy omillarning doimiy ravishda kuchayib borayotganligini ko‘rsatib berdi. Bu davrda shahar adabiyotining “Tulki haqida roman”, “Atirgul haqida roman” (Fransiya), “Pop Amis” (Germaniya) kabi satirik dostonlari paydo bo‘ldi. Germaniyada XIII asrda yaratilgan “Pop Amis” nomli novellada har qanday vaziyatdan unumli foydalanadigan aqlli ruhoniyning qiyofasida jamiyat muammolari ko‘rsatib beriladi. XII–XIV asrlar mahsuli bo‘lgan “Tulki haqida roman”ning asosiy hikoyasi – tulki obrazidagi aqlli Renar qo‘pol va qonxo‘r bo‘ri Izengrim (ritsar), kuchli, lekin befarosat ayiq Bren (feodal) ustidan doim g‘alaba qozonib, Arslon (qirol)ni aldab, eshak Boduenning (ruhoniy) ahmoqligini masxara qiladi. Bu bilan zodagon va ruhoniylarning oddiy kishilarga munosabati o‘tkir kinoya bilan tilga olinadi.



## KITOB BOSISHNING IXTIRO QILINISHI

Yevropada maorifning rivoj topishi, o‘z navbatida, kitoblarga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Poligrafiyadagi bu ulkan kashfiyot Iogann Gutenbergga tegishlidir. 1445-yili **Iogann Gutenberg** ixtiro qilgan bosma mashina va harf quyish dastgohi uning nomini jahonga tanitdi. Bu kashfiyot Yevropada ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shib, qit’a taraqqiyotining muhim omili sifatida madaniy rivojlanishda katta rol o‘ynadi.

## QO‘SHIMCHA MA’LUMOT

*I. Gutenberg mahalliy savdogar va o‘ziga to‘q hunarmand oilasida voyaga yetib, yoshligidayoq oilasi egalik qiladigan zarbxonada tanga pullarning zarb qilinishi, temir quyish, zargarlik sir-asrorlarini puxta o‘rganadi. Bu bilim va tajribalar insoniyat tarixida yangi sahifa ochilishiga yordam berdi. Shunday qilib, I. Gutenberg harf (liter) donalarini qog‘ozning ikki tomoniga bosish imkoniyatini beradigan poligrafiya formasi – kitob bosishni ixtiro qildi. Ya’ni har bir harf alohida bo‘lak bo‘lib, ishchi harflarni ramkaga sig‘dirishi, harflarga siyoh yoyishi va qog‘oz varag‘ini harflarga bosishi mumkin edi. Shu tarzda, bir vaqtning o‘zida butun sahifa chop etildi. Keyin ishchi yangi sahifa yaratish uchun ramkadagi harflarni o‘zgartirishi mumkin edi. Bu ixtiro yozishdan ko‘ra chop etish orqali tezroq kitob yaratish imkonini berdi.*



Iogann Gutenberg



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***O‘rta asrlar Yevropasida kishilarning olam haqidagi tasavvurlari qanday bo‘lgan?***
2. ***O‘rta asrlardagi ta’limning asosi bo‘lgan “Yetti erkin san’at”ning mohiyati nima edi?***
3. ***Universitetlarning tashkil topishi yevropaliklar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?***
4. ***Iogann Gutenbergning ulkan kashfiyoti bo‘lmaganida dunyoni qanday tasavvur qilgan bo‘lar edingiz?***



## 23-mavzu

# Yevropada me’morchilik va san’at

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Yevropa me’morchiligida roman va gotika uslublarining keng tarqalishi;
- Tasviriy san’at va haykaltaroshlikning rivojlanishi;
- O‘rta asrlarda teatr tomoshalari.



## ME’MORCHILIK SAN’ATI

O‘rta asrlarda Yevropada boshqa sohalarga qaraganda me’morchilik ayniqsa taraqqiy etdi. Bu davrdagi Yevropa me’morchiligida cherkovlar qurilishi yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Xususan, X–XIII asrlardagi cherkovlar roman uslubida qurilgan. **Roman uslubida** inshootlar tuzilishining asosini arkali gumbaz va minoralar tashkil etib, uning atrofidagi geometrik shakllar (kub, prizma, silindr va boshqalar) binoning yaxlit majmuyini hosil qilgan. Tosh tomlari juda og‘ir bo‘lganligi sababli, roman uslubidagi cherkovlarda tomni mustahkam ushlab turish uchun katta ustun va devorlardan foydalanishgan. Bu uslubda derazalar uchun kam joy qoldirilgani bois cherkov xonalari qorong‘i bo‘lib qolgan hamda qalin devor va baland ustunlar uni qal’alarga o‘xshatib qo‘ygan.

Vaqt o‘tishi bilan kuchli tayanchlar ustiga arkali gumbaz va uchli yoylar o‘rnatilgan keng, chiroyli inshootlar qurish an’anaga aylandi. **Gotika** deb nomlangan yangi uslub XII asrda paydo bo‘lib, XIII asrda mukammallikka erishdi. Gotika o‘rta asrlarning keng foydalaniladigan badiiy uslublaridan biri bo‘lib qoldi. Bu uslubdagi cherkovlar arkali (ravoqsimon) gumbaz va uchli minoralar (balandligi 150 m gacha bo‘lgan) bilan bezatilgan. Mazkur o‘zgarish quruvchilarga gotika cherkovlarini roman cherkovlaridan balandroq qilish imkonini berdi. Gotika uslubida inshootning osmono‘par tarzida bunyod etilishi kishilarda go‘yo bino Xudoga yetib borayotgandek taassurot uyg‘otgan. Bu davrga kelib xristianlik cherkovlarini katta va baland qilib qurish bo‘yicha shaharlar o‘rtasidagi raqobat yuzaga kelgan. Cherkov binosi qancha baland va salobatli bo‘lsa, bu shaharlarning kuchi va boyligi ko‘pligidan dalolat bergan.



### BUNI YODDA SAQLANG!

*Roman me’morchiligida Puatye, Arl, Tuluza (Fransiya), Vorms va Mayns (Germaniya), Oksford va Vinchester (Angliya) soborlari eng mashhur yodgorliklar hisoblanadi.*





*Sen Deni sobori bazilikasi*

Yana bir texnik yangilik sifatida binoning tashqi tomoniga toshdan yarim arka shaklidagi tayanch ustun o‘rnatilgan. Arka shaklidagi tayanch ustunlar cherkov tom qismining og‘irligini tashqi va pastga taqsimlash imkonini bergan. Bu roman uslubidagi cherkovlarning katta gumbazlarning og‘irligini ushlab turgan devorlarga bo‘lgan zaruratini yo‘qotgan. Shuning hisobiga inshoot yengil, mujassamotiga ko‘ra ko‘kka cho‘zilgan. Keyinchalik nisbatan yupqa devorlarga ega gotika cherkovlari ham qurilgan. Ular katta vaznga bardosh bera olmaganligi sababli, bu devorlar vitrajli oynalar bilan to‘ldirilgan. Bu derazalarda diniy manzaralar ham, kundalik hayot manzaralari ham tasvirlangan. Sobor derazalaridagi rangli shisha kun davomida quyosh nurini o‘tkazib, bino yorug‘ligini ta’minlab berish bilan birgalikda tabiiy yorug‘lik – Xudoning ilohiy nuri timsolida ham qabul qilingan. Gotika cherkovining yorug‘, baland, hashamdor ko‘rinishi odamlarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularda taqvodorlik hissini oshirishga xizmat qilgan. Gotika soborlari nafaqat ibodat qilish joylari, balki odamlar e’tiqodining ramzi ham edi. Natijada ular ulug‘vorlik va shon-shuhratning yuksak namunasi bo‘lib qoldi. Shu tariqa gotikaning tosh ibodatxonalari o‘zining mumtoz shakliga ega bo‘ldi. Bu uslubda binolarni tosh bilan aylantirib bezash odatiy hol edi, bu ochiq naqshlarning murakkab shakli alangaga o‘xshab yuqoriga intilgan. Dastlab Germaniyada toshning



### O‘YLANG VA XULOSA QILING!

***Agar u yerda bo‘lganingizda...*** *Siz tosh o‘ymakor ustaning yordamchisi bo‘lib ishlaysiz. Yepiskop ulkan yangi cherkovni loyihalash uchun xo‘jayiningizni yolladi. U inshoot vositasida jamoatni ilhomlantirishni va hayratda qoldirishni xohlaydi. Usta cherkovning tashqi qismini bezashni sizga ishonib topshirdi. Bu sizning dastlabki yirik loyihangiz bo‘lgani uchun biroz hayajondasiz. Berilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun qanday san’at asarini yaratasiz?*

yetishmasligi tufayli gotika uslubidagi inshootlar g‘ishtdan qurila boshlangan. Birinchi g‘ishtli gotika ibodatxonasi XIII asrda Lyubekdagi cherkovda bo‘lgan. Keyinchalik bu qurilish usuli tezda butun Yevropaga tarqalgan. Gotika inshootlari bir necha avlod odamlar tomonidan qurilgan, ba’zan bir asrga cho‘zilgan. Gotika san’atidagi Notr-Dam, Reyms va Shartr soborlari (Fransiya), Vestminster abbatligi va Linkoln sobori (Angliya), Milan sobori (Italiya) kabi diniy inshootlar bilan bir qatorda dunyoviy binolardan Bryusseldagi shahar meriyasi, Ambuazdagi Qirollik qal’asi (Fransiya) eng yaxshi yodgorliklar sirasiga kiradi.

O‘rta asrlarda feodal qal’alari ham muhim arxitektura inshootlaridan biri bo‘lgan. Bu mudofaa inshootlarining qurilishi ham o‘ziga xos ravishda rivojlanib borgan. Dastlab bu qal’alar yog‘ochdan qurilgan bo‘lsa, rivojlangan o‘rta asrlarga kelib toshdan qurila boshlandi. Dastlabki tosh qal’alar Italiya va Fransiyaning janubida bunyod etilgan. Feodal qal’alar mustahkam mudofaa inshooti sifatida qurilib, baland va qalin devorlar bilan o‘rab olingan. Qal’aning kirish darvozasini qo‘shimcha himoya qilish uchun istehkom – **barbakanlar** barpo etilgan. Bundan tashqari, qal’aga bostirib kelayotgan dushmanga qarata o‘q va tosh otish, qaynoq suv va mum quyishda mashikulilardan foydalanilgan.



## TASVIRIY SAN’AT VA HAYKALTAROSHLIK



Cherkov o‘z manfaatidan kelib chiqib, siyosat, ta’lim va san’atdan unumli foydalandi. Shu tariqa o‘rta asrlarda san’at, xususan, tasviriy san’at va haykaltaroshlik ham cherkov maqsadlariga yo‘naltirilgan holda rivojlandi. XIII–XV asrlarda qurilgan Yevropa me’morchiligining asosiy uslubi bo‘lgan gotika cherkovlari, avvalo, eski cherkovlarga qaraganda ancha baland edi. Devorlar ko‘pincha yuzlab metr balandga ko‘tarilib, shiftlar osmonga yetib borayotgandek edi. Gotika uslubidagi cherkov inshootlarining muhtasham va ko‘rkam bo‘lishida nafaqat quruvchi, sangtaroshlarning, balki haykaltarosh, vitraj rassomlarining ham alohida o‘rni bor. Gotika inshootlarining ichi va tashqarisi haykallar, diniy mavzudagi rasmlar hamda nafis tosh o‘ymakor naqshlar bilan bezatilgan. Vitrajlardan yasalgan ulkan derazalar quyosh nuri kirib, cherkovlarni ko‘zni qamashtiruvchi ranglar bilan to‘ldirgan. Odamlar ibodat qilish davomida cherkov mahobati va go‘zalligi oldida o‘zini ojiz his qilardi. Gotika me’morchiligi haykaltaroshlik va rangtasvirga yangi talablarni qo‘ydi.

Ko‘pincha balandligi bir necha metr bo‘lgan ulkan vitrajlar soborni bezash uchun ishlatilgan. Ularda odatda kitoblardan lavhalar, shahar turmush tarzi, ritsarlik musobaqalari va boshqa hayotiy epizodlar tasvirlangan. Haykaltaroshlar o‘z ijodini mukammal bir tarzda hayotiy tasvirlashgan. Haykallar azob-uqubat chekayotgani,





### BILAG‘ONLAR UCHUN

*XIII asr boshlarida qurilgan Fransiyaning shimolidagi Kusi qal’asi o‘z davrining mustahkam mudofaa inshooti sifatida mashhur bo‘lgan. Ushbu qal’aning ayniqsa markaziy minorasi murakkab, kuchli inshoot bo‘lib, uning balandligi 64 m, kengligi 31 m, devorlarning qalinligi 7 m ga yetgan. Qal’a atrofi keng va suv to‘ldirilgan chuqur xandaq bilan o‘ralgan. Minora tepasi bo‘ylab himoyachilar mashikulilardan dushmanni nishonga olishgan. Kirish darvozasi barbakan bilan himoyalangan. Bunday mudofaa inshootini egallash deyarli imkonsiz bo‘lgan.*

tushkun holati yoki baxtdan xursandligi kabi hissiy holatlarini aks ettirgan holda yasalgan. Cherkov talabi bo‘yicha rassom ham tasvir orqali tomoshabinga qahramonlar bilan nima sodir bo‘layotganini tushuntira olishi lozim edi. Shu jihatdan rassomlar obyekt va hodisalarni barcha oddiy jihatlarni inobatga olgan holda chizishgan. Bu davrda aksariyat odamlar savodsiz bo‘lib, ularga xristianlik dini haqida ma’lumot berishning eng yaxshi usuli rasm, tasvir va haykallar bo‘lgan. Bejizga o‘rta asrlarda “tasvir savodsizlar uchun adabiyotdir” deya ta’kidlanmagan edi. Barcha cherkov binolari Injildan olingan hikoyalarni aks ettirgan haykal, barelyeflar, rasm, vitraj, freska, ikonalar bilan bezatilgan. Masalan, Parijdagi Shartr sobori o‘n mingdan ortiq haykallar va turli rasmlar bilan bezatilgan. Cherkovlar tashrif buyuruvchilarda ibodat kayfiyatini yaratish maqsadida qurilgan. Binoning ulkan qilib qurilishi, uning haybatli va zalvarli ko‘rinishi oldida kishilar o‘zini ojiz his qilishgan. Ibodatxona ichkarisiga kirgan kishi imonga chorlovchi tasvir va haykallar bilan bezatilgan manzarani ko‘rib, o‘zini boshqa bir dunyoga tushib qolgandek his qilgan.



## TEATR SAN’ATI

O‘rta asrlarda Yevropada xristianlik dini keng tarqalishi va cherkovning jamiyatdagi barcha sohalarni o‘z nazoratiga olishi bilan teatr san’atining o‘sishiga to‘siq bo‘ldi. Cherkov xalqning sevimli tomoshalaridan biri bo‘lgan jonglyorlarning chiqishlarini yo‘q qila olmadi. Ammo ko‘p o‘tmay cherkov ham bunday teatr tomoshalarining ommaga ta’siri kuchini tezda angladi va dinning mohiyatini keng xalq ommasiga yetkazishda teatr san’atidan foydalana boshladi. Cherkov binosining ayvonlarida ruhoniylar tomonidan Injildagi voqealardan parchalar sahnalashtirila boshlandi. Sof diniy mazmundagi spektakllarning namoyishi cherkov ayvonlaridan asta-sekinlik bilan bozor maydonlariga ko‘cha boshladi. Keyinchalik Rim papasining farmoni bilan ruhoniylarning sahnaga chiqishi taqiqlanishi natijasida oddiy shahar aholisi aktyorlik vazifalarini bajara boshladi. Shuni



ta’kidlash joizki, o‘rta asrlarda san’at diniy omillar ta’sirida bo‘lishiga qaramay, kishilar ko‘proq o‘yin, kulgi, hazil va mutoyibaga moyil edi. Bunday zarurat sayyor aktyorlar guruhi tomonidan shahar va qishloqlarni kezib qo‘yiladigan teatr tomoshalariga talabni kuchaytirgan. Shu tariqa og‘ir hayot kechirayotgan kishilar hajviy she’r, hikoyalar, satirik va tarbiyaviy xarakterdagi tomoshalar orqali turmush tashvishlarini biroz unutishgan. Shaharlarda yarmarkalar, qishloqlarda esa mavsumiy bayramlarda ko‘ngilochar tomosha qo‘yishni kasb qilgan kishilar Fransiyada **jonglyor,** Germaniyada **shpilman,** Angliyada **menestrel** deb atalgan. Ular faoliyatining gullagan davri XIII–XV asrlarga to‘g‘ri kelgan. Jonglyor yoki shpilmanlar qit’a bo‘ylab kezib yurib, pichoq, uzuk, olma va boshqa buyumlar vositasida ko‘zboylog‘ichlik qilish, qo‘shiq aytish, raqsga tushish va musiqa asboblarini chalish hamda it, ot, maymun, yumronqoziq va boshqa hayvonlar orqali tomoshalar qo‘yishgan. Tomoshabinlarni yanada qiziqtirish uchun ertak va kichik kulgili hikoyalarni ham aytib berishgan. Sayyor teatr truppalarida masxaraboz, akrobat (murakkab mashqlarni bajaruvchi gimnastikachi yoki sirk artisti), dorboz, yovvoyi va uy hayvonlarini o‘rgatuvchilar, pakana va daroz kishilardan iborat bo‘lgan o‘z kasbining ustalari faoliyat yuritgan. XIV–XV asrlarga kelib qo‘g‘irchoqlar yordamida tomosha ko‘rsatish san’ati ham paydo bo‘lgan.

## ATAMALAR IZOHI

***Sobor*** *– xristianlikda oliy martabali ruhoniylar boshchilik qiladigan yirik ibodatxona. O‘rta asrlarda soborlar shahar markazidagi asosiy binolardan hisoblanib, tashqi va ichki qiyofasi me’moriy jihatdan gotika, roman uslubida mukammal qilib qurilgan.*

***Barbakan*** *– bu qal’a devoridan biroz bo‘rtib chiqqan dumaloq shakldagi minora bo‘lib, qal’ani qurshab olgan dushmanga qarata har tomonlama o‘q otishni ta’minlagan mudofaa inshooti.*

***Mashikuli*** *– qal’a devori va minoralarining yuqori qismida joylashgan, asosan vertikal o‘q otish uchun mo‘ljallangan ilmoqli bo‘shliqdan iborat mudofaa inshooti.*



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Xristianlik dinining mustahkamlanishida me’morchilikning o‘rni qay darajada bo‘lgan?***
2. ***O‘rta asrlarda san’at va din o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor edi?***
3. ***Xristianlik dinining mohiyatini o‘rta asr kishisiga yetkazishda haykaltaroshlik va rassomchilikning o‘rni qanday bo‘lgan?***
4. ***O‘rta asrlarda teatr san’atining rivojlanishiga sayyor teatr truppalari qay darajada hissa qo‘shishgan?***



*Franchesko Petrarka*

## 24-mavzu

# Ilk Uyg‘onish davri madaniyati

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- **Yevropada Ilk Uyg‘onish davri madaniyatining paydo bo‘lish omillari;**
- **Uyg‘onish davri madaniyatining o‘ziga xos jihatlari;**
- **Ilk Uyg‘onish davrida san’atning rivojlanishi;**
- **Yangi g‘oyalarning Shimoliy Yevropaga tarqalishi;**
- **Musiqa san’ati.**

## UYG‘ONISH DAVRI MADANIYATINING PAYDO BO‘LISH OMILLARI

Antik davrda qadimgi Yunoniston va Rimda adabiyot, san’at va me’morchilik gullab-yashnagan. Aflotun, Arastu, Suqrot va boshqa mutafakkirlar ko‘plab asarlar bitib, insoniyat taraqqiyotiga hissa qo‘shdilar. Vaqt o‘tishi bilan ikki madaniyat o‘chog‘i tanazzulga yuz tutib, qolaversa, xristianlikning paydo bo‘lishi bilan diniy omillar tufayli ba’zi qadriyatlar o‘zgara boshladi. Oqibatda yirik madaniyatlar go‘yo “uyquga ketadi”. XIV asrga kelib Italiyaning bir qator shaharlari – Florensiya, Genuya, Milan va Venetsiya savdo markazlariga aylanib, Osiyo mamlakatlari bilan savdoda yetakchilik qildilar. Bu mintaqada hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi o‘z o‘rnida madaniyat o‘choqlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bunday sharoitda madaniy jarayonlarning yuz berishi **Renessans** – **Uyg‘onish davri** deb nomlandi.

Renessans tarixi odatda uchta bosqichga bo‘lib o‘rganiladi: Ilk Uyg‘onish bosqichi (1420–1500-yillar), Rivojlangan Uyg‘onish bosqichi (1500–1527-yillar), So‘nggi Uyg‘onish bosqichi (1530–1620-yillar).

Italiyaning madaniy hayotidagi o‘zgarishlarda qadimgi Rim madaniyatining bevosita vorisi bo‘lganligi ham muhim rol o‘ynadi. Panteon, Kolizey va Rim forumlari xarobalari, Rim zodagonlarining haykaltaroshlik namunalari hamda freskalar bilan bezatilgan hashamatli saroylari kishilarni o‘tmishdagi buyuk madaniyatni eslashga majbur qildi. Italiyaning qadimiy merosiga yangicha munosabat madaniy yuksalishga poydevor bo‘ldi. Bundan tashqari, cherkovning jamiyatning barcha sohalari ustidan nazorat qilishi va o‘z ta’sirida ushlab turishiga qarshi turish kayfiyati ham Renessans davrining shakllanishiga turtki bo‘ldi. Diniy mafkuradan farqli ravishda dunyoviy manfaatlar ustun bo‘lgan insonparvarlik mafkurasi vujudga keldi.



### TARIX YONDAFTARCHANGIZGA KIRITING!

***Renessans*** *so‘zi uyg‘onish, qayta tiklanish degan ma’noni anglatadi. Renessans davri Italiyada boshlangan va keyinchalik Yevropaning ko‘p qismiga tarqalgan madaniy harakatdir. Bu oddiy o‘zgarish emas, balki dunyo hech qachon ko‘rmagan san’atning yaratilishiga olib kelgan inqilobiy jarayon edi. Renessans davri namoyandalari qadimgi yunon va rim madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning yangilanishidan ilhomlangan.*

## UYG‘ONISH DAVRI MADANIYATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

XIV asr oxiriga kelib ilm va fanga nisbatan qiziqish ortib bordi. Bu davrda grammatika, nutq, she’riyat, tarix, filologiya (yunon va lotin tillari) kabi gumanitar fanlarga ko‘proq e’tibor berildi. Gumanitar fanlarni o‘rganish insonparvarlik deb nomlanuvchi yangicha fikrlash va o‘rganish uslubini yuzaga chiqardi. Gumanitar fanlarning mashhurligi ko‘p jihatdan qadimgi tarixga qiziqish bilan bog‘liq edi. Bu qiziqish yevropaliklar yo‘qolgan deb hisoblagan ko‘plab qadimiy yozuvlarni qayta tiklash natijasida yuzaga keldi. Italiya



olimlari qadimiy matnlarni o‘qib chiqqach, Yunoniston va Rimning ulug‘vorligini qaytadan kashf etib, mumtoz madaniyatning yangilanishini orzu qilishdi. Yevropada iqtisodiy jarayonlarning tez rivojlanishi jamiyatda o‘rta sinfning tarkibi va mavqeyini kuchaytirib yubordi. Natijada, boy o‘rta sinf yuqori mavqe va hokimiyat egasiga aylanib bordi. O‘rta sinfning yuksalishi faqat Italiya bilan cheklanmagan. Bu ijtimoiy guruhning moliyaviy va siyosiy yuksalishi butun Yevropada yaqqol namoyon bo‘ldi. Boy savdogar va ishbilarmonlarning ko‘pchiligi o‘z tadbirkorligi bilan shu qadar band bo‘lishiga qaramay, adabiyot va san’atga qiziqishi baland edi. Bu qiziqish natijasida ularning bir qismi san’at ahlining homiylariga aylandilar. Uyg‘onish davri madaniy hayotida asosiy e’tibor diniy omillarga emas, balki inson shaxsiga qaratildi. Inson tabiatning eng yaxshi ijodi sifatida tushunilib, insoniylik g‘oyalari tarannum etildi. Uyg‘onish davri inson tafakkurining yuksak namunalarini, badiiy iste’dodni dunyoga keltirgan, shaxsning o‘ziga xosligini ochib bergan tarixiy davr bo‘ldi.



**Dante Aligyeri**

Yangi madaniyatning dastlabki kurtaklari XIII asrning ikkinchi yarmi – XIV asr boshlarida namoyon bo‘la boshladi. Insonparvarlik dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda Dante Aligyeri, Francheskо Petrarka, Jovanni Bokkachcho, Koluchcho Salutati kabi mashhur shoir, faylasuf, olim va siyosat arboblarining alohida o‘rni bor. Bu davr vakillaridan F. Petrarka va J. Bokkachcholar ilk bor yuksak obraz va fikrlarni ochiq, umumiy tilda ifodalay boshlagan ijodkorlar bo‘ldi. Ushbu yangilik katta hayajon bilan qabul qilindi va boshqa mamlakatlarda ham tarqaldi. D. Aligyeri esa o‘z asarlarini cherkov tili bo‘lmish lotin tilida emas, balki italyan tilida yozdi. Shundan so‘ng boshqa ijodkorlar ham o‘zlarining asarlarida umumiy tillardan foydalanishda davom etganlar.









## ILK UYG‘ONISH DAVRIDA SAN’ATNING RIVOJLANISHI

Bu davrda Yevropada me’morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik yuksaldi. Xususan, o‘rta asrlar me’morchiligi mumtoz antik davr ko‘rinishlari bilan o‘zaro uyg‘unlikda yaratildi. Keyinchalik, gumanizm g‘oyalari ta’sirida rassomlar o‘rta asrlar an’analaridan voz kechib, qadimgi san’at namunalaridan foydalana boshladi. Uyg‘onish davri arxitekturasining asoschisi florensiyalik **Filippo Brunelleski** (1377–1446) edi. Santa Mariya soborining ulkan gumbazi va Florensiya Bolalar uyidagi galereyalar uning eng mashhur ijod namunalari hisoblanadi. Santa Mariya sobori gumbazining yaratilishi Renessans davri me’morchiligining rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Ilk Uyg‘onish davrida madaniyatning alohida ko‘rinishi rassomchilik hisoblanadi. Bu davrda yetuk rassomlar yetishib chiqib, ularning ijodi keyingi davr rassomlari uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. Xususan, florensiyalik rassom **Tommazo Mazachcho** (1401–1428) Ilk Uyg‘onish davrining birinchi rassomi hisoblanadi. Mazachcho “Statir mo‘jizasi” va boshqa shu kabi o‘z davrining mashhur san’at asarlarini yaratgan. “Statir mo‘jizasi” asari noyob kompozitsion xususiyatlarni aks ettirgan holda rassomning yuksak mahorati va iste’dodini namoyon qilgan.

Ayni paytda Italiyaning bir qancha shaharlarida taniqli rassomlar ijod qilishgan. Xususan, Jovanni Santi (Rafael Santining otasi) Urbino shahrida,

### O‘YLANG VA XULOSA QILING!

***Agar u yerda bo‘lganingizda...*** *Siz myunxenlik talabasiz, Italiyaning Bolonya shahridagi universitetda huquqshunoslik bo‘yicha tahsil olmoqdasiz. Renessans davrida Italiyadagi hayot juda hayajonli! Siz rassomlar va yozuvchilar bilan uchrashgansiz, san’at va adabiyot haqida ko‘p narsalarni o‘rgandingiz. Siz o‘rgangan hamma narsangizni shahringizdagi odamlarga aytishni orziqib kutasiz. Bolonyadagi do‘stlaringiz sizga yuksak me’morchilik obidalarini ham ko‘rsatishdi. Siz Italiyada ko‘rganlaringiz haqida o‘z yaqinlaringiz va do‘stlaringizga qanday hikoya qilasiz?*



Franchesko del Kossa Ferrara shahrida, Andrea Mantenya Mantua shahrida, Pyetro Perujino Peruja shahrida, Jovanni Bellini Venetsiya shahrida mashhur bo‘lib, rassomchilik san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shdilar. Ilk Uyg‘onish davri rassom va haykaltaroshlaridan biri **Andrea del Verrokkio** (1435–1488) bo‘lgan. Andrea del Verrokkioning ustaxonasida Sandro Bottichelli, Pyetro Perujino va Leonardo da Vinchi kabi Uyg‘onish davri buyuk rassomlari san’at sirlarini o‘rgangan. Andrea del Verrokkio haykaltaroshlik sohasida “David”, “Iso Masih va avliyo Foma”, “Qo‘mondon Bartolomeo Kolleoni” haykali kabi mashhur san’at asarlarini yaratdi.



**BUNI YODDA SAQLANG!**

*Andrea del Verrokkioning “Qo‘mondon Bartolomeo Kolleoni” nomli haykali Venetsiyadagi San Jovanni maydonida o‘rnatilgan bo‘lib, bu ulug‘vor ot haykali kompozitsiyasi Yevropa mumtoz san’atida barchaga namuna bo‘ldi.*

## YANGI G‘OYALARNING SHIMOLIY YEVROPAGA TARQALISHI

Italiya va unga yondosh hududlardagi universitet bitiruvchilari, san’at vakillari, sayohatchilar, qolaversa, matbaa sohasining rivojlanishi Uyg‘onish davri yangi g‘oyalarining butun Yevropa bo‘ylab tarqalishiga yordam berdi. Xususan, Yevropaning turli burchaklaridan kelgan talabalar universitetlarda o‘qish uchun Italiyaga borishgan. Ushbu universitetlardagi o‘qituvchilarning aksariyati gumanistlar edi. Gumanist o‘qituvchilardan tahsil olgan shimoliy yevropalik talabalar yangi g‘oyalarni o‘zlari bilan vatanlariga olib ketishgan. Bundan tashqari, Fransiya, Germaniya va Niderlandiyada yangi universitetlar ochildi. Ushbu maktablar gumanistlar tomonidan tashkil etilganligi sababli, Uyg‘onish davri odamlarining qadr-qimmati haqidagi g‘oyalari butun Yevropaga tarqaldi. Shimoliy yevropaliklar ham Uyg‘onish davrining san’at haqidagi ba’zi g‘oyalarini o‘zgartirdilar. Birinchidan, rasmlardagi odamlar yunon xudolariga o‘xshamasdi. Buning o‘rniga, ular oddiy kishilarni boricha tasvirlab, haqiqiy hayotni ko‘rsatib berishgan. Ikkinchidan, rassomlar realizmni mohirona tasvirlashdi. Ular toshlardan tortib gullargacha bo‘lgan borliqni shu qadar aniq bo‘yashdiki, bu narsalar umuman chizilganga o‘xshamasdi, balki rasmga yopishtirilgandek, deyarli haqiqiy bo‘lib ko‘ringan. Uchinchidan, Injilda tasvirlangan voqealar Italiya Uyg‘onish davri san’atining an’anaviy mavzusi edi. Bundan farqli o‘laroq, shimollik rassomlar kundalik hayot sahnalarini chizdilar. Yan van Eyk Shimoliy Yevropada Uyg‘onish davrining yirik vakillaridan biridir. Van Eyk moybo‘yoqning yangi turlarini ishlab chiqib, rasmlariga o‘tkir va yorqin ko‘rinish berdi. U o‘z rasmlarida yorug‘likni tasvirlashning yangi usullarini kashf etdi. U rasmdagi eng mayda detallarni ham real tasvirlay olgan. Van Eyk Flandriyada yashovchi italiyalik tadbirkor uchun chizgan “Jovanni Arnolfini” portretida obyektlarning kiyimlari to‘qimasini, shuningdek, ochiq derazadan tushayotgan yorug‘likni o‘ziga xos tarzda ifodalab ko‘rsata olgan.



*Rassom Yan van Eyk*

## MUSIQA SAN’ATI

Uyg‘onish davri kashfiyotlar, izlanishlar va ixtirolar, boshqacha aytganda, katta o‘zgarishlar davri edi. Bu davrda ilm-fan, falsafa, rassomchilik va haykaltaroshlik bilan bir qatorda musiqaga ham qiziqish kuchaydi. O‘rta asrlarda cherkovga kelgan dindorlar Xudoni madh etib, hamd-u sanolardan iborat bo‘lgan qo‘shiqlarni lotin tilida kuylashgan. Ibodat davomida dindorlar rohibga jo‘r bo‘lib, u bilan bir xil ohangda kuylashi, go‘yoki ularning ruhiyatini tinchlantirib, Xudoga yanada yaqinlashtirgan. Ayni shu davrga kelib kishilar nafaqat cherkovda, balki o‘z uylarida ham musiqadan zavqlanishni xohlay boshlashdi. Gumanistlar ham insonning har tomonlama barkamol va bilimli bo‘lishi uchun musiqani tushunishi, qo‘shiq aytishni bilishi muhim degan fikrda edi. Bundan tashqari, matbaa ixtirosi an’anaviy va zamonaviy kompozitsiyalarni ijro etishni o‘rganmoqchi bo‘lganlarga notalarni tarqatish imkonini berdi. Bu omillarning barchasi musiqa san’ati rivojlanishini taqozo etardi. Shu tariqa musiqa tobora ko‘proq shaxsiy ifoda masalasiga aylanib bordi. Bu esa kishilarning qo‘shiq aytishning turli usullarini sinab ko‘rishi va yanada rivojlanishiga keng yo‘l ochdi. Uyg‘onish davrida ko‘plab bastakorlar o‘zlarining musiqalarini yozishni boshladilar. Ularning aksariyati diniy va kundalik hayot tasvirlangan dunyoviy musiqalarni yozishgan. Uyg‘onish davrida Jovanni Ambrozio, Domeniko da Ferrara (Italiya), Xuan de Urrede (Ispaniya) va boshqa mashhur san’at namoyandalari musiqa rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar.



*Ayol musiqachilar*

**ATAMALAR IZOHI**

***Statir*** *(ayrim manbalarda stater) – antik davrda pul birligi.*



### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Uyg‘onish davrini qanday bosqichlarga bo‘lish mumkin?***
2. ***Ilk Uyg‘onish davri vakillarining san’ati boshqa davrlardan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?***
3. ***Uyg‘onish davrida Shimoliy Yevropa vakillari madaniyat va san’atning rivojlanishiga qay darajada hissa qo‘shganlar?***
4. ***Uyg‘onish davri taraqqiyotida musiqaning o‘rni qanday bo‘lgan?***



Astrolyabiya

## 25-mavzu

# Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari madaniyati

**SIZ BILIB OLASIZ:**

- Osiyoda ilm-fan va san’atning rivojlanishi;
- Osiyo me’morchiligi;
- Mali va Songayda madaniy hayot;
- Afrika madaniyatida haykaltaroshlik va niqob yasash san’ati;
- Amerika xalqlarida madaniy hayot.



## OSIYODA ILM-FAN VA SAN’AT

Rivojlangan o‘rta asrlarda Osiyo mamlakatlari astronomiya, geografiya, matematika, falsafa va boshqa fanlarda katta yutuqlarga erishdilar. Xususan, islom olamida xalqlarning umumiy tillarga ega bo‘lishi olimlarning bir-birini o‘zaro tushunishi va birgalikda fanlarni rivojlantirishiga katta hissa qo‘shgan. Bu davrda eng taraqqiy etgan fanlardan biri astronomiya bo‘ldi. Osiyoning ba’zi shaharlarida quyosh, oy, yulduzlar joylashuvini mukammal o‘rganadigan rasadxonalar barpo etildi. Xususan, XIII–XV asrlarda Marog‘a, Samarqand, Istanbul rasadxonalari faoliyat yuritgan. XIII asrda Nosiriddin at-Tusiy boshchiligidagi astronomiya maktabi vakillari Qutb Sheroziy, Muayyad al-Urdiy, Muhammad ash-Shotirlar Ptolemey nazariyasini inkor etdi. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishini birinchi bo‘lib kuzatgan holda N. Kopernikdan 300 yil oldin bu jarayonni isbotlab berdi. Bu kashfiyot fanda **“Marog‘a inqilobi”** nomi bilan mashhur bo‘ldi. Islom mamlakatlarida astronomiyaning rivojlanishi o‘z o‘rnida geografiya fanining taraqqiy etishiga, kishilarning dunyoni o‘rganishiga yordam berdi. Xususan, arab sayyohi Ibn Battuta XIV asrning birinchi yarmida Afrika, O‘rta Osiyo, Hindiston, Xitoy va Ispaniyaga qadar sayohat qilgan. Bu va boshqa sayohatlar davomida musulmon geograflari mamlakatlarning aniq xaritalarini tuzib, masofalarni hisoblashning yangi usullarini ishlab chiqdilar. Rivojlangan o‘rta asrlarda Sharqning turli min-



*“Kitob al-Burxon” qo‘lyozmasida oy fazalari*



*Matematik va astronom Nosiriddin at-Tusiy*



taqalarida, xususan, O‘rta Osiyo, Koreyada ilm-fanning ravnaq topishi turli akademiyalarning tashkil etilishiga olib keldi. XIV asrda Mirzo Ulug‘bek tomonidan Samarqandda akademiya tashkil etilib, uning tarkibida rasadxona, madrasa va boy kutubxona faoliyat yuritgan. XV asrda Sejong hukmronligi davrida Koreya qirollik akademiyasi tashkil etilib, unga iqtidorli yoshlar jalb etilgan. Akademiyada yosh olimlar tahsil olishi bilan birga qishloq xo‘jaligi va tibbiyot sohasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar ham olib borilgan. Akademiyada aholining savodxonligini oshirish uchun yigirma sakkiz harfdan iborat koreys fonetik alifbosi yaratildi.



## OSIYO ME’MORCHILIGI

XIII–XV asrlarda Osiyo mamlakatlarida me’morchilik yuqori darajada rivojlandi. Osiyolik me’morlarning ijodi jahon me’morchiligi tarixida Yevropa, Afrika, Amerikadagi inshootlardan ko‘plab xususiyatlari bilan ancha yuqori turgan. Bu davr me’morlari turli inshootlarni qurishda matematik hisob-kitoblardan kelib chiqib mukammal uslublardan foydalanishgan. Me’morlar loy, tosh, gips va boshqa qorishmalardan foydalanib, inshootlarni geometrik figuralar (kvadrat, uchburchak, doira) bilan murakkab me’moriy tuzilmalar va naqshinkor bezaklarga boy qilib qurishgan. Bu davrda Qutb minor (Dehli, XIII asr), Sulton Xon karvonsaroyi (Ko‘nyo, XIII asr), Al-Firdavs madrasasi (Halab, XIII asr), Yunlegun monastiri (Shansi, XIII asr), Oq pagoda (Pekin, XIII asr), Oltin pavilyon (Kioto, XIV asr oxiri), Go‘ri Amir maqbarasi (Samarqand, XV asr), Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasi (Turkiston, XV asr), To‘pqopi saroyi (Istanbul, XV asr), Kumush pavilyon (Kioto, XV asr oxiri) va boshqa inshootlar juda mashhur bo‘lgan.

Mudofaa inshootlari ichida, shubhasiz, Buyuk Xitoy devori tengsiz hisoblanadi. Mazkur inshootning bugungi kungacha saqlanib qolgan qismlari asosan Min sulolasi davrida (1368–1644) qurilgan. Bu davr qurilishida asosan g‘isht va tosh bo‘laklari kabi mustahkam materiallardan foydalanilgan. Buyuk Xitoy devori transport yo‘lagi, chegara nazorati, kuzatuv minoralari, qo‘shin uchun kazarma (harbiy qism joylashtiriladigan maxsus bino) kabi mudofaaga xos vazifalarni bajargan.

*Qutb minor*

### BILAG‘ONLAR UCHUN

*Yaponiyadagi **Oltin pavilyon** 1397-yili syogun Asikaga Yoshimitsu tomonidan qurilgan. Bu inshoot uch qavatdan iborat yog‘och konstruksiyali saroy bo‘lib, uning barcha uch qavati to‘rt tomondan ochiq ayvonlar bilan o‘ralgan. Ushbu saroyning birinchi qavati yashash joyi bo‘lgan, ikkinchi qavati musiqa va she’riyat bilan shug‘ullanish, uchinchisi esa ibodat qilish uchun mo‘ljallangan edi.*





*To‘pqopi saroyi*



*Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasi*

## AFRIKA MAMLAKATLARIDA MADANIY HAYOT

Rivojlangan o‘rta asrlarda Afrika qit’asida madaniy jarayonlar Mali va Songayda nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. Madaniy jihatdan yuksalgan Malida islom dini muhim ahamiyat kasb etgan. Chunonchi, XIII asrda Mansa Muso ta’limni rivojlantirish va islom dinini keng yoyish orqali madaniy jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqqan. O‘rta asrlarda ko‘plab madrasa va masjidlari bo‘lgan Tombuktu, Jenne, Gao kabi shaharlar Afrikadagi islom dini va ilm markazlari sifatida shuhrat qozondi. Bu madrasalarda diniy ta’lim bilan birgalikda grammatika, matematika, geografiya, tarix, fizika, astronomiya, kimyo kabi fanlar ham chuqur o‘rgatilgan. Madrasani muvaffaqiyatli yakunlagan talabalar hadis, fiqh, savdo sohalarining bilimdoni va a’lo xulq-atvor ramzi sifatida ko‘rilgan salla bilan taqdirlangan. Madrasa bitiruvchisi qozi yoki mudarris darajasida bo‘lib, ular Malining asosiy shaharlarida muhim lavozimlarda faoliyat yuritganlar. Songay hukmdori Buyuk Askiya islom dinini mustahkamlash yo‘lidan borib mamlakatda arab tili va uning o‘qitilishini qo‘llab-quvvatladi. Tombuktu shahrida maktab, kutubxona, madrasa va masjidlar soni har qachongidan ham ko‘paydi. Bu vaqtda Tombuktudagi Sankore madrasasi ayniqsa mashhur edi. Bu ilm dargohiga G‘arbiy Afrikaning turli burchaklaridan talabalar matematika, tibbiyot, grammatika va huquqni o‘rganish uchun kelishgan. Jenne shahridagi madrasa tibbiyot ilmining markazi sifatida bir qator yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Xususan, bu ilm dargohida chivinlar orqali tarqaladigan bezgak kasalligiga qarshi muolajalar ishlab chiqilgan, insonning ko‘z sohasidagi qator kasalliklariga doir murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilgan.



*Tombuktu qo‘lyozmasi*

## AFRIKA XALQLARIDA HAYKALTAROSHLIK VA NIQOB YASASH SAN'ATI

G'arbiy Afrikada san'atning barcha turlari ichida haykaltaroshlik eng rivojlangan sohalardan biri bo'ldi. Afrikalik haykaltaroshlar yog'och, mis, loy, fil suyagi, tosh va boshqa materiallardan bezakli haykallar hamda o'ymakorlik buyumlarini mohirlik bilan yasaganlar. Aksariyat hollarda bu haykallar diniy marosimlarda ajdodlar ruhiga sig'inish uchun yasalgan. Shuning uchun ham haykallarning aksariyati xudolar va qabila ajdodlari siymosini aks ettirgan. Diniy marosimlarda haykallar vositasida ilohlar hamda ajdodlar ruhidan madad so'rab duo va iltijolar qilingan. Duolari ijobat bo'lganida minnatdorchilik sifatida xudolar uchun turli haykallar yasashgan. Bu haykallar muqaddas joylarda saqlanib, oddiy kishilarning ko'rishi man etilgan. Afrikada haykallardan tashqari har xil niqoblarni ham yasashgan. Yog'ochdan yasalib, turfa ranglarda bo'yalgan bu niqoblarda sirtlon, sher, maymun, ohu va boshqa hayvonlarning qiyofalari tasvirlangan. Odamlar bu niqoblarni marosimlar paytida, olov atrofida raqsga tushishganida taqib olishgan. Kishilarning hayvonlarga taqlid qilib niqob taqqan holda turli marosimlarni bajarishi inson hamda tabiatning o'zaro jipslikda va hamkorlikda yashayotganligini namoyish etish bo'lgan.





### TARIX YONDAFTARCHANGIZGA KIRITING!

*Inklar Quyosh xudosiga sig'inganlar. Inklar qo'l ostiga o'tgan hududlar majburiy tarzda bu dinni rasmiy qabul qilishi shart bo'lgan. Ammo, shu bilan birgalikda, bosib olingan hududlardagi odamlarga o'zlarining mahalliy xudolariga ham sig'inishini taqiqlamagan. Inklar uchun din hayotning muhim qismi sifatida qaralgan. Ular doimiy ravishda Quyosh xudosi uchun diniy marosimlarni o'tkazganlar.*

## AMERIKA XALQLARIDA MADANIY HAYOT

Atsteklar xudolar insonlar hayotini nazorat qiladi, tabiat hodisalari orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi deb hisoblashgan. Bu xalqlar hayotning birlamchi manbayi sifatida quyosh nuri va yomg'irni tushunishgan. Urush va yomg'ir ma'budlariga alohida ehtirom ko'rsatishgan. Bu xudolarga bag'ishlab poytaxt markazida ulkan zinapoyali ibodatxona barpo etilgan, ularga atab qurbonlik marosimlarini o'tkazganlar. Astronomiyani chuqur o'rganib, Mayya taqvimiga o'xshash o'zlarining taqvimini yaratganlar. Taqvim ularga jang boshlash, marosimlarni o'tkazish hamda ekinlarni ekish va yig'ishtirib olish uchun yordam bergan. Ular tabobatda 100 dan ortiq o'simliklarni dori sifatida ishlatishgan.

Atsteklar arxitektura, haykaltaroshlik va zargarlik sohalarida bilimlarga ega bo'lishgan. Xususan, mamlakat noqulay geografik hududda joylashganligi tufayli, ular yirik suv havzasidagi orolni qirg'oq bilan bog'lash



*Tenochtitlan ibodatxonasi (qayta tiklangan)*

uchun toshdan yo‘l va ko‘priklar, aholini chuchuk suv bilan ta’minlash maqsadida esa kanallar tarmog‘ini barpo etganlar. Mohir tosh yo‘nuvchi ustalar piramida shaklidagi ulkan tosh ibodatxonalarini qurganlar. Tenochtitlanda xuddi shunday ko‘plab tosh ibodatxonalar bor edi. Bu ibodatxonalar xudolar va xalq qahramonlarining toshdan yasalgan haykallari bilan bezatilgan.

Atsteklarda davlat lavozimlarida ishlovchi kishilar asosan zodagonlardan yetishib chiqqan. Zodagonlar farzandlarini davlat boshqaruvi, moliya, qishloq xo‘jaligi, harbiy boshliqlar yoki ruhoniylar tayyorlaydigan maxsus maktablarda o‘qitishgan.

Inklar mamlakatida rasmiy ishlar kechua tilida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning rasmiy yozuvi bo‘lmagan. Ular yozuv o‘rnida **kipu** deb nomlangan tugunli xatlardan foydalanishgan. Kipuni ayrim kishilargina tushunishgan. Ink davlatida maxsus kishilar bo‘lib, ular mamlakat tarixi, xalq afsonalari va urf-odatlari, umuman, buyuk janglardan tortib kundalik hayotgacha bo‘lgan barcha voqealarni qo‘shiq yoki she’riy tarzda yozib, keyingi avlodga o‘tishi uchun javobgar bo‘lishgan. Inklarda zodagonlarning o‘g‘il farzandlari Kuskodagi maktablarga borishgan. Bo‘lajak amaldor va ruhoniylar tayyorlaydigan bu maktablarda din, tarix, huquq va kechua tili mukammal o‘rgatilgan. Quyi tabaqa vakillarining farzandlari esa ota-onalarining kasb-korini o‘rganishgan. Shuning uchun ham ko‘pchilik bolalar maktabga bormagan. Ba’zan iqtidorli yoshlar tanlab olinib, to‘quvchilik, pazandachilik va dinni o‘rgatish uchun maktablarda o‘qitilgan. Maktabni bitirganidan so‘ng ular hukmdor saroyiga yoki ibodatxonalar xizmatiga yuborilgan.

Inklarda me’morchilik san’ati yuqori darajada rivojlangan. Ular o‘zlarining toshdan bunyod etilgan qal’a va binolari bilan mashhur bo‘lgan. Bu inshootlarning tosh bo‘laklari shu qadar aniq kesib olinganki, ularni bir-biriga mustahkamlash uchun boshqa qorishma ishlatish shart bo‘lmagan. Tosh devorlar yuqori darajadagi mohirona arxitektura uslubi bilan terilgani bois toshlar orasiga hatto pichoq tig‘i ham sig‘magan.



## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. ***Osiyo me’morchiligining qanday o‘ziga xos jihatlari bor?***
2. ***Afrikada ta’limning rivojlanishiga qanday omillar turtki bo‘lgan?***
3. ***Amerika xalqlarida madaniy rivojlanishning qanday umumiy jihatlari bor?***

# MUNDARIJA

**Kirish** ..... 3



## I BOB. XIII–XV ASRLARDA YEVROPA DAVLATLARI

**1-mavzu.** Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi. General shtatlar .... 8
**2-mavzu.** Yuz yillik urush: sabablari, yakunlari va oqibatlari ..... 14
**3-mavzu.** Fransiyani birlashtirishning tugallanishi va uning natijalari ..... 21
**4-mavzu.** Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi ..... 25
**5-mavzu.** XIV–XV asrlarda Angliya ..... 30
**6-mavzu.** Germaniyada ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot ..... 35
**7-mavzu.** Italiya: shahar-respublikalar va Rim papalari davlati ..... 40
**8-mavzu.** Pireney yarimoroli mamlakatlari: Ispaniya va Portugaliya ..... 45
**9-mavzu.** Rus knyazliklarida ijtimoiy-siyosiy hayot ..... 52
**10-mavzu.** Bolqon mamlakatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa ..... 58



## II BOB. OSIYO, AFRIKA VA AMERIKA XALQLARI

**11-mavzu.** Uch qit'ani birlashtirgan sultonlik (Usmoniy turklar davlati) ..... 66
**12-mavzu.** O'rta asrlarda Eron ..... 72
**13-mavzu.** Oltin O'rda xonligi ..... 77
**14-mavzu.** O'rta asrlarda Hindiston ..... 84
**15-mavzu.** O'rta asrlarda Xitoy ..... 89
**16-mavzu.** O'rta asrlarda Yaponiya va Koreya ..... 96
**17-mavzu.** O'rta asrlarda Afrika ..... 102
**18-mavzu.** O'rta asrlarda Amerika xalqlari ..... 108



## III BOB. XIII–XV ASRLARDA JAHON XALQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

**19-mavzu.** O'rta asrlar Yevropa aholisining kundalik hayoti ..... 116
**20-mavzu.** XIII–XV asrlarda Yevropa iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari ... 122
**21-mavzu.** Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari iqtisodiy hayoti ..... 128
**22-mavzu.** Yevropada ilm-fan ..... 134
**23-mavzu.** Yevropada me'morchilik va san'at ..... 140
**24-mavzu.** Ilk Uyg'onish davri madaniyati ..... 146
**25-mavzu.** Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari madaniyati ..... 152

Jahon tarixi [Matn]: 8-sinf uchun darslik / O. B. Abdimo‘minov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2024. – 160 b.

ISBN 000000000000000

UO‘K 000000000

KBK 000000000

***O‘quv nashri***

# JAHON TARIXI

*Umumiy o‘rta ta’lim*
*maktablarining 8-sinfi uchun darslik*

*Muharrir* Jamshid Matyoqubov

*Texnik muharrir* Akmaljon Boboqulov

*Rassom* Asliddinxo‘ja Xotamov

*Musahhih* Tashpo‘lat Mirzayev

*Sahifalovchi-dizayner* Artur Nurullayev

Bosishga 00.00.0000 ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
“Arial” garniturasi. Kegli 11 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 00,00. Nashriyot-hisob tabog‘i 00,00.
Adadi 0000000 nusxa. Buyurtma № 0000.

## Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

| № | O‘quvchining ismi va familiyasi | O‘quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbarining imzosi | Darslikning topshirilgandagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |
| 4 | | | | | | |
| 5 | | | | | | |
| 6 | | | | | | |
| 7 | | | | | | |

**Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:**

| | |
|---|---|
| Yangi | Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati. |
| Yaxshi | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q. |
| Qoniqarli | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi. |